На сегодняшний день ожирение представляет собой актуальную проблему для всего мира, что связано с его прогрессивным распространением. Эксперты ВОЗ предполагают двукратное увеличение количества лиц с ожирением к 2025 г. по сравнению с 2017 г. На сегодняшний день более миллиарда человек на планете имеют лишнюю массу тела. В Узбекистане более 50% взрослого населения имеют избыточную массу тела, около 30% страдают ожирением той или иной степени. Избыточная масса признана одним из основных факторов риска развития многих заболеваний, таких как сахарный диабет, артериальная гипертензия, ИБС, заболевания печени и желчного пузыря и многих других.

На основании этого многолетние государственные программы развития здравоохранения в Республике Узбекистан предпринимают

последовательные шаги по системным мерам политики, направленным на профилактику хронических неинфекционных заболеваний. В соответствии с этой политикой нашей страны важным направлением является профилактика неинфекционных заболеваний.

Узбекистан планирует снизить долю населения с избыточным весом до 50%, а с ожирением – до 23%. Об этом говорится в проекте национальной стратегии «Здоровье населения – 2030». В связи с чем создан Институт здоровья и стратегического развития и разработана «Программа формирования здорового образа жизни и популяризации правильного питания на 2024–2026 годы» (Минздрав РУз, 2023). Для достижения этой цели планируется проводить пропаганду правильного питания и здорового образа жизни.

**Целью** наших исследований является изучение мировых достижений и степени изучения по профилактике избыточной массы тела и экзогенно-конституционального ожирения у студентов юношеского возраста на основе совокупности факторов риска их формирования.

**Результаты исследований.** Одной из самых серьезных проблем, стоящих перед общественным здравоохранением в XXI-м веке, является ожирение среди детей. Раньше детское ожирение встречалось редко, и в течение многих лет реальные доказательства связи между наличием ожирения в детском возрасте и массой тела у взрослого человека отсутствовали. Однако проводимые исследования и полученные данные позволяют предполагать, что до 10% детей могут иметь клиническое ожирение и, что далеко немалое число подростков, имеющих избыточную массу, сохраняют её и во взрослом возрасте. По оценкам, в 2010 г. число детей с излишней массой тела в мире превышает 42 млн. Около 35 млн из них живут в развивающихся странах.

Отмечается увеличение количества тучных детей и в нашей стране. По данным литературы, распространенность ожирения среди детского населения в Узбекистане колеблется от 3-5 до 20%. Огромная медико-социальная значимость самого ожирения, а также заболеваний, связанных с ожирением, манифестирующим в детском возрасте, определяет актуальность дальнейших исследований в этом направлении. Избыточная масса тела и ожирение определяются как «патологическое или избыточное накопление жира, представляющее риск для здоровья».

Превалирующее большинство подростков, имеющих избыточную массу тела, сохраняют её и во взрослом возрасте. Данное ожирение во многом обусловлено перестройкой нейро-эндокринной системы, связанной с половым созреванием и часто формирует так называемый гипоталамический синдром пубертатного периода. Гены-кандидаты повышают риск возникновения избыточной массы тела у ребенка только при условии действия средовых факторов, в частности экзогенных.

Переизбыток, употребление избыточных количеств жира, легкоусвояемых углеводов, нарушения ритма питания, так называемый синдром «ночного» питания являются частыми причинами развития ожирения. Гиподинамия и гипокинезия являются обязательными и сопровождающими факторами риска в развитии ожирения. Социальные факторы играют очень важную роль в развитии ожирения даже у детей раннего возраста. К ним относятся низкий образовательный уровень родителей и социальный статус семьи, неполная семья с единственным ребенком (частота ожирения значительно ниже в многодетных семьях), стрессовые ситуации в семье, неординарные ситуации в школе и окружающей обстановке - все эти обстоятельства наносят психическую травму ребенку и могут спровоцировать у него развитие ожирения.

**Выводы.** Необходимо разработать комплекс профилактических мероприятий по первичной профилактике избыточной массы тела и ожирения у студентов, включающий оригинальную образовательную программу для студентов и их родителей, информационную компьютерную технологию оценки индивидуальных факторов фактического питания, методические и справочные материалы, способствующие оптимизации питания и образа жизни студентов.

## ҲАРБИЙ ХИЗМАТЧИЛАРДА СОҒЛОМ ОВҚАТЛАНИШ ҲАМДА ЖИСМОНИЙ ФАОЛЛИК ОРҚАЛИ ВАЗНИ БОШҚАРИШНИНГ ГИГИЕНИК ТАМОИЛЛАРИ

Қутлиев Ж., Давронов У., Нишонов Ж.  
Қуrollи Кучлар Ҳарбий тиббиёт академияси, Тошкент,  
Ўзбекистон

**Тадқиқот мақсади.** Ушбу тадқиқотда ҳарбий хизмат шароитида, соғлом овқатланиш ҳамда етарли жисмоний фаоллик бўйича мажмуавий тадбирлар ёрдамида вазни бошқариш имкониятларининг самарадорлигини баҳолаш бўйича ўтказилган илмий изланишлар натижалари баён этилади.

**Тадқиқотнинг материал ва усуллари.** Ҳарбий хизматчиларда соғлом овқатланиш ҳамда жисмоний фаоллик орқали вазни бошқаришнинг гигиеник тамоилларини шакллантиришда анкета-сўровнома, биоимпедансометрик, эпидемиологик, санитар-гигиеник ва санитар-статистик усуллардан фойдаланилди. Тадқиқотга мудофаа вазирлигининг турли бўлинмаларида хизмат қилувчи ортиқча вазн ва семизликдан азият чекувчи ҳарбий хизматчилар киритилди. Тадқиқотга киритиш меъзонлари: барча ёшдаги ва турли жинсдаги офицерлар ҳамда шартнома бўйича ҳарбий хизматчилар киритилди. Тадқиқотда уларнинг кун тартиби, турмуш ва хизмат шароитлари, овқатланиш рацияси ва одатлари, жисмоний фаоллик даражаси ўрганилди.

**Натижалар.** Ўтказилган тадқиқотимиз давомида ортиқча вазн ва семизликдан азият чекаётган ҳарбий хизматчиларнинг кун тартибини ўрганишимиз давомида тадқиқот остидагиларнинг 72,0 % эрталабги соат 6.00-6.30 да уйғониши ва кечки 22.00-22.30 да ухлашга ётиши аниқланган бўлса, 23,4 % ҳарбий хизматчилар соат 6.30 дан 7.00 оралиғида уйғониб, 22.30-23.00 оралиғида уйқуга кетиши, 3,53 % эса эрталаб соат 7.00-7.30 да уйғониб, 23.30-00.00 лар атрофида уйқуга ётиши аниқланган бўлса, 1,07 % ҳарбий хизматчилар эрталаб соат 8.00 дан кейин уйғониб, кечки вақт соат 00.30 дан кейин уйқуга ётиши аниқланди.

Бундан ташқари респондентларнинг 50,5 % ҳар куни эрталаб нонушта қилишадиган бўлса, 25,5% нонушта қилмасликни одат қилишган, 24,0% ҳарбий хизматчи эса айрим вақтлардагина нонушта қилишлари аниқланди. Шунингдек, сўровномада иштирок этганларнинг 24,9% кунига 1-2 маҳал овқатланиши, 73,9% кунига 3-4 маҳал овқатланиши, 3,0% кунига 4-5 маҳал овқатланиши

аниқланган бўлса, тадқиқот остидагиларнинг бирортаси кунига 6 маҳал овқатланмаслиги аниқланди.

Тадқиқот остидагиларнинг 87,3% кун давомида 30 дақиқадан 60 дақиқача қандайдир турдаги жисмоний фаоллик билан шуғулланиши, 13,7 % эса 60 дақиқадан ортиқ вақт моайнида жисмонан фаол бўлишлари аниқланди. Ушбу 60 дақиқадан ортиқроқ жисмоний фаол бўлганларнинг 11,3% да семизликнинг биринчи даражаси аниқланган бўлса, 88,7% да ортиқча вазн мавжудлиги аниқланди.

Анкета-сўровномалар ва биоимпеданс тадқиқотлари натижаларига асосан, кун тартиби ўртача жисмоний фаолликдан иборат бўлган ҳарбий хизматчиларда тана вазнини меъёрда ушлаб туриш муаммоси мавжудлиги, нисбатан кўпроқ жисмоний фаолликда ҳаёт кечираётган ҳарбий хизматчиларда эса тана вазнини назорат қилиш имкониятлари бирмунча ортиқлиги аниқланган бўлса, соғлом овқатланиш меъзонлари ва овқатланиш тартибига амал қилмайдиган ҳарбий хизматчиларда тана вазнини бошқаришда сезиларли муаммолар мавжудлиги аниқланди.

Бундан ташқари юқори калорияга эга рация яъни карбонсувларга бой рация билан овқатланаётган ҳарбий хизматчиларга ҳаттоки юқори интенсивликдаги жисмоний юктамалар берилган вақтда ҳам вазни бошқариш имкониятлари чегараланганлиги аниқланди.

**Хулоса.** Шундай қилиб, ҳарбий хизматчиларнинг тана вазнини нафақат уларнинг жисмоний фаоллиги эвазига балки, уларнинг овқатланиш рациясини соғломлаштириш эвазигагина назорат қилиш имкониятлари ошади деб хулоса қилиш мумкин.

## **HARBIY XIZMATCHILARNING SURUNKALI PARENTERAL VIRUSLI GEPATITLAR BILAN KASALLANISHINING EPIDEMIOLOGIK TAHLILI**

**Qutliev J., Rustamov A, Karimov Z., Sunnatillayev R.**

**Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston**

**Tadqiqotning maqsadi.** Mudofaa vazirligining turli bo'linmalarida xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarning surunkali parenteral virusli gepatit bilan kasallanish darajasini epidemiologik jihatdan tahlil qilishdan iborat.

**Materiallar va tadqiqot usullari.** Harbiy davolash profilaktika muassasalarida surunkali parenteral virusli gepatitlar bilan xastalanib, davolangan harbiy xizmatchilarning kasallik tarixi ma'lumotlari tadqiqotning material sifatida olindi.

Tadqiqotda harbiy xizmatchilarning surunkali parenteral virusli gepatitlar bilan kasallanishining epidemiologik tahlili epidemiologik va statistik tadqiqot usullarini qoʻllagan holda yillar dinamikasida tahlil qilindi.

**Olingan natijalar.** Harbiy davolash profilaktika muassasalarida 2019-2023 yillarda surunkali virusli gepatitlar bilan davolangan harbiy xizmatchilarni tahlil qilganimizda kasallanishlar dinamikasi 2019 yilda 4,8%, 2020 yilda 1,4%, 2021 yilda 3,6% ni, 2022 yilda 8,1% ni va mos ravishda 2023 yilda 8,2% ni tashkil etganligi aniqlandi. Eng yuqori kasallanish koʻrsatkichlari 2022 va 2023 yilda kuzatilgan boʻlib, 2019 yilda kasallanishlar 2020 yilga nisbatan 3,4 %ga kamayganligi aniqlandi.

Albatta kasallikning bir yil ichida bunday kamayib ketishning bir qator sabablari boʻlib, bular davolash profilaktika ishlari jarayonida kasallanishlarni faol aniqlashning kamayganligi, kasallikning laborator tashxisotining susayganligi hamda ushbu davrda yuzaga kelgan koronavirus pandemiyasi mobaynida ushbu kasalliklar ikkinchi darajali muammom sifatida qaralganligi natijasi boʻlishi mumkin.

Bundan tashqari 2021 yildan 2023 yilgacha parenteral virusli gepatit kasallik tashxisi quyilishi oshib borganligi oʻtgan 2019 va 2020 yillardagi kasallanish holatlariga 2021 va 2022 yillarda tashxislanganligini sabab sifatida koʻrsatishimiz mumkin. Ushbu holatlarning asosiy sabablaridan biri bu respublika miqyosida eʼlon qilingan qattiq karantin rejimi va deyarli barcha virusologik laboratoriyalarning koronavirus infeksiyasi tashxisoti bilan shugʻullanishga safarbar etilganligi bilan izohlash mumkin.

Tadqiqot davomida surunkali viruli gepatit tashxisi bilan davolanganlarni

20,0 % ida turli darajadagi faollashgan surunkali gepatitlar, jami murojaat qilgan va kasallik tashxisi qoʻyilgan 25,0 % bemorlarda esa jigar sirrozining rivojlanishiga olib kelishi mumkin boʻlgan holatlar aniqlandi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalariga asosan, surunkali parenteral virusli gepatitlar tashxisi bilan davolanganlarda virus yuklamasini kamaytirishga qaratilgan dori vositalarini imkoniyatlariga qaramasdan, surunkali gepatit B va C infeksiyalarning yarmi 30-54 yoshlar oraligʻidagi harbiy xizmatchilar ekanligi, xastalagan harbiy xizmatchilarda 78,0 % holatlarda jigar sirrozi va bemorlarning 57,0 % da gepatotsellyulyar karsinoma kasalliklari asosan HBV hamda HCV hissasiga toʻgʻri kelishini nazarda tutgan holda, shuningdek, xastalikning epidemiologik jihatdan ahamiyatligini inobatga olgan holda ushbu kasalliklarga qarshi profylaktik chora tadbirlarni yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

## **OIV INFEKSIYASI VAKSINASI YARATILISHIDAGI MUAMMOLAR VA ISTIQBOL**

**Yuldasheva X. A.**

**Mamadaliyeva M. H**

**2-Marg'ilon Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi  
Hamshiralik ishi kafedrası**

**Annotatsiya:** Hozirgi vaqtda vaksinalar juda ko'plab yuqumli kasalliklarni boshqarish uchun butun dunyoda keng ko'lamda qo'llanilib kelinmoqda. O'tgan asrning eng olamshumul yangiliklaridan biri bo'lgan vaksinalar tibbiyot sohasida tez fursatlarda rivojlandi va jahonda emlanish tufayli qizamiq, difteriya, ko'k yo'tal, poliomielit, epidemik parotit, "B" gipatiti, qizilcha, sil, gripp, epidemik parotit va qoqshol, chechak kabi asorati jiddiy bo'lgan kasalliklar sonini keskin kamaytira oldi. XX asr tibbiyot tarixida nafaqat vaksina yaratildi balki, Odam immuniteti virusi (OIV) dek bedavo kasallik paydo bo'ldi.

**Kalit so'zlar:**

JSST ma'lumotlariga ko'ra OIV yoki OITS tufayli 2023-yilga kelib, butun dunyo bo'ylab 40,4 milliondan ortiq bemorlar vafot etgan va taxminan 39 million inson OIV infeksiyasini yuqtirib olgan. Bu lo'rsatgichning yillik o'sishi 1,5 mln. kishini tashkil qilmoqda. Ulardan 29,8 million inson retrovirusga qarshi davo oladi. O'zbekistonda OIV infeksiyasi bilan og'rikan bemor birinchi marta 1987-yilda ro'yxatga olingan. Shu paytdan beri 2022-yilning 1-yanvar holatigacha 71 mingga yaqin bemor kasallangiligi aniqlandi, o'lganlar soni esa 23 mingga yaqinni tashkil etgan. 2022-yil ohiriga kelib O'zbekistonda 45 mingga yaqin OIV infeksiyasi bilan kasallangan insonlar borligi, ularning 55 foizi erkaklar va 45 foizi ayollarligi ma'lum qilingan edi.

Bugungi kunda vaksinalar insoniyaning g'alabasi sifatida tan olingan bir vaqtda XX asr vabosi deya nom olib ulgurgan OIV infeksiyasi-chi? Nega bu infeksiyaga hozirgacha vaksina yo'q? Bu savolga oddiy javob berish mumkin: OIV virusi tibbiyotga ma'lum viruslar ichida "xameleon" ya'ni, o'zgarib turuvchi ayyor jonzot. U hozirgi paytda ham o'zgaryapti, mutatsiyaga uchrayapti va olimlarning OIV infeksiyasiga qarshi vaksina ishlab chiqish uchun qilgan izlanshlarini barchasini yo'qqa chiqaryapti. Ho'sh, OIV virusi qanday tuzilishga ega? OIV uch o'lchamli murakkab tuzilgan qobiqqa ega. Qobiqning yarmi glyukoza bilan

qoplangan. Aynan qobiqdagi shu glyukoza yaratilayotgan vaksinalar faoliyatiga to'sqinlik qiladi yoki bloklaydi. Agar OIV infeksiyasining etiologiyasi boshqa viruslarniki kabi bo'lganida, soha mutaxassislari bu masalada ancha yutuqlarga erishgan bo'lardi. Lekin inson OIV infeksiyasi o'z qobig'ini doimiuy, eng muhimi, juda tez o'zgartirib turadi. Virusga qarshi kurashish, uni yengishi uchun eng avvalo immun tizimimiz uni tanishi kerak. Lekin bu virus mutatsiyaga tez uchrashi tufayli immun tizimi uni xavfli deb hisoblamaydi. Inson immun tanqisligi virusi retroviruslar oilasiga mansub. Bu kabi viruslar o'z DNK-genomlarini inson hujayrasida saqlay olish hususiyatiga ega. Mutahassislar bir necha yillardan beri retroviruslarga qarshi kurashish uchun turli choralarni izlashyapti, har qanday ko'payishiga oid ilmiy ishlar ustizda izlanishmoqda. Natija esa, hozircha yo'q.

OIV infeksiyasiga qarshi vaksinalardan biri 2016 yil Janubiy Afrika Respublikasida ishlab chiqilishi boshlangan HVTN 7026 nomli vaksina fan oldida katta umid uyg'otgandi. Dastlabki tajribalarda 18-35 yosh orasidagi 5407 nafar OIV infeksiyasini yuqtirgan bemor ishtirok etti. Vaksinatsiya jarayonida ikki vaksina bir vaqtda qilinadigan Prime Boost usulidan qo'llanilindi. Birinchi (Prime) vaksinada qatnashgan inson bir zardobni olgan bo'lsa, ikkinchisida (Boost) mutlaqo boshqasini olgan. Bundan immun tizimining imkoniyati ikki barobarga ortishi kutilgandi, lekin amalda bunday bo'lmadi. RV144 vaksinasi HVTN 7026 uchun asos bo'lin hizmat qildi. Bu kamtarona 31 foizlik natija ko'rsatgan yagona zardob bo'lib qoldi. Vaksina insonni bir necha oygina virusdan himoya qilishi mumkin edi. Natijalar ijobiy bo'lmagach, 2020 yilning fevral oyida bu loyiha to'xtatildi. OIV infeksiyasi vaksinasini yaratish uchun keying loyiha MOSAICO loyihasi bo'ldi. U ham ikki vaksinani bir vaqtda qo'llash usuliga asoslangandi. MOSAICO vaksinasini avval maymunlarda sinab ko'rishdi va natijalar ancha ijobiy bo'ldi. Bu vaksina yordamida OIV infeksiyasi bilan kasallanish maymunlarda 90 foizga kamaydi. 2019 yilning oxirlaridan buyon AQShda MOSAICO sinovlari o'tkazilib kelinyapti va unda 3800 kishi qatnashyapti. Uchinchi vaksina IMBOKODO deb nomlandi. 2600 afrikalik inson IMBOKODO vaksinasi sinovlarida ishtirok etib kelmoqda. Vaksina samaradorligi hozir kungacha 67 foizni tashkil etyapti. IMBOKODO sinovlari 2026 yilning fevralida nihoyasiga yetishi ko'zda tutilgan. Olimlar bu vaksinalar 100 foizlik natija ko'rsata olishiga ishonishmayapti. Biroq 60-70 foizlik samaradorlik ham

ijobiy hisoblash mumkin. Ungacha esa OIV infeksiyasini antiretrovirus preparatlar bilan davolash imkoni bor, xolos.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “HIV and antiretroviral therapy in the brain: neuronal injury and repair” Nature Reviews. Neuroscience. 2007
2. Роксби, Филиппа. „Почему сейчас люди с ВИЧ живут столько же, сколько и здоровые“ 2019
3. AIDS.gov. “STAGES OF HIV INFECTION”. U.S. Department of Health & Human Services. 2024

**SHIFOXONALARDA INFEKSION NAZORAT TIZIMINING  
AHAMIYATI**

**Boltaboyev U.A., Xolxujayev J.**

**Farg’ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti**

**Kirish**

Sog‘liqni saqlash muassasalarida infeksiyon nazorat tizimi tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, bemorlar va tibbiyot xodimlarining sog‘lig‘ini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Kasalxonalar infeksiyalar (nosokomial infeksiyalar) kasallangan bemorlar, jarrohlik aralashuvlari yoki boshqa tibbiy muolajalar orqali oson tarqalishi mumkin bo‘lgan joy hisoblanadi. Infeksiyon nazoratning samarali tizimi orqali kasalliklarning tarqalishini oldini olish, shifoxonadagi xavfsizlikni ta’minlash mumkin.

Infeksiyon nazorat — bu sog‘liqni saqlash muassasalarida kasalxona ichi infeksiyalarini oldini olish, kamaytirish va bartaraf etish uchun qo‘llaniladigan qoidalar va amaliyotlar yig‘indisidir. Bu tizim dezinfeksiya, sterilizatsiya, qo‘l gigiyenasi, himoya vositalaridan foydalanish, bemorlarni ajratish (izolyatsiya) kabi choralarni o‘z ichiga oladi. Infeksiyon nazorat tizimining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi: Gigiyena va sanitariya me‘yorlariga rioya qilish. Shifokor qo‘lini to‘g‘ri zararsizlantirish. Qo‘l yuvish va antiseptik vositalardan foydalanish — infeksiyon nazoratning eng samarali choralardan biridir. Shuningdek tibbiy

asbob-uskunalarni, yuzalarni dezinfeksiya qilish kasallik tarqalishini kamaytiruvchi samarali tadbir xisoblanadi. Shifoxona ichi infeksiyalarini oldini olishda shaxsiy himoya vositalari (qo‘lqoplar, niqoblar, ko‘zoynaklar, xalatlar) tibbiyot xodimlari va bemorlarni infektsiyadan himoya qiladi. Himoya vositalari bemorlar orasida infeksiyaning tarqalishini oldini olish uchun ham zarurdir. Bundan tashqari bemorlarni izolyatsiya qilish: ya’ni yuqumli kasalliklari bo‘lgan bemorlar boshqa bemorlar va xodimlardan ajratiladi.

Xulosa qilib aytganda, infeksiyon nazorat tizimi shifoxonalarda sog‘liqni saqlash xizmatlarining ajralmas qismi bo‘lib, bemorlar va tibbiyot xodimlarining sog‘lig‘ini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shifoxonalar ichida nosokomial infeksiyalarni kamaytirish orqali nafaqat bemorlarning tezroq sog‘ayishi, balki davolanish xarajatlarini kamaytirish va sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu sababli, barcha tibbiy muassasalar infeksiyon nazorat tizimini rivojlantirishi va qat’iy amal qilishi zarur.

## **МЕРЫ ПО СНИЖЕНИЮ ЗАБОЛЕВАЕМОСТИ ДЕТЕЙ ТРУДОВЫХ ЭМИГРАНТОВ Мирзаева М.М., Салиева М.Х.**

**Андижанский государственный медицинский институт.**

**Цель исследования.** Согласно данным ЮНИСЕФ, миграция может создавать неблагоприятные условия не только для самих мигрантов, но и негативно сказываться на детях, которых чаще всего оставляют с родственниками в своей стране. В Узбекистане детей часто оставляют с членами семьи, родственниками, выступающими в качестве опекунов, когда один или оба родителя мигрируют. Такие дети могут столкнуться с проблемами развития, психосоциальными и эмоциональными проблемами, так как отсутствие родителей создает проблемы в уходе за ребёнком. Миграция родителей в особенности оказывает негативное воздействие на образование, здоровье и социальный статус ребенка. Отсутствие родителей может привести к раннему взрослению ребенка из-за увеличенного объёма работы по дому и ответственности, что может повлиять на питание, успеваемость в учебе, а также вызвать депрессию.

**Материалы и методы.** Недавнее исследование «Влияние миграции на детей в Узбекистане» выявило, что большинство рабочих-мигрантов из Узбекистана оставляют детей родственникам, которые заботятся о них без формального оформления опекуна. Результаты исследования доказали, что дети могут чувствовать себя уязвимыми, одинокими и подавленными, когда родители уезжают. У них меняется настроение, повышается тревожность и психологический стресс, которые, в свою очередь, могут негативно повлиять на другие аспекты благополучия детей.

**Результаты исследования.** Нами проведен анализ исследований по состоянию здоровья детей трудовых мигрантов. Для того, чтобы решить глобальные и региональные приоритеты в отношении детей, оставленных родителями мигрантами, в стране с 2018 года активно действует проект, финансируемый ЕС и ЮНИСЕФ «Защита детей затронутых миграцией в Юго-Восточной, Южной и Центральной Азии». Проект охватил 204 семьи с 403 детьми (220 мальчиков и 183 девочки), оставленными одним или обоими родителями-мигрантами. Чтобы помочь детям и семьям мигрантов, консультативный комитет проекта способствовал выдвижению ряда рекомендаций для устранения выявленных проблем. Исходя из результатов исследования, комитет поручил социальным работникам оказывать поддержку семьям мигрантов в оформлении опекуна над детьми. Было принято совершенствовать систему социальной защиты в Узбекистане, создавая службы поддержки семьи, вовлекая хокимияты и другие организации. Также комитетом была отмечена важность вовлечения специалистов для информирования людей о возможностях трудоустройства в их стране или регионе, прежде чем они решат мигрировать. Представителям из Министерств и ведомств было поручено оказывать содействие в улучшении общего доступа к медицинским услугам, к программам неформального образования и освещению дошкольного образования по всему Узбекистану. В начале 2020 года, комитет проекта отметил важность расширения профессиональной службы психологической поддержки для детей, затронутых миграцией, в школах, колледжах и местных сообществах.

Проведенные комплексные клиничко-социальные исследования состояния здоровья, условий и образа жизни детей в возрасте от 3 мес. до 1 года из семей мигрантов, показали, что дети из семей мигрантов отстают в физическом развитии, у большинства выражена задержка психомоторного развития, значительно выше частота выявляемой патологии, чем у детей из семей, постоянно проживающих в данном регионе. Полученные данные свидетельствуют о необходимости пристального внимания к детям из семей мигрантов как со стороны медицинских, так и социальных работников.

Согласно исследований, во многих семьях мигрантов (45%) как минимум двое детей оставлены на попечение. Почти 63% таких детей живут с матерью, поскольку отцы-мигранты. Около 37 % детей живут под опекой

родственников. Дети ответили, что опекуны используют различные методы воспитания и контроля: 12 % детей лишили привилегий, 3 % были названы глупыми, ленивыми и др., а на 8% детей кричали.

**Выводы.** Поскольку миграция оказывает наибольшее влияние на эмоциональное благополучие детей, крайне важно развивать и расширять профессиональные службы психологической поддержки для детей, затронутых миграцией, в школах, колледжах. Психологи, работающие в школах, должны пройти дополнительное обучение тому, как работать с определенной целевой группой, такой как дети мигрантов. Психологическая горячая линия может быть полезна как лицам, осуществляющим уход, так и детям из семей мигрантов. Необходимы комплексные программы и стратегии по борьбе с буллингом (травлей) и обеспечению безопасных условий обучения в школах.

## **АКТУАЛЬНОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ ЗДОРОВЬЯ ЭМИГРАНТОВ И ИХ ДЕТЕЙ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ**

**Юсупов К.М., Мирзаева М.М., Салиева М.Р.  
Кафедра Основ превентивной медицины Андижанского  
государственного медицинского института. Республика  
Узбекистан.**

**Цель исследования.** Важным аспектом здоровья являются риски для здоровья, которые несут мигранты, и последствия для общественного здравоохранения. Мигранты отправляются в путь с собственными эпидемическими профилями, уровнем контакта с инфекционными агентами, их факторами риска, определяемыми генетикой и образом жизни, их представлениями о здоровье, сформировавшимися под влиянием культурной традиции, и их подверженностью определенным состояниям.

**Материалы и методы.** Изучены причины роста заболеваемости населения стран за счёт миграционных процессов. Отрицательное влияние оказывают расставание детей с родителями и разрушение системы семейной поддержки. Дискриминация и нехватка трудящихся-мигрантов медицинскими услугами могут создать угрозу для общественного здравоохранения, как в случае пандемии гриппа или других заболеваний международного масштаба.

**Результаты исследования.** Мигранты являются носителями уязвимости, свойственной общинам их происхождения. Если, например, в стране происхождения или возвращения охват иммунизацией является низким, то изначальный риск для населения будет привноситься в страну прибытия, пока охват мигрантов не сравняется с уровнем охвата коренного населения. Определенная инфекционная или какая-либо забытая болезнь является более распространенной, то возрастает вероятность того, что мигранты будут страдать от этого состояния и/или переносить его через границы. И наоборот, когда распространенность болезней является более высокой в странах прибытия, мигранты могут ими заразиться и привезти их в страну происхождения или возвращения. Имеются также данные о том, что определенные неинфекционные болезни, например гипертония, сердечно-сосудистые заболевания, диабет и рак, являются растущим бременем для мигрантов и создают значительную нагрузку для систем здравоохранения стран прибытия.

Инфекционные болезни и болезни, передаваемые половым путем, часто рассматриваются в едином ключе: через призму риска, привносимого мигрантами при въезде в страну (или следовании через нее транзитом). Однако вопросы уязвимости должны рассматриваться на всех этапах миграционного процесса. Кроме того, надлежит также учитывать различия между мигрантами в специфике их перемещений и в их социально-экономическом и миграционном статусе.

Воздействие рисков, связанных с перемещениями населения, повышает уязвимость мигрантов по отношению к психосоциальным нарушениям, злоупотреблению наркотиками, алкоголизму и насилию. Кроме того, из-за ограниченности доступа к медицинской помощи во время транзита и на ранних адаптационных этапах миграции возрастает бремя нелеченных неинфекционных состояний. Отмеченные выше вопросы охраны здоровья подчеркивают задачи, стоящие перед национальными системами здравоохранения.

**Выводы.** Необходимо уделять мигрантам внимание и заниматься их особой уязвимостью и потребностями в медицинской помощи.

Ответные меры предполагают проведение адресных мероприятий по снижению рисков для здоровья мигрантов и развертывание или усиление программ служб, "которые ориентированы на мигрантов", то есть включают оказание помощи с учетом культурных, религиозных, лингвистических и гендерных

потребностей и обеспечивают мигрантам рекомендации о том, как подходить к их новой национальной системе здравоохранения.

Некоторые из мер, которые могут помочь в решении этого вопроса включают:

- Организацию просветительских кампаний среди семей и махаллей о преимуществах формального опекуна и негативных последствиях его отсутствия.
- Оказание поддержки опекунам в процессе регистрации и сбора документов
- Упрощение процедур оформления опеки
- Предоставление юридической поддержки и консультаций.

Улучшить общий доступ к медицинским услугам по всему Узбекистану, обеспечивая лучший охват для семей, расположенных в отдаленных районах. Улучшить освещение дошкольного образования для детей в возрасте от 0 до 6 лет во всех регионах с целью расширения возможностей трудоустройства матерей и предоставления субсидий семьям с низкими доходами для доступа к частным услугам и получения необходимых вакцин.

Обеспечить разнообразие и доступ к программам неформального образования по всему Узбекистану с помощью хорошо обученных специалистов и постоянных связей со школами. Эта поддержка должна учитывать возраст и потребности детей младшего возраста, которые в наибольшей степени страдают от миграции родителей.

## **KASALLIKLAR PROFILAKTİKASIDA EKOLOGİK VA IJTIMOIY OMILLAR**

**Ashurova M.D., Ostanaqulova M.H.**

**Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti**

**Dolzarbli:** Sog'liqni saqlash sohasida olib borilayotgan an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarni muvofiqlashtirish, shu jumladan, atmosfera ifloslanishi, toza suv va sanitariya masalalari, sog'lom ovqatlanish va faol hayot tarzini rivojlantirish, shuningdek, tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlaridagi tafovutlarni bartaraf etish hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsadi:** Kasalliklar profilaktikasida atrof-muhit va ijtimoiy omillarning ahamiyatini aniqlash.

**Natijalar.** Kasalliklarning oldini olishda ekologik va ijtimoiy omillar muhim o'rin tutadi. Sog'liqqa ta'sir qiluvchi muhit omillari orasida suv, havo, oziq-ovqat va yashash sharoitlari muhimdir. Bundan tashqari,

jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklar, ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari ham muhim rol o'ynaydi. Kompleks yondashuv va turli mutaxassislarning birgalikda faoliyati kasalliklarning oldini olish va jamoatni sog'lom bo'lishini ta'minlashda muhimdir.

Sanoat, transport va boshqa faoliyat turlari natijasida atmosferada turli kimyoviy moddalar, chang va sog'liqqa zararli boshqa tashlamalar paydo bo'ladi. Bu nafas yo'llari kasalliklarining paydo bo'lishi va rivoj topishiga olib keladi.

Iflos havondan nafas olish natijasida odamlar bronxial astma, bronxit, o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi kabi kasalliklarga duchor bo'ladilar. Bu kasalliklar asosan havo ifloslanishi bilan bog'liq.

Iflos havo odatda juda past daromadli, kambag'al aholining yashash joylari uchun xos bo'ladi. Bu esa ularning kasallikka duch kelish xavfini yanada oshiradi.

#### Suv taqchilligi

Dunyoning ko'p qismida odamlar sifatli va xavfsiz ichimlik suvidan mahrum. Suvning yetishmasligi natijasida infeksiyon kasalliklar, shu jumladan, xolera, ichburug' va dizenteriya tarqaladi.

Yetarli sanitariya xizmatlaridan foydalanmaslik odam salomatligi va atrof-muhit uchun xavf tug'diradi. Bu yanada ortiqcha hasharotlar va kasallik tarqalishiga olib keladi.

Sifatli suv va sanitariya xizmatlariga cheklangan kirish ko'pincha kambag'al aholi yashash hududlari bilan bog'liq bo'ladi. Bu tengsizlikni bartaraf etish muhim ahamiyatga ega.

#### Sog'lom ovqatlanish va faol hayot tarzini rivojlantirish

**1.To'g'ri ovqatlanish.**Muvozanatlangan ovqat tarkibi, ko'p meva va sabzavot iste'mol qilish, to'yimli va yog'-oqsilsiz oziq-ovqatlar kasalliklarni oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

**2.Jismoniy faollik.**Muntazam jismoniy mashqlar, dam olish va stressni boshqarish odamlarning salomatligini mustahkamlaydi. Bu yurak-qon tomir, qandli diabet va semirish kabi kasalliklarda muhim.

**3.Ma'rifat targ'ibot.**Aholi orasida sog'lom hayot tarzini targ'ib qilish va bu boradagi bilimlar oshirish kasalliklar profilaktikasida muhim rol o'ynaydi.

Iqtisodiy va ijtimoiy tengsizliklar tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi. Bu esa kam daromadli aholi orasida kasalliklar keng tarqalishiga va yomon oqibatlarga sabab bo'ladi. Tibbiy

xizmatlarning aholining barcha qatlamlari uchun muvofiqlashtirilgan, adolatli va oson kirish imkoniyatini ta'minlash muhimdir.

**4.**An'anaviy bilimlar.Xalq tabobati, dorivorlar, ovqatlanish va ijtimoiy odat-an'analar kabi an'anaviy tizimlardan foydalaniladi. Bu yondashuvlar ma'lum kasalliklar profilaktikasida samarali bo'lishi mumkin.

**5.**Ilmiy yondashuv.Tibbiyot, farmatsevtika, ovqatlanish va jismoniy faollik bo'yicha zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va ishlangan yechimlar kasalliklarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

**6.**Muvofiqlashtirish.An'anaviy va zamonaviy tizimlarni birlashtirib, ulardagi afzallik va imkoniyatlarni muvofiqlashtirish, kasalliklarni oldini olish va ommaviy sog'liqni saqlashda samarali yondashuv hisoblanadi.

**7.**Sog'lom kelajak uchun yaxlit strategiyalar.Kasalliklarni oldini olish va jamoatni sog'lom qilish uchun ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillarni yaxlit yondashuv bilan birlashtirib, muvofiqlashtirish zarur. Bu yondashuvga suv va sanitariya salohiyatini yaxshilash, havo sifatini yaxshilash, sog'lom ovqatlanish va jismoniy faollikni rag'batlantirish, hamda tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini tenglashtirish kabi tadbirlar kiradi. An'anaviy va zamonaviy usullarni muvofiqlashtirish, shuningdek, jamiyatning faol ishtirokini ta'minlash xuddi shu yaxlit strategiyaning muhim qismlari hisoblanadi.

**Xulosa.** Kasalliklar profilaktikasida ekologik va ijtimoiy omillarni inobatga olish nafaqat atrof-muhit va sog'liqni saqlash, balki odamlarning farovonligini oshirishga ham xizmat qiladi. Bu yondashuv sog'liqni saqlash tizimini kengaytirish va jamiyatning barcha qatlamlari uchun adolatli resurslar va xizmatlarga kirishni ta'minlaydi. Natijada, biz ozod, salomatligi yaxshi va farovon jamiyatni yaratishga qadam tashlaymiz.

## JARROHLIKDA ASEPTIKA VA ANTISEPTIKA O'RNI

**Rahimova H.R, Xabibullayev. N. U.**

**Central Asian Medical University**

**ANNOTATSIYA:**Ushbu maqolada bugugungi kunda aseptika va antiseptikaning tibbiyotdagi ilmiy ahamiyati va e'tiborsizlik natijasida kelib chiqqan kasalliklarning oldini olish borasida aytib o'tilgan.

**KALIT SO'ZLAR:**sterilizatsiya,mikroorganizm aseptika ,antiseptika , patogen, jarrohlik, bakteritsid,gipertonik, gigroskopik, fitonsid.

Bugungi kunda atrof muhitni mikroorganizmlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi chunki millionlab va ular turli kasalliklarni keltirib chiqaradi.Ulardan himoyalaniish uchun aseptika va antiseptikadan foydalaniladi.Antiseptiklar - fizik, mexanik, kimyoviy va biologik usullar yordamida yaraga tushgan mikroblar va ularning sporalarini yo'q qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.Jismoniy antiseptiklar gigroskopik drenajli tamponlar yordamida yaradan yiringli tarkibning bintga oqib chiqishini ta'minlaydi. Agar tamponlar va salfetakalar natriy xlorid (5-10%), glyukoza (20-40%) gipertonik eritmalarida namlantirilsa, dokaning gigroskopikligi ortadi. Jismoniy antiseptiklarning bir turi ochiq yarani davolash va yaralarni quritish va infektsiyani o'ldirish uchun ultrabinafsha nurlardan foydalanishdir.Mexanik antiseptiklar jarohatni birlamchi jarrohlik davolash yordamida, o'lik to'qimalarni kesib, yaralar va bo'shliqlar yuvilganda amalga oshiriladi.Kimyoviy antiseptiklar - patogenlar va ularning sporalariga bakteritsid va bakteriostatik ta'sir ko'rsatadigan turli xil kimyoviy moddalardan foydalanish.Biologik antiseptiklar organizmning immunobiologik qarshiligini oshiradigan usullardan foydalanadi (bu emlashlar, sarumlar, ferment preparatlari, antibiotiklardan foydalanish).Antiseptik moddalar kimyoviy, biologik va fitontsidlarga bo'linadi, ular mikroblarni yo'q qilish, ularning rivojlanishini

kechiktirish, yaraning o'zida reaktiv jarayonlarni kuchaytirish uchun ishlatiladi. Mikroblarni yo'q qiladigan antiseptik moddalar bakteritsid, rivojlanishi va ko'payishini kechiktiradiganlar esa bakteriostatik deyiladi. Sirt va chuqur antiseptiklarni ajrating. Sirt usuli bilan antiseptik moddalar sug'orish va yuvish, vannalar, moylash materiallari, losonlar va kukunlar uchun ishlatiladi va ular yaralarga qo'yilgan bintlarga ham qo'llaniladi. Chuqur antiseptik - antiseptik moddalarni, antibiotiklarni to'qimalarga, bo'shliqlarga tomir ichiga yoki intraarterial va inhalatsiyaga kiritish. Aseptika - jismoniy omillar va kimyoviy moddalarni qo'llash natijasida mikroblarning yaraga kirishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan turli usullarning kombinatsiyasi. Aseptikaning asosiy turi sterilizatsiya hisoblanadi.

**Sterilizatsiya-** jarroh va operatsiya xonasi hamshirasi qo'lidagi jarrohlik asboblari, operatsiya qiluvchi ichki kiyim, bog'ichlar, drenajlar, jarrohlik qo'lqoplarini qaynatish, bosim ostida bug'lash, quruq havo usullarida bakteriya va sporalarni yo'q qilish, shuningdek kimyoviy bakteritsid moddalar va rentgen nurlari. Operatsiya va bog'lash blokidagi yaraga mikroblarning kirib kelishini oldini olish uchun operatsiya xonalarida, kiyinish xonalarida, operatsiyadan keyingi bo'limlarda ventilyatsiya, bakteritsid lampalar bilan nurlantirish orqali havo sanitariyasi (tozalash) amalga oshiriladi; , karbol kislotasi, xloramin), operatsiya va kiyinish bo'limida o'zini tutish qoidalari (tibbiy xodimlar steril kiyim kiyishadi - paxta kostyumi, xalat, shlyapa, sharf, shippak, niqob). Yuqori nafas yo'llari kasalliklari, yiringli yaralari bo'lgan, shuningdek, jun kiyimda yugurish, baland ovozda gapirish, operatsiya xonasiga kirish taqiqlanadi. Shunga ko'ra, jarrohning qo'llari va hamshiraning operatsiya xonasi, operatsiya maydoni operatsiyaga tayyorlanadi, kiyinish materiali va operatsiya ichki kiyimi sterilizatsiya qilinadi.

Jarrohlik asboblari qaynatish orqali sterilizatsiya qilish qozonlarda amalga oshiriladi (kesuvchi asboblardan bundan mustasno). Sterilizatsiya turlari mavjud. Shu tarzda bintlar, bir martalik shpritslar, transfüzyon tizimlari, paxta momig'i, bintlar va salfetkalar sterilizatsiya qilinadi. Bu sterilizatsiya sterillangan buyumlarning xususiyatlarini o'zgartirmaydi, chunki nurlar plastik o'ram, qog'oz va mato qadoqlaridan o'tadi. Muhrlangan narsalar steril bo'lib qoladi.

**Xulosa :** Bugungi kunda tibbiyotni aseptika va antiseptikasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu sohalarni nafaqat tibbiyotda balki boshqa sohalarda ham ahamiyati juda katta hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Aseptika va antiseptika tibbiyotda. A.Ergashev.
2. M.T.Botirov., Sh.A. Normatova, D.X. Tilavoldiyeva. "Asian journal of advances in research". Determination of fertility of hydroponic substrates in the example of tomato plants, 41-45, 2021.
3. Jamoat salomatligi va iqlim o'zgarishi (lancet) (<http://www.lancetcountdown.org/>) 2016
4. "Human health impacts adaptation, and co-benefits – ipcc". 2012 yil  
18 bet

## MIJOZ VA ULARNING INSON ORGANIZMIDAGI SHIFO JARAYONIGA TA'SIRI

**Xoliqova O.Yu.**

**Farg'ona jamoat salomatligig tibbiyot instituti**

**Annotatsiya.** Odam mijozlarini to'rt xil unsur-suyuqlik nazariyasi - qon, balg'am, sariq o't va qora safro - qadimgi va o'rta asrlar tibbiyotining asosi bo'lib, inson fiziologiyasi va kasalliklari haqidagi tushunchani sezilarli darajada shakllantirdi. Gippokrat g'oyalari asoslanib, keyinchalik Galen tomonidan kengaytirilgan gumoral nazariya sog'likka bu tana suyuqliklarining muvozanati orqali erishiladi, kasallik esa ularning nomutanosibligi natijasida yuzaga keladi. Ushbu tezisda to'rtta suyuqlikning tarixiy ahamiyatini, har bir suyuqlikning turli organlar va temperamentlarga qanday mos kelishini va qadimgi shifokorlar bu tushunchadan shifo jarayonlariga ta'sir qilish uchun qanday foydalanganligini o'rganadi. Bundan tashqari, maqolada ushbu nazariya erta davolash, tashxis qo'yish va bemorlarni parvarish qilish usullariga qanday ta'sir qilganini ko'rib chiqadi va gumoral nazariyadan zamonaviy biotibbiyot yondashuvlariga o'tishning tanqidiy tahlilini taklif qiladi.

**Kalit so'zlar.** Mijoz, temperament, sangvinik, xolerik, alefmatik, melanxoliya, suyuqlik.

To'rt mijoz tushunchasi qadimgi Yunonistonda, xususan, Gippokratning (miloddan avvalgi 460-370) asarlarida kelib chiqqan bo'lib, u inson tanasi to'rtta asosiy suyuqlikdan: qon, balg'am, sariq o't va qora o'tdan iborat deb hisoblagan. Ushbu nazariyaga ko'ra, har bir suyuqlik to'rt elementdan biriga - havo, suv, olov va tuproq - mos keladi va o'ziga xos fazilatlarga ega bo'lgan: issiq, sovuq, nam yoki quruq. Insonning salomatligi, temperamenti va kasalliklarga moyilligi uning tanasidagi bu suyuqliklarning muvozanatiga bog'liq deb hisoblangan.

Qon (issiq va nam) – havo elementi bilan bog'liq, qon jigar va sangvinik temperamenti bilan bog'liq bo'lib, quvnoqlik va nekbinlik bilan ajralib turadi. Bu hayotiylik va energiyaga hissa qo'shadi deb ishonilgan.

Balg'am (sovuq va ho'l) - suv va miya bilan bog'liq bo'lgan balg'am xotirjamlik, letargiya va flegmatik temperament bilan bog'liq edi. U tanani nam va salqin saqlashda rol o'ynaydi, deb ishonilgan.

Sariq safro (issiq va quruq) - olov va o't pufagiga mos keladigan sariq o't g'azab, shuhratparastlik va asabiylashish bilan ajralib turadigan xolerik temperament bilan bog'liq. U ovqat hazm qilishga yordam beradi va issiqlikni tartibga soladi deb ishonilgan.

Qora safro (sovuq va quruq) - Yer elementi va taloq bilan bog'liq bo'lgan qora safro ohangdorlik, qayg'u va introspektsiya bilan bog'liq. Agar u juda ko'p bo'lsa, depressiyaga olib keladi deb o'ylangan.

To'rt mijozning salomatlik va kasallikdagi roli. To'rtta mijozning muvozanati (yoki nomutanosibligi) salomatlik uchun juda muhim deb hisoblangan. Har qanday mijozning ortiqcha yoki etishmasligi ma'lum jismoniy va ruhiy kasalliklarga olib kelishi mumkin. Misol uchun, ortiqcha qon isitma yoki gipertenziyaga olib keladi va ortiqcha qora safro melanxoliya yoki ovqat hazm qilish muammolariga olib kelishi mumkin hisoblangan.

Muvozanat sifatida salomatlik: Humoral nazariyaga ko'ra, sog'liqning ideal holati evkraziya yoki muvozanatli mijoz aralashmasidir. Davolash ushbu muvozanatni tiklashga qaratilgan bo'lib, ko'pincha turmush tarzini o'zgartirish, dietani o'zgartirish yoki flebotomiya, tozalash va emetiklar kabi tibbiy aralashuvlar orqali amalga oshiriladi.

Kasallik va nomutanosiblik: suyuqlikdagi nomutanosiblik yoki diskraziya turli kasalliklarda namoyon bo'lishi mumkin. Agar sariq safro ustunlik qilsa, bemorda isitma yoki sariqlik paydo bo'lishi mumkin. Haddan tashqari balg'am shamollash, nafas olish muammolari yoki letargiyaga olib kelishi mumkin. Davolash balg'amning sovuqligini kamaytirish uchun issiqlikni qo'llash kabi salbiy usullardan foydalangan holda ortiqcha suyuqlikni kamaytirishga qaratiladi. Gumoral tibbiyot orqali shifo jarayoni. Qadimgi va o'rta asr tibbiyotida gumoral nomutanosiblikni tuzatish uchun davolash usullari ishlab chiqilgan. Shifokorlar alomatlar, temperament va atrof-muhit omillarini sinchkovlik bilan o'rganib, qaysi hazillarning ortiqcha yoki etishmasligini aniqlashdi.

Qon quyish va zuluklar: eng keng tarqalgan davolash usullaridan biri, ayniqsa isitma yoki yallig'lanish holatlarida ortiqcha qonni kamaytirishga qaratilgan qon quyish edi. Zuluklar "yomon" qonni olishning yana bir usuli edi. Bu jarayon muvozanatni tiklaydi va shifo beradi deb ishonilgan.

Dieta va ovqat hazm qilish: Oziqlanishni tartibga solish gumoral tibbiyotda hal qiluvchi rol o'ynadi. Oziq-ovqatlar mijoziy xususiyatlariga ko'ra tasniflangan - issiq, sovuq, ho'l yoki quruq - va bemorning ahvolini

muvozanatlash uchun buyurilgan. Masalan, ortiqcha sariq o't bilan og'rigan odamga sovuq, ho'l ovqat, flegmatik odamga esa issiq, quruq ovqat tavsiya etilishi mumkin.

O'simliklar bilan davolovchi vositalar: o'simliklar va o'tlar ham gumoral xususiyatlariga ko'ra tasniflangan. Ba'zi o'tlar ma'lum kasalliklarga ta'sir qiladi deb ishonilgan va shunga mos ravishda buyurilgan. Misol uchun, yalpiz issiq o't hisoblangan va ortiqcha balg'amga qarshi kurashda ishlatilgan.

Atrof-muhit omillari: Gumoral nazariya, shuningdek, iqlim va atrof-muhitning salomatlik uchun ahamiyatini ta'kidladi. Shifokorlar kasalliklarga tashxis qo'yish va davolashda bemorning muhitini hisobga oldilar. Misol uchun, sovuq, nam muhitlar flegmatik kasalliklarga yordam beradi, bu esa tanaga issiqlik va quruqlikni qo'shadigan davolanishni talab qiladi.

17-asrga kelib anatomiya, fiziologiya va ilmiy uslubdagi yutuqlar gumoral nazariyaga qarshi chiqa boshladi. Uilyam Xarvining 1628 yilda qon aylanishini kashf etishi va 19-asrda mikroblar nazariyasining rivojlanishi kasallik va davolanish haqidagi tushunchani tubdan o'zgartirdi.

Ushbu bobda to'rtta suyuqlikdan voz kechishga olib kelgan asosiy raqamlar va kashfiyotlarga e'tibor qaratib, gumoral tibbiyotning pasayishi va zamonaviy biotibbiyotning yuksalishi kuzatilgan.

Ilmiy masalalar: Andreas Vesalius va Paracelsus kabi shaxslar Galen tibbiyotining, jumladan, gumoral nazariyaning to'g'riligiga shubha qilishdi. Ularning faoliyati empirik kuzatishlar va tajribalar asosida tibbiyotga yangicha yondashuvga asos soldi.

Patologiya va mikrobiologiyaning paydo bo'lishi: Patologiya va mikrobiologiyaning rivojlanishi diqqatni suyuqliklarni muvozanatlashdan bakteriyalar, viruslar va genetik omillar kabi kasallikning o'ziga xos sabablarini aniqlashga o'tkazdi. Ushbu rivojlanish zamonaviy tibbiyotning boshlanishini belgilab qo'ydi, bu erda tana suyuqlik balansi emas, balki hujayralar, to'qimalar va tizimlar nuqtai nazaridan tushuniladi.

To'rt mijozning merosi va zamonaviy qayta talqinlari Garchi gumoral nazariya katta darajada obro'sizlangan bo'lsa-da, uning merosi zamonaviy yaxlit va muqobil tibbiyotning turli jihatlarida davom etmoqda. Tana energiyasini muvozanatlash va davolash rejalarida parhez, atrof-muhit va temperamentdan foydalanish g'oyasini hali ham Ayurveda va an'anaviy xitoy tibbiyoti kabi amaliyotlarda ko'rish mumkin.

Yaxlit yondashuvlar: Zamonaviy holistik tibbiyot tanadagi uyg'unlikka erishishga qaratilgan humoral tizim bilan parallellikni keltirib, muvozanatni ta'kidlashda davom etmoqda. Xitoy tibbiyotidagi "yin va yang" kabi tushunchalar to'rtta mijozga o'xshash ikkilik va muvozanatni aks ettiradi.

Psixosomatik salomatlik: To'rt mijoz shuningdek, aqliy va jismoniy salomatlik o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish uchun asos bo'ldi. Humoral nazariyaning tanadagi nomutanosiblik hissiyotlarga qanday ta'sir qilishini tan olishi va aksincha, hissiy stress jismoniy kasalliklarga olib kelishi mumkin bo'lgan psixosomatik holatlarning zamonaviy tushunchasini taxmin qiladi.

To'rt mijoz qadimgi tibbiyot tafakkurining asosiy qismi bo'lib, ming yildan ortiq vaqt davomida salomatlik va kasalliklarni tushunish uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Zamonaviy tibbiyot asosan gumoral nazariyadan uzoqlashgan bo'lsa-da, muvozanat, atrof-muhit ta'siri va individual davolash tushunchalari zamonaviy holistik yondashuvlarda rezonanslashda davom etmoqda. To'rt hazilning tarixiy ahamiyati, insonning tanani tushunishga bo'lgan dastlabki urinishlari tibbiyot amaliyotining rivojlanishini qanday shakllantirganini va bugungi kunda shifobaxsh an'analarga ta'sir qilishda davom etishini ko'rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Porter, Roy. Insoniyat uchun eng katta foyda: antik davrdan hozirgi kungacha insoniyatning tibbiy tarixi. XarperKollins, 1997 yil.
2. Nutton, Vivian. Qadimgi tibbiyot. Routledge, 2004 yil.
3. Siraisi, Nensi G. O'rta asrlar va erta Uyg'onish davri tibbiyoti: bilim va amaliyotga kirish. Chikago universiteti matbuoti, 1990 yil.
4. Weir, Endryu. Jamiyatdagi tibbiyot: tarixiy ocherklar. Kembrij universiteti nashriyoti, 1992 yil.
5. Kuhn, Tomas. Ilmiy inqiloblarning tuzilishi. Chikago universiteti matbuoti, 1962 yil.
- 6.

## **TURLI KASALLIKLARNI ANIQLASHNING AN'ANAVIY USULLARI**

**Xoliqova O.Yu.**

### **Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti**

Zamonaviy tibbiy diagnostika paydo bo'lishidan oldin, an'anaviy usullar kasalliklarni aniqlash va salomatlik holatini tushunishning asosiy vositasi edi. Ko'pincha yaxlit yondashuvlar, madaniy e'tiqodlar va kuzatish usullariga asoslangan bu usullar tsivilizatsiyalar bo'ylab turlicha bo'lgan, ammo amaliyotchi tajribasiga, bemorning jismoniy, psixologik va ruhiy belgilariga tayanishida umumiyliklarga ega edi. Hisobot qadimgi tibbiyotda qo'llaniladigan an'anaviy diagnostika amaliyotlari haqida umumiy ma'lumot beradi, turli mintaqalardagi tizimlarga, jumladan, gumoral nazariya, puls diagnostikasi va ruhiy talqinning roliga e'tibor beradi.

Gumoral nazariya (Qadimgi Yunoniston va Rim): Gippokrat tomonidan taklif qilingan va keyinchalik Galen tomonidan ishlab chiqilgan gumoral nazariya Qadimgi Yunoniston va Rimda tibbiy diagnostikaning asosi bo'lgan. Ushbu tizimga ko'ra, organizm to'rtta suyuqlikdan iborat: qon, balg'am, sariq o't va qora o't. Kasallik bu suyuqliklarning nomutanosibligidan kelib chiqadi deb taxmin qilingan va diagnostika qaysi suyuqlikning ortiqcha yoki etishmasligini aniqlashdan iborat edi.

Alomatlar indikator sifatida: shifokorlar humoral muvozanatni aniqlash uchun yuz rangi, yurak urishi, harorat va tana sekretsiyasi (siydik, najas va ter) kabi ko'rinadigan alomatlarni kuzatdilar. Misol uchun, isitma va sariq teri ortiqcha sariq safroni ko'rsatishi mumkin.

Temperamentni tahlil qilish: Bemorning temperamenti (sanguine, flegmatik, xolerik, melanxolik) ham maslahatlar berdi va diagnostika parhez, qon quyish yoki o'simlik bilan davolash orqali to'rtta hazil muvozanatini tiklashga qaratilgan.

Pulse diagnostikasi (an'anaviy xitoy tabobati): Puls diagnostikasi ming yillar davomida an'anaviy xitoy tibbiyotining (TCM) asosi bo'lib kelgan. Amaliyotchilar puls qi (hayotiy energiya) oqimi va ichki organlarning holati haqida tushuncha beradi, deb hisoblashadi.

Pulse pozitsiyalari: amaliyotchi yurak, o'pka, buyraklar, jigar va oshqozon kabi turli organlarga mos keladigan har bir bilakning uchta nuqtasida (tsun, guan, chi) yurak urishini his qiladi.

Pulsning sifatlari: kasalliklarni aniqlash uchun yurak urishining turli sifatlari, jumladan kuch, ritm, chuqurlik va tezlik tahlil qilinadi. Misol uchun, zaif va sekin puls yang energiyasining etishmasligini ko'rsatishi mumkin, tez va kuchli zarba esa ortiqcha issiqlik yoki yallig'lanishni ko'rsatishi mumkin.

Butun tana yondashuvi: Tashxis puls bilan chegaralanib qolmaydi, balki bemorning ahvolini har tomonlama tushunishni rivojlantirish uchun til, teri va ko'zlarni tekshirish, shuningdek, his-tuyg'ular va turmush tarzi haqidagi savollarni o'z ichiga oladi.

Ayurveda (Qadimgi Hindiston): Ayurveda, qadimgi Hindistonning yaxlit tibbiy tizimi, tananing uchta doshasi - Vata (havo va kosmos), Pitta (olov va suv) va Kapha (er va suv) muvozanatini ta'kidlaydi. Kasallik ushbu doshalarning nomutanosibligidan kelib chiqadi, deb ishoniladi va tashxis bemorning jismoniy va hissiy holatini baholashni o'z ichiga oladi.

Dosha nomutanosibligi: Ayurveda amaliyotchilari qaysi dosha nomutanosibligini aniqlash uchun ovqat hazm qilish, tana harorati va hissiy barqarorlik kabi alomatlarni baholaydilar. Masalan, haddan tashqari issiqlik va g'azab Pitta doshaning kuchayganini ko'rsatishi mumkin.

Kuzatish va suhbat: Tashxis tana tuzilishi, terining holati va til qoplamasi kabi jismoniy xususiyatlarni kuzatish, shuningdek, bemorning turmush tarzi, ovqatlanishi, ruhiy holati va kundalik rejimi haqida batafsil suhbatlar orqali amalga oshiriladi.

Najas va siydik: siydik, najas va terni tahlil qilish ham tashxisda rol o'ynaydi. Misol uchun, ko'pikli siydik Vata muvozanatini ko'rsatishi mumkin, sariq, hidli siydik esa Pitta muvozanatini ko'rsatishi mumkin.

Ma'naviy va g'ayritabiiy e'tiqodlar orqali tashxis qo'yish (Afrika va mahalliy madaniyatlar): Ko'pgina an'anaviy Afrika va mahalliy madaniyatlarda kasallik ko'pincha ruhiy buzilishlar, ajdodlarning noroziligi yoki g'ayritabiiy kuchlarning ta'siri natijasida ko'rib chiqilgan. Bunday kasalliklarning diagnostikasi ruhiy rahbarlar, shamanlar yoki folbinlar bilan maslahatlashishni o'z ichiga oladi.

Bashorat va marosimlar: Shamanlar va tabiblar kasalliklarni aniqlash uchun ruhlar va ajdodlar bilan muloqot qilish uchun fol ochish usullaridan foydalanganlar. Bu amaliyotlar ko'pincha zar otish, yulduzlarni o'qish yoki tushlarni talqin qilishni o'z ichiga olgan. Kasallikning sababi buzilgan tabular, salbiy energiya yoki ruhiy nomutanosiblik bilan bog'liq deb hisoblangan.

Ruhiy poklanish: Tashxis tozalash marosimlari, ibodatlar va xafa bo'lgan ruhlarni yoki ajdodlarni tinchlantirish uchun qurbonliklarni o'z ichiga olishi mumkin. Amaliyotchining vazifasi ma'naviy va jismoniy dunyo o'rtasidagi uyg'unlikni tiklash, bemorning tiklanishini ta'minlash edi.

Mahalliy amerikalik tibbiyot: tubjoy amerikalik qabilalar salomatlik tabiat va ruhiy kuchlar bilan uyg'unlik bilan chambarchas bog'liq deb hisoblashgan. Kasallikning diagnostikasi ko'pincha tabiat belgilari, tushlar va vahiyarlarni talqin qilishni talab qiladi.

Yaxlit diagnostika: Kasalliklar bemorning jismoniy belgilari, orzulari, hissiy holati va ruhiy dunyoga aloqasi asosida tashxis qo'yilgan. Ko'pincha jodugar shifokorlar yoki tibbiyot ayollari deb ataladigan tabiblar kasalliklarni tashxislash va davolash uchun terlash, ko'rish izlanishlari va o'simlik dori vositalaridan foydalanganlar.

Shifolash marosimlari: diagnostika jarayoni shifo marosimlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu erda muvozanatni tiklash va davolanishni osonlashtirish uchun qo'shiq aytish, qo'shiq aytish va muqaddas narsalardan foydalanish ishlatilgan. Asosiy e'tibor nafaqat tanani, balki aql va ruhni ham davolashga qaratilgan edi.

Unani tabobati (Islom tabobati): Yunon gumoral nazariyasi ta'sirida bo'lgan Unani tibbiyoti islom olamida yanada rivojlangan. U hazillar, temperamentlar va tana suyuqliklari muvozanatini saqlashga qaratilgan. Unani tibbiyotidagi diagnostika jismoniy tekshiruv va turmush tarzi tahlilini o'z ichiga oladi.

Vizual tekshiruv: Unani shifokorlari suyuqlikdagi nomutanosibliklarni aniqlash uchun bemorning rangi, yurak urishi, ko'zlari, tili va tana suyuqliklarini (siydik va najas) diqqat bilan kuzatadilar.

To'rt mijoz: Qadimgi yunonlar singari, Unani amaliyotchilari to'rtta mijoz bilan bog'liq alomatlarini izlaydilar: qon, balg'am, sariq o't va qora safro. Misol uchun, tanadagi haddan tashqari sovuqlik ortiqcha balg'amni ko'rsatishi mumkin, issiqlik va yallig'lanish esa ortiqcha qon yoki safroni ko'rsatadi.

Evropa an'anaviy tibbiyoti: Evropaning qishloqlarida, ilmiy tibbiyot paydo bo'lishidan oldin, an'anaviy tabiblar xalq e'tiqodlari va o'simliklar, fasllar va tana haqida yaqin bilimlarga asoslangan kasalliklarga tashxis qo'yishgan. O'simlikshunoslar, doyalar va tabiblar o'z jamoalarida kasalliklarni tashxislashda muhim rol o'ynagan.

O'simlik bilimlari: Tashxis ko'pincha atrof-muhit tanaga qanday ta'sir qilishini tushunishni o'z ichiga oladi. Fasllar, ob-havo va oyning fazalari salomatlikka ta'sir qiladi deb hisoblangan va tabiblar ushbu omillarni jismoniy alomatlar bilan birgalikda talqin qilish orqali kasalliklarga tashxis qo'yishgan. Ramz va marosim: An'anaviy tabiblar ko'pincha kasalliklarga tashxis qo'yish uchun ramziy marosimlardan foydalanganlar, jumladan qo'l qo'yish, ibodat qilish va tumorlardan foydalanish. Kasallik ba'zan gunoh uchun jazo sifatida ko'rilgan va uning tashxisi axloqiy va ma'naviy muvozanatni tiklashni talab qilgan.

Xulosa: Kasallik diagnostikasining an'anaviy usullari kuzatuv amaliyotlari, madaniy e'tiqodlar, ruhiy talqinlar va yaxlit yondashuvlarda chuqur ildiz otgan. Bu usullar, garchi zamonaviy tibbiyotning ilmiy vositalaridan mahrum bo'lsa-da, qadimgi va o'rta asrlar jamiyatlariga mavjud bilimlari doirasida kasalliklarni tushunish va davolash imkonini beradigan murakkab tizimlar edi. Ushbu diagnostika usullarining ko'pchiligi zamonaviy texnologiyalar bilan almashtirilgan bo'lsa-da, an'anaviy tibbiyotning yaxlit va shaxsiylashtirilgan tabiati hali ham dunyoning turli burchaklarida dolzarb bo'lib qolmoqda va bugungi kunda muqobil davolash usullariga ta'sir qilishda davom etmoqda.

## **FREQUENCY OF BRONCHO OBSTRUCTIVE SYNDROME IN CHILDREN OF EARLY AGE ON THE BACKGROUND OF OUT OF SOCIAL PNEUMONIA.**

**M.J.Okhunova.**

**RELEVANCE.**The high risk of morbidity of the bronchopulmonary system remains relevant. The incidence of bronchoobstructive syndrome today remains high among children of all age categories. Broncho-obstructive syndrome(BOS) is a complex of identical clinical symptoms of various origins with different pathophysiological mechanisms of development,which is based on a violation of bronchial patency. Despite numerous publications on biofeedback in young children, especially in recent years, the severity of the problem of bronchial obstruction remains.

This aim of the study was to analyze the incidence and risk factors of biofeedback in community-acquired pneumonia in young children.

Materials and methods. We observed 96 patients with a diagnosis of community-acquired pneumonia. In 45 children (47.0%), the disease proceeded with pronounced bronchoobstructive syndrome. The patients were divided into 2 groups: 1-group of children with community-acquired pneumonia occurring with bronchoobstructive syndrome (BOS) and group 2 community-acquired pneumonia without biofeedback 50 patients (53%). The diagnosis of pneumonia in both groups was established on the basis of anamnestic and clinical data: febrile fever for more than 3 days, Catarrhal symptoms, local shortening of the percussion sound in the lung, crepitant rales in the shortening zones, shortness of breath and intoxication. The characteristic clinical symptoms: shortness of breath with signs of obstruction, "wheezing" breathing, the presence of distant wheezing and percussion sound over the lungs with a box shade. The majority of patients showed changes in the clinical analysis of blood in the form of leukocytosis with a shift to the left, increased ESR. Results and its discussion. When assessing the risk factors for biofeedback in children with community-acquired pneumonia, it was found that, according to the mother's words, every third child of the first group was born from a pregnancy with toxicosis in the first half, in the second group every fourth. Early artificial feeding of children from the first group was 62.2%, in the second-47.1% .

A burdened family history of atopy and its manifestation in the form of atopic dermatitis in children of the first group was found in 68% of cases, in the second group - in 38% of the observed children. Moderate eosinophilia (6-8%) was observed in children of the first group in 11% of cases, in children of the second group - in 8%. According to our data,

chlamydial monoinfection in both groups ranged from 15–20%, and in combination with other pathogens - in 30% of cases.

According to the literature, artificial feeding also plays a role in the development of biofeedback. The children were divided according to the type of feeding into a subgroup of breastfed and artificially fed children, as well as into mixed nutrition, and the same mathematical recalculations were carried out with a subgroup of breastfed children, then they also received convincing evidence ( $p < 0.001$ ) about the possibility of the influence of the type of feeding on development of biofeedback in children with community-acquired pneumonia.

The mechanisms of influence of artificial feeding on the development of bronchial obstruction in specific cases can be very diverse. In children, early transferred to artificial feeding, the immune system as a whole does not mature enough and, as a result, the natural defense mechanisms of the bronchial system are reduced, the functioning of the ciliated apparatus, the adhesive properties of the mucous membrane of small bronchi are impaired. BFB was diagnosed based on the presence of characteristic clinical and radiological signs

Frequent wet cough occurred in children with biofeedback more often 2 times than without biofeedback. Dyspnea of a clearly expiratory nature was noted in 40% of the observed children, in the rest it was of a mixed nature, but with a predominance of difficulty in getting out. However, wheezing occurred in all children with bronchial obstruction.

**CONCLUSION:** Thus, in half of the children in the first year of life, which are characterized by an unfavorable premorbid background, early artificial feeding, a burdened family history of atopy and its manifestation in the form of atopic dermatitis in children of the first group, it was found in

community-acquired pneumonia with broncho-obstructive syndrome, which requires differential diagnosis with acute obstructive bronchitis with bronchodilator and anti-inflammatory therapy.

## **ERTA YOSHDAGI BOLALARDA SPAZMOFILIYA-TALVASALASH SINDROMI**

**Ohunova M. J. , Pattixonova B.Oi**  
**Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti.**  
**Annotatsiya**

Ushbu ilmiy maqola erta yoshda uchrovchi Spazmofiliya kasalligiga alohida e'tibor qaratiladi. Spazmofiliyaning etiologiyasi, epidemiologiyasi va klinik ko'rinishlariga alohida e'tibor berish orqali ushbu kasallikning qanday darajada muhim ahamiyatga ega ekanligini tushuntirib bermoqchimiz. Maqolada, shuningdek, diagnostika va terapevtik yondashuvlardagi so'nggi yutuqlar muhokama qilinib, bemorlarning natijalarni yaxshilash uchun paydo bo'ladigan strategiyalarga oydinlik kiritiladi. Spazmofiliya turli epidemiologiyasi, xavf omillari va davolash usullari bilan global miqyosda salomatlik uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Maqolada spazmofiliyani davolashga qaratilgan turli hozirgi kunda yangilashgan davolash usullarini va spazmofiliyaning kelib chiqish omillari, sabablarini yangi bilimlar orqali tushuntirishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Spazmofiliya, Raxit, Yashirin Spazmofiliya, Yaqqol spazmofiliya, Trusso simptomi, Xvosteka simptomi, Lyusta simptomi, Profilaktika, Diagnostika, D vitamin, Calsiy, Spazm, Talvasa.

**Kirish:** Spazmofiliya butun dunyo bo'ylab eng ko'p uchrovchi talvasalash erta yoshli bolalarda eng ko'p uchrovchi kasallikdir. Bu kasallik ko'pincha raxit bilan birga keladi. Spazmofiliyaning klinik ko'rinishlari va simptomlari o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqola spazmofiliyaning keng qamrovli klinik ko'rinishlarini, keltirib

chiqaruvchi omillarini, asoratlari va xavf omillarini, diagnostikasi , davolash chora tadbirlarini yoritib berishga qaratilgan.Spazmofiliya

**Asosiy qism:**Spazmofiliya(yun. Spasmos-tortishish va philia-moyillik), shaytonlashish qonda kalsiy miqdorining kamayishi natijasida kelib chiqib,vaqti-vaqtida shaytonlab qolish bilan kechadigan kasallik o'g'il bolalarda ko'proq uchraydi , ayniqsa bahorda ko'proq kuzatiladi.Bu bolaning 6-18 oy hayoti davomida uchraydigan talvasa va spastik talavasalanish sindromi bilan bog'liq bo'lgan kasallikdir. Bu kasallik asosan bolani parvarish qilmaslik, noto'g'ri emizish,toza havoda kam olib yurish spazmofiliyaning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

### **Klinik ko'rinishi:**

Kasallikning yashirin va yaqqol shakli farqlanadi.Yashirin shakli bola narvining o'ta qo'zg'aluvchanligi bilan harakterlanadi.Boshqa kasalliklar qo'shilganda misol uchun raxit zo'rayganda yaqqol shaklga o'tadi,bunda xar xil muskullarda tortishish va tirishish ro'y beradi.Ko'pincha bola yig'laganda tovush yorig'i tortishib spazm bo'lib qoladi.Spazmofiliya bilan raxit kasalligi ma'lum bir bog'liqligi bor.Spazmofiliyaning asosiy klinik ko'rinishi kalsiyning sezilarli darajada kamayishi hisobiga nerv oxirlarida qo'zg'aluvchanlik kuchayib ketadi.Spazmofiliya bahorda ilk quyosh chiqqanda kuchayib ketadi. Agar vaqtida bemorga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatilmasa o'limga ham sabab bo'ladi. Ushbu klinik ko'rinishida o'tkir gipokalsemiya (kalsiy- 1,7 mmol/l dan tushub ketadi), organizimda elektrolit disbalansi va alkaloz vujudga kelganda ro'y beradi.Qonda tezkor, deyarli to'satdan D vitaminining faol metaboliti miqdori oshib ketganida yoki bunday vaziyat katta miqdordagi D2 yoki D3 vitamini qabul qilganda, hamda uzoq muddat yalong'och terida radiatsiya yuqori bo'lgan joylarda ultrabinafsha nurlarni qabul qilish bilan vujudga keladi.Gipokalsemiya qalqonsimon bezlar faoliayti buzilganda,kalsiy

miqdorining ichakda so'rilishi pasayib ketganda yoki peshob bilan kalsiyni ko'p miqdorda ajralishi bilan ham vujudga keladi. Spazmofiliyaning yaqqol ko'rinishida laringiospazm, barmoq mushaklari va oyoq mushaklarining tomir tortishishlari, talvasalar bilan farqlanadi.

Yaqqol ko'rinishli spazmofiliya uchta klinik formada: laringiospazm, karpopedal spazm, eklampsiya formalarida yuzaga keladi. Spazmofiliyaning eng ko'p uchrovchi formasi bu laringiospazm, ya'ni ovoz tirqishining torayib qolishi bo'lib, bola tinch turgan holda mahalda yoki qanday bo'lmasin biron bir yuqorida keltirilgan sabablar hisobiga to'satdan nafas qisilishiga sabab bo'ladi. Nafas vaqtida o'ziga xos xirillash eshitiladi, ovoz tirqishi yumulib, bolaning yuzida qo'rquv hissi paydo bo'ladi, u og'zini ochib nafas olmoqchi bo'ladi, sianoz belgilari va yuzi bilan badani muzdek ter bilan qoplanadi. Bir necha soniyadan keyin bola shovqin bilan nafas oladi va asta sekin asliga qaytadi. Bunday hurujlar kun davomida takror-takror tutib turishi mumkin.

Spazmofiliyaning ikkinchi nisbatan kamroq uchraydiga formasi - Karpopedal spazmlar, ya'ni qo'l oyoq muskullari, ayniqsa, panja muskullarining tonik qisqarib turishi bo'lib xuruj tutgan vaqtda bola g'alati ko'rinishga kirib qoladi: yelkalariga gavdasiga taqalib, qo'llari tirsak bo'g'imlaridan bukilgan, panjalari pastga tushirilgan go'yoki "Akusher qo'li" holatini olgan bo'ladi.

Spazmofiliyaning uchinchi eng xatarli va nisbatan kamroq uchraydigan formasi - Eklampsiya bo'lib, bunda butun tanadagi ko'ndalang-targ'il va silliq muskullarga tarqaladigan klonik-tonik talvasalar kuzatiladi.

Latent yoki yashirin spazmofiliya yaqqol klinik ko'rinishiga qaraganda bolalarda ancha ko'proq uchraydi va quyidagi doimiy simptomlari bilan namoyon bo'ladi. Xvostek simptomi-fossa caninaga ohista tuqullatib urib

ko'rilgan zahoti tegishli tomondagi og'iz, burun yoki ko'z qovog'i muskullarining qisqarishi yoki tortishib qolishi kuzatiladi.

Lustning peronial simptomi - bola yig'lab turgan va shu sababli

Xvostek simptomini aniqlash mumkin bo'lmagan mahalda qo'llaniladi: n.perineus nervini ta'sirlab ko'rish uchun kichik boldir suyagi boshchasining orqasi va sal pastiga bolg'acha bilan urib ko'riladi. Ayni vaqtda, bolaning boldirini chap qo'l bilan ushlab, oyoq panjasi erkin osilib turadigan holda tutilsa, bola oyoq panjasini dorzal tomoniga bukib, sal tashgari tomonga uzoqlashtiradi.

Trusso simptomi -yashirin spazmofiliyaning periferik asablar

mexanik qo'zg'aluvchanligi kuchayishidan paydo bo'ladigan simptomlari jumlasiga kiradi va bolaning yelkasi tomir-asab dastasiga jgut, manjetka yoki shunchaki barmoqlar bilan bir necha daqiqa bosib turiladigan bo'lsa, qo'lining panjasi, muskullari tortishib qoladi.

Ushbu simptom Xvostek simptomi kabi doim ham kuzatilavermaydi.

Spazmofiliyaning yuqorida tasvirlab o'tilgan ko'rinishlari birbiri bilan har xil tarzda qo'shilgan holda uchraydi, vaqtida oldi olinmasa va tegishli davo choralari ko'rilmasa, retsidiylanishi, ya'ni qaytalanishi mumkin.

Asoratlari. Spazmofiliya vaqtida aniqlanmasa va tegishli davolash o'tkazilmasa, uzoq davom etgan laringospazmdan va ayniqsa, eklampsiya xurujlaridan so'ng bola o'lib qolishi, miyada turg'un o'choqlar paydobo'lishi, raxit bilan birga kechishida nafas organlarining kasalliklari avj olib ketishi xavfini tug'diradi. Vaqtida aniqlash va ko'riladigan keskin chora-tadbirlar spazmofiliya xurujlarining kamayishi, batamom yo'qolishi va izsiz tuzalib ketishiga olib keladi. Aksariyat hollarda bolalar yoshdan

oshgandan ovqatlanishdagi kamchiliklarning keskin kamayishi va kalsiyga bo'lgan ehtiyojning qondirilishi natijasida kasallik kamroq uchraydigan bo'lib qoladi.

**Xavf omillari:** Nafas olishning to'xtab qolishi, qo'l-oyoqlarning tirishib tortishishi, kloniko-tonik talvasalar, yurakning to'xtab qolishi va boshqalar.

**Diagnostikasi:** Spazmofiliyani aniqlash qiyin emas - bu kasallik pediatrik yoki pediatrik nevrolog uchun qiyin emas. Agar bolada quyidagilar bolsa, u darhol ushbu kasallikni tekshirishni boshlaydi:

ekstremitalarda spazmlar va kramplar haqida shikoyatlar tarixi; raxit belgilari aniqlanadi - umurtqa pog'onasining egriligi (skolioz), oyoqlar, ko'krak qafasining deformatsiyasi, bosh suyagi (baland bosh suyagi) kabi belgilarni va eng asosiysi hozirgi kunda diagnostika qo'yishda yuqorida sanab o'tilgan Xvostek, Lustning perional simptomi, Trusso simptomlari bolada yaqqol namoyon bo'lganidan aniqlasak bo'ladi.

Qo'shimcha tekshiruvlar: Umumiy qon, siydik va axlat tahlillari, qondagi kalsiy miqdorini aniqlash, rentgenologik tekshiruvlar o'tkazish.

### **Profilaktikasi:**

Bolalarda spazmofiliyaning oldini olish uchun quyidagilar zarur:

Kun tartibiga rioya qilish. Bolaning sayr qildirish, ayniqisa quyoshli kunlarda bunda D vitamini bolaning terisida paydo bo'ladi. Sut mahsulotlarini iste'mol qilishda, asosan nordon sut mahsulotlarini ko'proq iste'mol qilish va kaltsiyga bo'lgan ehtiyojni faqat sigir yoki echki sutidan foydalangan holda qondirish mumkin. So'ngi yillarda bu mahsulotga oziq-ovqat iste'molchilarining ishonchi ortib bormoqda. Ko'plab bolalarga sut susaytirmaslik, allergik reaksiyalar tufayli mos kelmaydi. Kaltsiy

preparatlari yoki kaltsiyli maxsus bolalar aralashmalari, osonlik bilan hazm bo'ladigan shaklda kaltsiy bo'lishi va bu bolalar uchun kaltsiyga bo'lgan ehtiyojni qoplashi kerak.

**Davolash uchun chora-tadbirlar** : umumiy kloniktonik talvasalar tutib turgan, larengospazm bo'shalib qolgan maxallarda shoshilinch chora ko'rish kerak .Tinch sharoit yaratib bolani boshini sal yonga burib qisib turgan narsalardan yechintirib lat yemaasligi uchun yechintirib boshi oyoq qo'llarini ohista ushlab turish zarur. Tezda spazmni yuqotadigan dori darmonlar:

Relanium, fenobarbital, manizi sulfat ichirish zarur, hech bo'lmasa litik aralashma o'tkaziladi.Bolaga suv sepish dumbalariga urish, yuziga urish, tilini tutib turish zarur. Talvasa bartaraf etilgandan keyin bir necha kun davomida kuniga ikki mahal fenobarbital, kalsiy pereparatlari berish zarur.Bolaning ovqati oqsillar, yog'lar uglevodlar va mikro elementlarga bo'lgan ehtiyoji normada bo'lishi kerak. Ona suti bilan birga meva sharbatlarida 2-3 mahal 1 qoshiqchadan, 6 oylikdan boshlab tuxum sarig'i tvorog kifr, 8 oyligidan go'sht maxsulotlari berish kerak.Hozirgi kunda raxit va spazmofiliyani oldini olishda eng ko'p qo'llanilayotgan Baby marine preparati berilsa ham maqsadga muvofiq bo'ladi.BabyMarine tarkibidagi 40 dan ortiq mikro-makro elementlar, 10 dan ortiq vitaminlar, bola organizmida Kalsiy miqdori va D vitamini bilan oziqlantirib, uni organizmda miqdorini me'yorlashtiradi.

**Xulosa:** Ushbu maqolada spazmofiliya-talvasalash sindromini keng qamrovli diagnostikasi , tekshiruv usullari, profilaktikasi va multidisipliner davolash usullari hamda kasallikning erta va yashirin klinik formalari ko'rib chiqildi. Bu maqola Spazmofiliya parvarish qilish va o'rganish bilan shug'ullanadigan tadqiqotchilar va sog'liqni saqlash mutaxassislari uchun keng qamrovli manba bo'lib xizmat

qiladi. Spazmofiliya, talvasalash simptomlari haqidagi tushunchamiz ortib borarkan, yanada samarali diagnostika va davolash strategiyalari uchun poydevor bo'ladi.

### **Foydalanilgan Adabiyotlar:**

1. V.P. Bisyarina "Bolalar kasalliklari bolalar parvarishi va go'daklarning anatomik - fiziologik xususiyatlari " Toshkent-2020
2. V.A. Belousov, A.D. Pevzner "Bolalar kasalliklari " Toshkent - 1998 kitobi .
3. J. Eshqobulov, A. Maxmudov "Bolalar kasalliklari " kitobi Toshkent 1993 .
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. B. Qoraxo'jayev, I. T. Salomov, M. N. Abdullayeva "Bolalar kasalliklari propedivtikasi"
6. Muxamadieva L.A, Quldashev S, Kudratova Z.E, Hasanova G.A "Bolalar kasalliklari propedivtikasi" Tibbiyot ko'zgusi 2022-y.

## **BOLALARDA UCHROVCHI ABSANS EPILEPTIK XURUJLAR.**

**Ohunova M. J., Karimova D.**

**Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot instituti .**

**Maqsad:**Bolalarda uchrovchi Absans epileptik xurujlarni erta aniqlash va diqqatni saqlab qolish.

**Taqiqot o'tkazish metodi:**Elektroensefalogramma (EEG): EEG absans epilepsiyasini aniqlashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bu testda miya faoliyatidagi elektr signal o'zgarishlari kuzatiladi. Absans tutqanoqlari paytida EEGda o'ziga xos "3 Hz spike-and-wave" to'lqinlar paydo bo'ladi.

**Taqiqot natijalari:**Taqiqot davomida jami 36 ta epileptik xuruji mavjud 12 yoshgacha bolgan bemorlarda kuzatish olib borildi.Ularning barchasida EEG(elektroensefalogramma)tekshiruv o'tkazildi. Tekshiruv quydagilarni ko'rsatadi jami tekshirilgan bemorlar 36 ta ulardan 27 tasida EEGda o'ziga xos "3 Hz spike-and-wave" to'lqinlar paydo bo'ladi.

Qolgan 6 tasida epileptik xuruj EEG(elektroensefalogramma) aniqlanmadi.

**Xulosa:**Bu epilepsiya turi odatda qisqa vaqtli hushdan ketishlar bilan namoyon bo'ladi.EEG absans epilepsiyasini aniqlashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bu testda miya faoliyatidagi elektr signal o'zgarishlari kuzatiladi. Absans tutqanoqlari paytida EEGda o'ziga xos "3 Hz spike-and-wave" to'lqinlar paydo bo'ladi.Shifokor bolaning tutqanoq paytidagi xatti-harakatlarini, qachon va qanday holatda sodir bo'lganini kuzatadi va ota-onadan batafsil ma'lumot oladi. Epilepsiya oilaviy tarix bilan bog'liq bo'lishi mumkin, shuning uchun bu ham hisobga olinadi.

Bu turdagi tutqanoqlar bir kunda bir necha marta, ba'zan 50 martagacha sodir bo'lishi mumkin.

Absans epilepsiyasi bo'lgan bolalarda diqqat va e'tiborni oshirish qiyin bo'lishi mumkin, chunki qisqa va tez-tez sodir bo'ladigan tutqanoqlar diqqatni uzib qo'yadi. Ammo, epilepsiyani to'g'ri davolash bilan birga, diqqatni oshirish uchun quyidagi usullar samarali bo'lishi mumkin.

**Xulosa:** Epilepsiyani samarali davolash dori-darmonlar: Shifokor tomonidan tavsiya etilgan dorilar (masalan, etosuksimid, valproat) epilepsiya tutqanoqlarini kamaytirishga yordam beradi. Tutqanoqlar kamayganda, bola diqqatini yaxshi jamlay oladi.Muntazam tibbiy

kuzatuv: Bolaning davolanish jarayoni shifokor tomonidan doimiy ravishda nazorat qilinishi lozim, chunki dorilar dozalari va turini vaqt o'tishi bilan o'zgartirish talab qilinishi mumkin. Kognitiv va diqqatni rivojlantiruvchi mashqlar: Maxsus dasturlar yoki o'yinlar orqali bolaga diqqatini oshirish uchun yordam berish mumkin. Masalan, diqqatni jamlashga yo'naltirilgan mashqlar (pazllar, konsentratsiyani talab qiladigan o'yinlar) yordam beradi. Vizual-motor mashqlar: Fokussiyalashga yordam beradigan o'yinlar va faoliyatlar (masalan, rangli shakllar bilan ishlash, sekvencial topshiriqlar) bolada diqqatni oshirishda yordam beradi.

## **АЁЛЛАР РЕПРОДУКТИВ САЛОМАТЛИК ҲОЛАТИГА ТУРМУШ ТАРЗИ ВА ИЖТИМОЙ ГИГИЕНИК ОМИЛЛАРНИНГ ТАЪСИРИ**

**М.Д.Ашурова, А.Олимов, А.Ахмаджонов**

### **Фарғона жамоат саломатлиги тиббиёт институти**

**Долзарблиги.** Бугунги кунда аҳолининг репродуктив саломатлигини муҳофаза қилиш масаласи фуқароларимизнинг репродуктив саломатлик билан боғлиқ онгини, тиббий саводхонлиги ва маданиятини ошириш, ҳам жисмонан, ҳам маънавий жиҳатдан соғлом ва баркамол авлодни вояга етказишга эътиборни янада кучайтириш, ёшларимизнинг соғлом ва аҳил оила қуришга, соғлом турмуш тарзига риоя қилишга интилишини шакллантириш, жинсий тарбиясига жиддий аҳамиятни қаратиш, бу борада оилавий тарбиянинг ролини, ота-оналарнинг савияси ва масъулиятини ошириш, атроф-муҳитнинг инсон репродуктив саломатлигига таъсирини инобатга олган ҳолда-ёшларда экологик маданиятни шакллантиришга алоҳида эътибор бериш каби вазифалар ечимига бевосита боғлиқ ҳолда олиб борилаётган ишлар самарадорлигини кучайтириш лозимлигига эътибор қаратилади. Шунинг учун ўтказилаётган тадбирлар бу масалага алоҳида эътибор берган ҳолда мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотлар натижасида эришаётган ютуқларимизни тарғиб этишга йўналтирилган. Бунда аҳоли, айниқса, ёшлар орасида тарғибот-тушунтириш ишларини кенг қўламда олиб бориш долзарб вазифаларимиздан биридир.

Ҳозирги пайтда ижтимоий-гигиеник ва айниқса, бевосита беморларни кузатишни ўз ичига олган (клиник-ижтимоий тадқиқотлар) комплекс тадқиқотлар ижтимоий шароитлар билан аҳоли саломатлиги орасидаги коррелятив боғланишларни очиқ бермоқда.

Аммо шуни ҳам айтиш лозимки, шу кунгача турмуш тарзини ўрганувчи комплекс ижтимоий-гигиеник тадқиқотлар жуда кам ўтказилган.

**Тадқиқот усуллари:** Туғруқ ёшидаги аёлларнинг турмуш сифати оммавий текшириш ва сўров интервью усулида ўрганилди. Сўров ўтказиш жараёнида аёлларнинг жисмоний фаоллиги, турмуш тарзи, умумий саломатлиги, руҳий ва жисмоний вазиятларнинг ҳаёт фаолиятига таъсири каби мезонларга алоҳида эътибор қаратилди.

**Тадқиқот натижалари:** Аёллар саломатлик ҳолатини субъектив баҳолаш мақсадида махсус ишлаб чиқилган анкета сўровномалари ўтказилди. Анкета сўровнома ўтказилган 200 нафар аёлларда қуйидаги натижалар олинди: “Яшаш шароити?” – деган саволга - 20% қулай, 45% қониқарли ва 35% яхши шароитда яшашлигини айтган. “Овқатланиш тартибига риоя қиласизми?” – деган саволга 80% аёллар риоя қила олмаслигини айтишган. “Спорт турлари билан шуғулланасизми?”- деган саволга 90% “йўқ”- жавобини берганлар. Гинекологик анамнез бўйича берилган саволларга, жумладан, “Жинсий ҳаёт ҳақидаги ахборотни ким томонидан олдингиз?” саволига 85% аёллар “дўстлардан” деб жавоб берганлар. Шунингдек 35 % аёллар ҳайз циклининг бузилишга шикоят қилганлар. Тиббий фаоллик бўйича берилган саволларга шифокорга мурожаат ўзи томонидан қилинган муолажа самарасиз бўлгандагина мурожаат қилиши ҳақида айтганлар.

Аёлларни тиббий ижтимоий алоқадорлик тавсифи билан бирга уларнинг репродуктив саломатлик ҳолатини баҳолаш жуфт корреляция коэффицентини ҳисоблаш орқали амалга оширилди. Аёлларнинг ижтимоий тиббий алоқадорлик ҳолати ҳомиладорлик сони ( $r=-0,21$ ), туғруқлар сони ( $r=-0,18$ ), туғруқдан кейинги асоратлар ( $r=-0,14$ ) билан ишончли тескари боғланган; маиший яшаш шароити туғруқдан кейинги асоратлар ( $r=-0,16$ ) ва ўзининг саломатлик ҳолатини баҳолашнинг ишончлилиқ кўрсаткичи билан тескари боғланган ( $r= -0,27$ ). Шунингдек, аёлнинг ёши қанчалик катта бўлса, репродуктив саломатликнинг интеграллашган кўрсаткичи шунча паст бўлади. Аёлларда бола ташлашлар сони оилавий аҳволи ( $\chi=+0,14$ ) ва репродуктив саломатликни интеграллашган кўрсаткичи ( $\chi=+0,24$ ) ишончлилиқ кўрсаткичи билан тўғри боғланган. Аёллар маслахатхонасида касалланишни аниқланиш ёши ҳомиладорликлар сони ( $r= +0,49$ ), туғруқлар сони ( $r= +0,68$ ) охириги туғруқдаги асоратлар ( $r=+0,24$ ) аниқланган касалликлар сони ишончлилиқ кўрсаткичига тўғри боғланган.

**Хулоса.** Шундай қилиб, илмий текширишлар натижасига кўра аёлларнинг умумий саломатлик ҳолати ва репродуктив саломатлик

турмуш тарзининг ижтимоий гигиеник омиллари, аёлларни касбий фаолиятига бевосита боғлиқлиги аниқланди. Аёлларнинг тиббий ижтимоий боғлиқлик тавсифи билан уларнинг репродуктив саломатлик ҳолати аёлларнинг ёши, ҳомиладорликлар сони, туғруқлар сони, туғруқдан кейинги асоратлар билан ишончлилиқ кўрсаткичи билан тўғри боғланганлиги ва ўз-ўзини саломатлик ҳолати билан тескари боғланганлиги аниқланди. Аёлларнинг ижтимоий ҳолати ҳомила сони ва туғруқлар сони билан алоқадорлиги аниқланди.

## **HARBIY XIZMATCHILARNING JISMONIY FAOLLIGINING ULARNING FUNKSIONAL IMKONIYATLARIGA TA'SIRINI GIGIYENIK BAHOLASH**

**Qutliyev J., Xolov SH.**

### **Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasi.**

**Tadqiqot maqsadi.** Mudofaa vazirligi tasarrufidagi harbiy qism va muassasalarning turli guruhlariga mansub harbiy xizmatchilarining jismoniy faolligining ularning funksional imkoniyatlariga ta'sirini gigiyenik jihatdan baholash.

**Tadqiqotning material va usullari.** Ushbu tadqiqotda Mudofaa vazirligining turli bo'linmalarida xizmat qiluvchi harbiy xizmatchilarning jismoniy faollik darajasi, kun tartibi, xizmat sharoitlari va salomatlik holatini tahlil materiallari olingan bo'lib, tadqiqotda anketa-so'rovnoma, sanitar-gigiyenik, analitik va sanitar-statistik usullardan foydalanildi. Tadqiqot ostidagilardan 34,0% ni ofitserlar hamda 66% ni oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari tashkil etdi.

**Natijalar.** O'tkazilgan tadqiqotimiz davomida Mudofaa vazirligining turli bo'linmalarida xizmat qiluvchi harbiy xizmatchilarning jismoniy faollik darajasi, kun tartibi, xizmat sharoitlari va salomatlik holati tahlil qilindi.

Anketa so'rovnoma natijalariga asosan, jami ofitserlarning 6,0% kuniga 5-7 km masofani piyoda bosib o'tishi, kursantlarning esa 41,0% ushbu masofni piyoda bosib o'tishi aniqlangan bo'lsa, tadqiqot ostidagi ofitserlarning 25,0 % hamda kursantlarning 52,0 % kuniga 8-10 km masofaga piyoda yurishi aniqlandi. Eng ahamiyatlisi tadqiqotga jalb etilgan ofitserlarning 29,0% kuniga 11-15 km masofani piyoda bosib o'tishi aniqlangan bo'lsa, ushbu masofani tadqiqot ostidagi kursantlarning bor

yo'g'i 3,0% bosib o'tishi aniqlandi. Bu esa ofitserlar tarkibining kursantlarga nisbatan jismoniy faolligini ko'rsatib beradi.

Bundan tashqari tadqiqotga jalb etilgan ofitserlarning 5,8% sutka davomida sport bilan shug'ullanishga vaqt ajratmasligi aniqlangan bo'lsa, 11,7 % ofitserlar 30 daqiqa, 47% ofitserlar 1 soat, 35,5% ofitserlar sutkasiga 2 soat va undan ko'proq vaqt sport bilan shug'ullanishi aniqlandi. Kursantlardan 21,2 % sutkasiga 30 daqiqagacha, 66,6 % sutkasiga 1 soat, 12,2% esa sutkasiga 2 soat va undan ko'proq vaqt davomida sport bilan shug'ullanish uchun vaqt ajratishlari aniqlandi.

Respondentlarning 46% futbol sport turiga qiziqishlarini bayon etgan bo'lsalar, 18,0% voleybol sport turiga, 10,0% shaxmat sport turiga qiziqish bildirgan, so'rovnomada ishtirok etgalarning 26,0% ni kurash, boks, taekvondo, basketbol va og'ir atletika kabi boshqa sport turlariga qiziqish bildirgan harbiy xizmatchilar tashkil etdi.

O'tkazilgan so'rovnomada jami ishtirokchilarning 84,0% o'zini jismoniy jihatdan faol hisoblashi, 16,0% esa o'zlarini qisman jismoniy jihatdan faol hisoblashi, ushbu jismoniy jihatdan faol turmush tarzini yuritadiganlarning 43,7 % ofitserlar tarkibi bo'lsa, 56,2 % ni esa kursantlar shaxsiy tarkibi tashkil etishi aniqlandi.

Tadqiqot ostidagilarning 38,0% ertalablari mutnazam ravishda yugurish mashqlari bilan shug'ullanishini bildirishgan bo'lsa, 34,0% esa yugurish bilan kun ora shug'ullanishi aniqlandi. Respondentlarning 16,0 % ertalablari haftasiga 2 yoki 3 marta yugurish bilan shug'ullanishi haqida ma'lumot berishgan bo'lsa, 12,0% tadqiqot ishtirokchilari ertalablari umuman yugurish mashqlari bilan shug'ullanmasliklarini bildirishgan.

O'tkazilgan tadqiqot doirasida sport bilan faol ravishda shug'ullanmaydigan ishtirokchilarning 58,2 % da kun o'rtasiga kelib jismoniy charchoq, uyqu bosishi, ishtahasining pasayishi kabi shikoyatlar paydo bo'lganligi haqida bildirishgan bo'lsa, aksincha jismoniy jihatdan faol bo'lgan harbiy xizmatchilar kun davomida o'zlarini tetik his qilishi, xizmatni ko'tarinki kayfiyatda olib borishlari, kechqurun yaxshi uxlashlari aniqlandi.

**Xulosa:** Shunday qilib, tadqiqot davomida jismoniy jihatdan faol bo'lgan harbiy xizmatchilarning kun davomida o'zlarini tetik his qilishlari, xizmatni ko'tarinki kayfiyatda olib borishlari, kechqurun yaxshi uxlashlari aniqlanganligi jismoniy faollikning inson organizmi turli a'zo va tizimlari ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb xulosa qilish mumkin.

## ПИТАНИЕ КАК ВАЖНЫЙ АСПЕКТ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ

Эрматова Г. А.

Central Asian Medical University, г.Фергана, Узбекистан

Важнейшим критерием здорового образа жизни и его необходимой предпосылкой является организация сбалансированного питания человека и населения в целом с учетом характера труда, климато-географических особенностей регионов, возрастного состава населения и т.д. В ряде исследований установлен весьма низкий уровень состояния как соматического, так и репродуктивного здоровья женщин, о чем свидетельствует огромное число осложнений беременности, родов, сохраняющийся высокий уровень гинекологической заболеваемости, значительная распространенность бесплодия и невынашивания беременности.

**Цель исследования.** Дать комплексную гигиеническую оценку заболеваемости женщин фертильного возраста по результатам комплексных медицинских осмотров.

**Материал и методы исследования.** Объектами исследования при изучении состояния здоровья были женщины фертильного возраста от 15 до 49 лет.

Медико-социологические исследования включали проведение массового медицинского осмотра, выкопировку данных из индивидуальных медицинских карт, опрос по разработанным анкетам. При изучении анамнестических данных методом анкетирования обращалось внимание на перенесенные заболевания (по-обращаемости). Полученные результаты были обработаны методом вариационной статистики с расчетом средней ошибки ( $m$ ), доверительного коэффициента ( $t$ ) и вероятности ошибки ( $P$ ). Математическая обработка материала проводилась на ПЭВМ в программе Windows 95, Microsoft Excel, версия 7.0.

**Результаты исследования и их обсуждение.** За период 2021-2023 гг. по Ферганской области среди женщин репродуктивного возраста с численностью 984173 женщин был проведен медицинский осмотр, среди которых 750979 (99,8%) женщин прошли углубленный медицинский осмотр. Во время медицинского осмотра у 350788 (52,4%) женщин фертильного возраста были выявлены экстрагенитальные заболевания. В целях сохранения и укрепления здоровья 482141 (95,7%) женщинам репродуктивного возраста были применены контрацептивные средства.

Для предупреждения угрозы здоровью матери и ребенка 21647 (4,3%) женщинам, которые по медицинским показаниям имеют

абсолютное противопоказание к наступлению беременности, было проведено радикальное оперативное вмешательство.

В время проведения углубленного медицинского осмотра среди экстрагенитальных заболеваний был выявлен следующий спектр заболеваний: болезни органов дыхания составили 15330 (3,0%), анемия – 293739 (58,3%), болезни пищеварительных органов - 30175 (6,0%), болезни мочевыделительных органов - 33684 (6,7%), эндокринные болезни - 45864 (9,1%), другие болезни - 53905 (10,7%).

Как показывают результаты данного исследования по оценке состояния здоровья в связи с характером питания 80 женщин фертильного возраста, у 45% обследованных ВМІ (масса в кг/рост в кв.м.) 18,5 и в среднем составило  $16,9 \pm 1,2$ , а также выявлено, что у 23% женщин ВМІ составляет  $28,5 \pm 1,6$ , т.е. имеют излишний вес. Ознакомление с характером питания показало, что они питаются, в основном, продуктами углеводного характера, бедными белками.

Изучение питания и проводилось путем анкетирования. У большинства опрошенных женщин величины их потребления не соответствовал нормам потребления и не отвечал принципам здорового питания.

В результате наших исследований, у 16 женщин и девушек выявлено увеличение размеров щитовидной железы. 61-70% обследованных страдают анемией, среди них преобладают железodefицитные анемии. У таких женщин обнаружены недостаточность витаминов А, В-12, В-6. По данным опроса, 39,8% опрошенных употребляют мясо и мясные продукты 1-2 раза в неделю, (9% - 1-2 раза в месяц, 17,7% - реже, 46,7% опрошенных употребляют фрукты в зимний период 3-4 раза в неделю, 20,7% - 1-2 раза в месяц, 17,3% - редко. Данные показатели у исследуемой группы женщин на 35-40% хуже, чем среди мужчин аналогичной возрастной группы. Изучение анемии среди 1500 женщин фертильного возраста из Ферганской области, показало, что данная патология значительно чаще встречается среди женщин старше 35 лет (44%), чем в возрастных категориях 15-18 лет (28,5%) и 19-35 лет (25,1%). Среди женщин старше 35 лет частота анемии тяжелой степени в 2 раза выше (1,7%), чем у женщин в возрасте до 35 лет (0,76%).

#### **Выводы:**

1. Алиментарный фактор является ведущим в поддержании здоровья женщин фертильного возраста;
2. Значимость алиментарных факторов, в том числе биологически активных добавок в поддержании здоровой репродуктивной функции женщин, имеет определенные закономерности, связанные с избыточным и недостаточным поступлением с пищей в организм ценных нутриентов, фармакологических веществ пищи;

3. Разработка комплексных профилактических мероприятий по охране и укреплению здоровья женщин репродуктивного возраста;
4. Разработка мероприятий поэтапного внедрения целевой программы, обеспечивающей гарантии эффективной медицинской помощи женщинам репродуктивного возраста на территории области.

## **SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKILLANTIRISHDA SPORT NUTRITSIOLOGIYASINING TUTGAN O‘RNI.**

**Teshaboyev U.A.**

**Central asian medical university.**

Hozirgi kunda deyarli har bir oilada sportning qaysidir turi bilan professional yoki havaskor tarzda shug‘ullanayotgan yoshlar va kattalar bor. Aholining sport va jismoniy tarbiyaga bo‘lgan qiziqishi ortib borayotgani aholiga bu borada yanada ishonchli va har tomonlama ma‘lumot berishni taqozo etmoqda. Bu, ayniqsa, sportchilar uchun ovqatlanish rejimini to‘g‘ri tashkillash juda muhimdir.

Dolzarb muammolardan biri bu – Sportchilarning ayniqsa havaskor sportchilar mashg‘ulot turiga qarab ovqatlanish ratsionini to‘g‘ri tanlamasligi oqibatida sportdan jaroxatlanish, organizmni toliqtirish va sport mashg‘ulotlarinidan zerikish va uni tark etishga sabab bo‘lmoqda.

Zamonaviy sport turlari, jumladan, havaskor sportchilar, yuqori jismoniy va ruhiy yuklarga duchor bo‘ladilar. Ularning ovqatlanishini to‘g‘ri tashkil etishning kaliti sarflangan energiyani to‘ldirish va tanadagi suv muvozanatini saqlashga qaratilgan chora - tadbirlar hisoblanadi.

Sport nutritsiologiyasi – sportchini nafaqat to‘g‘ri ovqatlanishini, balkim ovqatlarninig tarkibi, sifati, mutanosibligini o‘rgatadi. Shuningdek yoshi jinsi, sport turi, usuli, sportdagi darajasi, sutkaning qaysi qismida aktiv jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishiga bog‘liq holda kunlik rasioniti to‘g‘ri taqsimlashni, maxsulotlarni to‘g‘ri tanlashni va istemol qilish tartibini, miqdorini orgatadi.

Sport nutritsiologiyasi oqali nafaqat sportchilarni balki ularning oilasida ham sog‘lom ovqatlanish muhitini yaratishda muhim o‘rin tutadi. Natijada aholi orasida sog‘lom sportchilarni yetishtirib berish darajasi yanada ortadi.

Sportchini ovqatlanishi, fiziologiyasining, organizmning funksiyalarini va ularning jismoniy yuklamalarning ta'siri ostidagi moslanish mexanizmlarini o'rganadigan hamda ularning ishchanlik samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tadbirlarga asoslangan, shuningdek sportchilarning to'g'ri ovqatlanishi, ularda tana vaznini nazorat qilish, sportchi organizmida energiya almashinuvini o'rganadigan maxsus bo'lim hisoblanadi.

Shunday ekan, sport nutritsiologiyasi – bu amaliy va asosan profilaktik fan hisoblanadi, chunki odam organizmining zahira (rezerv) imkoniyatlarini tadqiq qilib va hisobga olib, u ish qobiliyatini oshirishning yo'llari va vositalarini, tiklanish jarayonlarini tezlashtirishni, toliqishning, organizm funksiyalarining o'ta zo'riqishi va patologik siljishlarining oldini olishning, shuningdek turli kasalliklarning yuzaga kelishini oldini olishni asoslab beradi. sport nutritsiologiyasining alohida uslubiy (metodik) xususiyati shundan iboratki, uning materiallari fiziologiyaning klassik metodlari (usullari)dan bir qatorini qo'llash mumkin bo'lmagan, faqatgina odam bilan bo'ladigan tajribalardagina olinishi mumkin. Shu munosabat bilan, odatda, jismoniy yuklamalardagi fiziologik siljishlarning mexanizmlarini aniqlash maqsadida faqatgina ayrim aniqlashtiruvchi tajribalargina hayvonlarda o'tkaziladi.

Sport nutritsiologiyasi murabbiy va o'qituvchiga sportchilarning salomatligini saqlash va sportda yuqori natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan bilimlarni jamlab, jismoniy tarbiya nazariyasida muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun murabbiy va pedagog mashq va musobaqa jarayonida sportchining organizmida sodir bo'ladigan fiziologik jarayonlarni, shug'ullanayotganlarning salomatligiga zarar yetkazmaslik, o'ta yuklanish va o'ta toliqishdan qochish, o'zining ko'rsatma va tavsiyalarini asoslab berish, bu ishni ilmiy jihatdan tuzish va takomillashtirishi uchun yaxshi bilishi kerak. Ular rehabilitatsiya (qayta tiklanish) jarayonida sportchining organizmida sodir bo'ladigan o'zgarishlarning mazmunini, qayta tiklanish jarayonini tezlashtirib, ularga faol va bexato ta'sir qilishlari uchun bilishlari kerak. Shunday qilib, yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqadiki, sport nutritsiologiyasi o'quv va ilmiy fan sifatida ikkita asosiy muammoni hal qiladi.

Ulardan biri odam salomatligini jismoniy mashqlar yordamida mustahkamlashning, uning organizmining tashqi muhitning turli noqulay omillariga (harorat, bosim, radiatsiya, havo va suvning ifloslanishi, infeksiyalar va h.k.) barqarorligining, shuningdek, ish qobiliyatining

saqlanishi va tiklanishining, odamning kasbiy faoliyati jarayonida ruhiy-hissiy (psixosotsional) moslashuvi va erta toliqishning rivojlanishiga qarshilik qilish qonuniyatlarini fiziologik asoslashdan iboratdir. Sport nutritsiologiyasining bu vazifalari jismoniy tarbiyaning ommaviy shakllari doirasida yechiladi.

Sport nutritsiologiyasining ikkinchi muammosi sportda yuqori natijalarga, ayniqsa, katta sportda erishishga mo'ljallangan, chora-tadbirlarni fiziologik asoslashdan iboratdir. Bu ikkita muammo to'raligicha mos kelmaydi, chunki mashq jarayonlarida eng yuqori natijalarga erishish uchun ba'zi holatlarda shunday yuklamalar qo'llaniladiki, ular organizmning tashqi muhitning noqulay ta'sirlariga barqarorligini 'asaytirishga, salomatligini yomonlashishiga va hatto, kasalliklarni yuzaga keltirishga olib kelishi mumkin.

Yuqorida bayon etilganlardan ayon bo'ladiki, organizm funksiyalarining fiziologik xususiyatlarini, energiya manbalari va almashinuvi, to'gri ovqatlanishni ommaviy jismoniy tarbiya va maxsus kontingentning (harbiy xizmatchilar, o't o'chiruvchilar, geologlar, talabalar, maktab o'quvchilari va ba'zi boshqa toifadagilar) jismoniy tarbiyasiga nisbatan ham, sportning turli ko'rinishlariga, ayniqsa, yuqori ko'rsatkichlar sportiga nisbatan ham, ayrim o'rganish va baholash kerak.

**Xulosa.** Shunday ekan sport nutritsiologiyasi nafaqat murabbiylar balkim mashg'ulotga qatnayotgan xavaskor sportchilarni ham tushunchalarini boyitishga muvofiq bo'ladi. Shuningdek yoshi jinsi, sport turi, usuli, sportdagi darajasi, sutkaning qaysi qismida aktiv jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishiga bog'liq holda kunlik ratsiyoniti to'gri taqsimlashni, ozira maxsulotlarni to'gri tanlashni va iste'mol qilish tartibini, miqdorini orgatadi.

## **QANDLI DIABETGA OLIB KELADIGAN JARAYONLAR.**

**Rahimova H. R.,**

**Xabibullayev N. U.**

**“Central Asian Medical University**

**ANNOTATSIYA:**Ushbu maqolada bugungi kunda inson hayoti uchun xavf solayotgan kasalliklardan biri bo'lgan Qandli diabet va uning kelib chiqish sabablari haqida ma'lumot berilgan.

**KALIT SO'ZLAR:**Glukoza,

glekomiya,insult,koma,stenokardiya,gipertoniya.

Agar kishi qonida shakar (glyukoza) miqdori me'yordan oshib ketgan bo'lsa, bu kasallik — **qandli diabetning** birinchi alomati hisoblanadi. Inson tanasida insulin ishlab chiqarish uchun me'da osti bezi hujayralari (beta-hujayralar) javobgar. Bir vaqtning o'zida insulin hujayralarga glyukozani o'zlashtirishga ham yordam beradi. Tanada insulin kam miqdorda ishlab chiqariladi, qonda glyukoza miqdori yuqori bo'ladi, lekin shunga qaramay hujayralarga glyukoza yetishmasligi boshlanadi. Bu metabolik kasallik irsiy yoki orttirilgan bo'ishi mumkin. Insulin yetishmasligida terida yiringli va boshqa teri kasalliklari paydo bo'lishi, tishlar, buyrak, asab tizimi shikastlanishi, [ateroskleroz](#), [stenokardiya](#), [gipertoniya](#) rivojlanishi, ko'rishning buzilishi kabi ikkilamchi patologiyalar kuzatiladi.

### **Etiologiyasi va patogenezi**

Diabetni patogenetik asoslari kasallik turiga bog'liq bo'ladi. Bir-biridan tubdan farq qiluvchi uning ikki turi farqlanadi. Zamonaviy endokrinologiya kasallikning tasniflanishini shartli deb atasa ham, kasallikning har bir turida davolash strategiyasini belgilash muhim ahamiyatga ega. Bu ularning har birida alohida-alohida to'xtalishni talab

qiladi. Umuman, qandli diabet, aslida metabolik kasalliklar turiga kiradi. Bu vaqtda faqat uglevod almashinuvi buziladi. Bu ko'rsatkich **giperglikemiya** deyiladi. Muammoning eng muhim asosi to'qima bilan insulin o'zaro ta'sirlashuvi buzilishi hisoblanadi. Glyukoza tana hayot jarayonlarini davom ettirish uchun asosiy energiya substrati sifatida kerak. To'qimalarga glyukoza o'tmasligi, glyukoza glikogen sifatida jigarda depo bo'lib to'planmasligi uning qondagi miqdorini oshishiga sabab bo'ladi. Ana shu o'zgarishlar qandli diabet nomini oladi.

### **Kasallik rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir o'tkazadi:**

- Feoxromositoma — buyrak usti bezi o'simtasi, natijada insulinga aks ta'sir etuvchi gormonlar ko'p ishlab chiqariladi;
- Buyrak usti bezlari giperfaolligi (giperkortitsizm);
- Gipertireoz;
- [Jigar sirrozi](#);
- Uglevodlarga sezuvchanlik buzilishi;
- Vaqtincha giperglikemiya — qonda glyukoza miqdorining vaqtinchalik oshishi.

Bunday holatlarda ikkilamchi qandli diabet yuzaga keladi va asosiy omil bartaraf etilganda diabet ham o'z-o'zidan yo'qoladi, lekin bu omillarning uzoq vaqt davomida ta'sir etishi birlamchi diabetga olib kelishi mumkin.

### **Qandli diabet belgilari va alomatlari**

Kasallik belgilari bosqichma-bosqich rivojlanadi va sekinlik bilan namoyon bo'la boshlaydi. Asosan qonda glyukoza miqdorining yuqori bo'lishi kuzatiladi.

Bemorlarda kasallik paydo bo'la boshlanganida quyidagi alomatlar qayd etiladi:

- Og'izning doimiy qurishi;
- Qondirib bo'lmas chanqoqlik;
- Kunlik siydik ajralishining oshishi;
- Tana vaznining kamayishi yoki birdan oshib ketishi;
- Kuchli teri qichishi va quruqlashishi
- Teri va yumshoq to'qimalarda yiringli yarachalar paydo bo'lishi;
- Mushaklarning kuchsizligi va haddan tashqari terlash;
- Har qanday yaralarning qiyin bitib ketishi.

### **Diabetni oldini olish uchun**

Afsuski, ko'p holatlarda birinchi turdagi diabetni oldini olish mushkul vazifa. Chunki uning asosiy sabablari irsiy omillar va kichik viruslardir. Lekin kasallik hammada ham rivojlanavermaydi. Olimlar ko'krak suti bilan ko'proq oziqlangan bolalarda qandli diabet kamroq uchrashini ta'kidlashadi, ammo bu hali isbotlanmagan.

Ikkinchi turdagi diabetda esa umuman boshqacha holat. Chunki u noto'g'ri ovqatlanish va hayot tarzi natijasida shakllanadi, shuning uchun profilaktik chora-tadbirlarni qo'llasa bo'ladi, demak:

- Tana vaznini normallashtirish;
- Qon bosimi va yog'lar almashinuvining nazorat qilish;
- Yengil hazm bo'ladigan ovaqatlar iste'mol qilish;
- Jismoniy faollikka amal qilish va shu bilan birga haddan ziyod zo'riqishlardan o'zini tiyish.

**Kasallik rivojlanishining asosiy sabablari quyidagilar:****Irsiyat.** Albatta, kasallik ta'sir etuvchi omillar bo'lmaganda rivojlanmaydi, lekin moyillik yuqori bo'ladi.**Semizlik.** Ortiqcha vazn ikkinchi turdagi diabet shakllanishiga olib keladi.**Kasalliklar.** Insulin ishlab chiqarish uchun

javobgar beta hujayralarini shikastlanishiga olib keluvchi kasalliklar. Ularga [pankreatit](#), me'da osti bezi saratoni, boshqa endokrin bezlar kasalliklari kiradi. **Virusli infeksiyalar** (qizamiq, suvchechak, [yuqumli gepatit](#) va boshqa kasalliklar). Ushbu infeksiyalari diabet rivojlanishiga hissa qo'shadi. Ayniqsa, xavf ostida bo'lgan odamlar uchun. **Asabiylashish, stress.** [Stress](#), asabiylashishdan yiroq bo'lish tavsiya etiladi. **Yosh.** Yosh ortishi bilan har o'n yilda diabet rivojlanish xavfi ikki baravar ortadi.

### **Qandli diabetni davolash mumkinmi**

Bu juda bahsli masala, bugungi kunda qandli diabetni to'liq davolash imkoniyatlari faol izlanishlar ostida. Qiyinchiligi shikastlangan organlarni tiklashdadir. Ikkinchi turdagi diabetni butunlay davolashning iloji bor, parhez tutilib, tana vazni me'yorga keltirilsa kasallik butunlay yo'qolib ketadi. Bunda ovqatlanish va jismoniy faoliyat tartiblarini normallashtirish kerak. Ular buzilganda kasallik yana qaytalanadi. Rasmiy tibbiyotga ko'ra — diabetni birinchi hamda ikkinchi turining chidamli shakllarini butunlay davolashni imkoni yo'q. Lekin doimiy nazorat ostida bo'lgan va shifokor tavsiyalariga amal qilingan holda kasallik asoratlarini oldini olish yoki butunlay cheklash mumkin. Zero kasallikni o'zi emas, asoratlari xavfli hisoblanadi. Biroq, hayot har doim bir xil bo'lmaganidek, bu kasallikdan ochlik yordamida butunlay davolanib ketgan odamlar kam emas. Bu amaliyotni shifkor javobgarligi ostida o'tkazsa bo'ladi.

Здоровье человека – тема достаточно актуальная во все времена, а в 21 веке она становится первостепенной. Эта тема актуальна тем, что люди должны обратить свое внимание к проблеме здоровья в современном обществе, ведь нездоровый человек не может быть по-настоящему счастлив. Здоровье – это состояние полного физического, душевного и социального благополучия, а не только отсутствие болезней. Многие люди не обращают внимания на свое здоровье, отказываются вести здоровый образ жизни. А здоровый образ жизни создает наилучшие условия для нормального течения физиологических и психических процессов, улучшая качество жизни, снижает вероятность различных заболеваний и увеличивает продолжительность жизни человека. Здоровый образ жизни – это такой образ жизни, который направлен на сохранение здоровья, профилактику болезней, укрепление организма в целом. Это также индивидуальная система поведения человека, обеспечивающая ему физическое, душевное, социальное благополучие в реальной окружающей среде (природной, техногенной и социальной) и активное долголетие.

Здоровый образ жизни включает в себя следующие основные элементы: рациональный режим труда и отдыха, рациональное сбалансированное питание, оптимальный двигательный режим, закаливание, личная гигиена и искоренение вредных привычек (курение, алкоголь, наркотические препараты, аморальное поведение).

Вся наша жизнь проходит в режиме распределения времени, частично вынужденного, связанного с общественно необходимой деятельностью, частично по индивидуальному плану. Главной составляющей режима жизнедеятельности человека является его труд, который представляет целесообразную деятельность человека, направленную на создание материальных и духовных ценностей [1]. Трудовой ритм задает ритм физиологический: в определенные часы организм испытывает нагрузку, вследствие чего повышается обмен веществ, усиливается кровообращение и далее появляется чувство усталости; в другие дни, когда нагрузка снижается, наступает отдых после утомления, восстанавливаются силы и энергия. Правильное чередование нагрузки и отдыха является основой высокой работоспособности человека [1].

Правильное, научно обоснованное питание – это важнейшее условие здоровья, работоспособности и долголетия. Необходимые организму питательные вещества можно подразделить на шесть основных компонентов: углеводы, белки, жиры, витамины, минеральные элементы и вода [2]. Правильное питание – это, прежде всего разнообразное питание с учетом генетических особенностей человека, его возраста, физических нагрузок, климатических и сезонных особенностей окружающей среды. Питательной ценностью в той или иной степени обладают все пищевые продукты, но не существует некой идеальной пищи. Важно не только то, что мы едим, но и сколько мы едим, когда едим, в каких сочетаниях съедаем те или иные продукты. На сегодняшний день также одна из обсуждаемых проблем является – внедрение в нашу жизнь в огромном ассортименте полуфабрикатов. Особенно молодежь предпочитает различные фастфуды, пакетированные сухари, сладости и тому подобное, которые мало того, не содержат никаких витаминов, но и являются настоящими канцерогенами. Необходимо также и упомянуть, о разных газированных сладких напитков, беспощадно разрушающие клетки печени и открывающие дорогу к таким заболеваниям, как сахарный диабет, ожирение, нарушение желудочно-кишечного тракта и другие. Такие продукты особенно приносят вред растущему организму, к тому же наступает привыкание к вкусу такой пищи.

Для того, чтобы питание отвечало требованиям здорового образа жизни, оно должно обеспечивать организм всеми необходимыми пищевыми элементами в необходимом количестве и нужном сочетании. Не менее важно, сколько человек получает энергии и сколько он ее расходует.

Что касается физической активности и вопросов закаливания, то это тоже является одним из аспектов в проблеме внедрения ЗОЖ в повседневную жизнь сегодняшнего человека. Поскольку во многих профессиях, сферах труда и в обычной жизни почти все механизировалось, автоматизировалось, нынешний человек стал гиподинамичным [4]. В свою очередь гиподинамия приводит к таким заболеваниям, как атеросклероз, лишний вес, сердечно-сосудистые болезни, апатия, иммунные нарушения. Люди, постоянно занимающиеся физической культурой, меньше подвержены стрессу, они лучше справляются с беспокойством, тревогой, гневом и страхом. Ежедневная утренняя зарядка - обязательный минимум физической нагрузки на день.

Главное в здоровом образе жизни – это активное творение здоровья, включая все его компоненты. Таким образом, понятие здорового образа жизни гораздо шире, чем отсутствие вредных привычек, режим труда и отдыха, система питания, различные закаливающие и развивающие упражнения; в него также входит система отношений к себе, к другому человеку, к жизни в целом, а также осмысленность бытия, жизненные цели и ценности и т.д.

#### Использованная литература:

1. Демиденко Н.М., Гигиена, Ташкент- 2002 г.- 616 с.
2. Ванханен В.Д., Петровский К.С., Гигиена питания, “Виша школа “- 1981г.- 264с.
3. Кучма В.Р., Гигиена детей и подростков, ГЭОТАР - Медиа- 2008г.- 480с.
4. Кардашенко В.И., Гигиена детей и подростков, Медицина – 1988г.- 512с.

# **QANDLI DIABET KASALLIGINING SABABLAR VA DAVOLASH USULLARI.**

**Tilyaxodjayeva G. B., Aliyeva I. O.**

**Farg'ona Jamoat salomatligi tibbiyot instituti**

**Annotatsiya:** JSST ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab 420 milliondan ortiq odam qandli diabetdan aziyat chekmoqda. Ushbu kasallikni davolashning muhim usullaridan biri bu parhezdir. Uning maqsadi asoratlarning paydo bo'lishining oldini olish yoki kechiktirish va insonning hayotini uzaytirishdir. Asosan asoratlardan saqlanish ,parvarishning yaxshi bo'lishi zarur hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Qandli diabet, giperglikemiya, retinopatiya, nefropatiya neyropatiya, insulinoterapiya.

JSSTqandli diabetning tasnifini vaqti-vaqti bilan yangilab, qayta ko'rib chiqdi. Bugungi kunda Rossiyada 1999 yilda qo'shimchalar bilan taklif qilingan versiya qo'llaniladi. Qandli diabet uchun parhez turi qon shakar darajasini maksimal ruxsat etilgan qiymatga optimallashtirish uchun individual ravishda tanlanadi. Bu patologiyaning rivojlanish mexanizmiga bog'liq. Qandli diabet o'zi nima? Qandli diabet (xalq orasida «saxar kasalligi» deb ham aytiladi) - tanada uglevod va suv almashinuvining buzilishi natijasida yuzaga keladigan kasallik. Me'da osti bezi funksiyasi buzilishi oqibati hisoblanadi. Asosan qandli diabet belgilari

-tana vaznining keskin kamayishi

-charchoq, holsizlik

-tez asabiylashish

-o'g'iz qurishi ,tez chanqash

-peshobning ko'payishi

-ko‘zlardagi xiralashuv va boshqalar

Insonlarda bunday belgilarining kuzatilishini endokrinolog nazorati ostida tekshirish tavsiya etiladi. Kun tartibiga amal qilmaslik, jismoniy harakat kamligi, me'yordan ko'p ovqat iste'moli, ruhiy zo'riqish, asabiylik, stress, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh hamda irsiy moyilligi bor shaxslarda yuzaga kelishi yuqori bo'lgan autoimmun kasallik sanaladi. Qandli diabet-giperglikemiyaning surunkali holati bo'lib, insulinning absolyut yoki nisbiy yetishmovchiligi oqibatida yuzaga keluvchi uglevod almashinuvi boshqarilishining buzilishi natijasida yuzaga keladigan hamda o'tkir va surunkali asoratlar rivojlanishi bilan yuzaga keladi. Insulin (lot. insula - orolcha) - hayvon va odamning oqsil tabiatli gormoni. Me'da osti bezining Langergans orolchalarida ishlab chiqariladi. Kanadalik olimlardan F. Banting bilan Ch. Best birinchi bo'lib ajratib olishgan (1921—1922). Insulin glikogenning parchalanishi va jigarda glyukoza sintezlanishini to'xtatib, qondagi qand miqdorini kamaytiradi. Ayni vaqtda, hujayra membranalarining glyukoza o'tkazuvchanligini oshiradi, natijada, to'qimalarga glyukoza o'tishiga imkon tug'iladi. Organizmda Insulin yetishmasligi qandli diabetga sabab bo'ladi. Uni davolashda 1-tipda insulinoterapiya qo'llaniladi.

Insulin terapiyasi qandli diabetni davolashning asosiy usuli hisoblanadi. Davolashning maqsadi oshqozon osti bezi tomonidan insulinning tabiiy chiqarilishini imkon qadar yaqindan ko'paytirishdir. Bu qon zardobidagi glyukoza konsentratsiyasini nazorat ostida ushlab turish, shuningdek, shakarning yuqori konsentratsiyasi bilan bog'liq asoratlar xavfini kamaytirish imkonini beradi. Asosan yosh bolalarda 1-tip qandli diabet kuzatiladi. Buning sababi, qanday kelib chiqishi noma'lum. Katta yoshlilarda esa harakatsizlik, stress, ovqatlanish ratsioniga amal qilmaslik

va yana shu kabi odatlar sabab bo'ladi. Biz qandli diabetning o'zidan emas uning asoratlaridan saqlanishimiz kerak.

**Giperglikemiya:** Qonda doimiy qand miqdorining balandligi organizmga salbiy ta'sirlar olib keladi. Ovqatdan keyin glyukoza darajasi ko'tariladi. Insulin hujayralarga glyukoza olishiga va uni energiya manbai sifatida ishlatishga yordam beradi. Agar gormon yetarli miqdorda ishlab chiqarilmasa, masalan, diabet tufayli, giperglikemiya rivojlanadi, bu esa asoratlarni keltirib chiqaradi. Birinchi navbatda ko'zlar xiralashuvi bu ko'zlar retinopatiyasiga olib keladi.

**Retinopatiya** - ko'z kasalligi bo'lib, ko'zning orqa qismidagi shaffof membrana bo'lgan ritina kasalligi. Bu asosan diabet yoki gipertenziya tufayli yuzaga keladi. Agar u o'z vaqtida davolanmasa to'liq yoki qisman ko'rlikka olib kelishi mumkin.

**Sabablari:** Diabetik retinopatiyaning rivojlanishida asosiy aybdor shubhasiz diabet yoki yuqori qon shakaridir. Diabetik retinopatiyaning og'irligi to'g'ridan-to'g'ri qon shakarini nazorat qilish bilan bog'liq. Ko'zning orqa qismidagi nurga sezgir qatlam bo'lgan retina qon tomirlarining boy ta'minotiga ega. Qon shakarlari juda baland bo'lganda, bu qon tomirlari zaiflashadi. Qon tomirlari ichidagi qon va suyuqlik retinaga chiqib ketdi. Yangi qon tomirlari o'sadi, lekin ular zaifdir va suyuqlik oqishi mumkin. Bu retina shishadi va ozuqa va kisloroddan mahrum bo'lib, ko'rish qobiliyatini yo'qotadi.

**Bosqichlar:** Diabetik retinopatiya to'rtta asosiy bosqichda davom etadi: yumshoq yallig'lanishsiz, o'rta darajada tarqalgan bo'lmagan, qattiq nonproliferativ va proliferativ diabetik retinopatiya.

**Yengil proliferativ:** qon tomirlarida shishishning oz miqdori paydo bo'ladi.

O'rta darajada tarqalgan bo'lmagan: qon tomirlari bloklanadi va oqish suyuqligi bo'ladi. Jiddiy nostroizolyatsiya qiluvchi: retina oziq moddalari va kisloroddan mahrum bo'ladi. Proliferativ: anormal qon tomirlari o'sishni boshlaydi, ammo zaif bo'lib, glaukomaga, retinal ajralishga va ko'rlikka olib kelishi mumkin. Odini olish choralari bu qondagi qand miqdorini me'yordan oshirmaslik okulist ko'rigidan har 6oyda o'tib turish. Nefropatiya nima? Bu qonni filtrlaydigan buyraklardagi mayda qon tomirlarining shikastlanishi natijasida kelib chiqadigan buyrak kasalligi. Ishtahaning yo'qolishi

Belgilari: Ko'ngil aynishi va qayt qilish, Doimiy qichishish, Charchoq, Siydikdagi protein, Nefropatiya sabablari, Qandli diabet

Nefropatiya tashxisi: Qon testlari, Siydik testlari, Tasvirlash testlari, Buyrak biopsiyasi, Buyrak funktsiyasi testlari, Oyoqlarning, to'piqlarning shishishi,, Nefropatiya davolash, Davolash imkoniyatlari, Yuqori xolesterinni nazorat qiling, Yuqori qon shakarini boshqaring , Yuqori qon bosimi nazorat ostida bo'lsin, Nazorat ostida siydikda protein bor. Neyropatiya Asab tizimining patologiyasi bo'lib, siqilish yoki shikastlanish tufayli periferik nervlarning shikastlanishi fonida yuzaga keladi va tabiatda yallig'lanish emas. Bir zonada joylashgan bir nechta nervlar ta'sirlanganda "polinevopatiya" atamasi qo'llaniladi. Katta yoshdagi aholining 15% gacha neyropatiyaning turli ko'rinishlaridan aziyat chekadi. Ehtimol, kasallik bilan og'rigan bemorlarning soni ko'proq, chunki Ulardan ba'zilari dastlabki ko'rinishlar bilan shifokorga bormaydi.

Neyropatiyaning sabablari: Bugungi kunga qadar neyropatiyaning aniq sababi aniqlanmagan. Kasallikning paydo bo'lishi va rivojlanishiga diabet, OIV infeksiyasi, surunkali alkogolizm, organik kasalliklar va tashqi omillar kabi ko'plab omillar ta'sir qiladi. Bundan tashqari, genetik nuqsonlar bilan bog'liq irsiy patologiya shakllari mavjud. Neyropatiya

tashxis qo'yish juda qiyin kasallik hisoblanadi. Kasallik uzoq vaqt davomida o'zini his qilmasligi va muayyan belgilar bilan o'zini namoyon qilmasligi mumkin. Shuning uchun shifokor to'g'ri tashxis qo'yish uchun to'liq tarixni to'plashi kerak. Va shu kabi asoratlar kuzatilishi mumkin qachonki bemor o'zini yaxshi parvarish qilmasa, dori vositalarini o'z vaqtida olmasa, shifokor nazoratida bo'lmasa hamda maslahatlariga amal qilmagan vaziyatlarda. Gipoglikemiya bu Insulin terapiyasining yana bir maqsadi insulin etishmovchiligi tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan shakar darajasining keskin pasayishiga yo'l qo'ymaslikdir. Bu holat og'ir jismoniy zaiflik, hushidan ketish va konvulsiyalar bilan birga keladi.

Belgilari: qaltirash, sovuq terlash, kuchli ochlik hissi, keskin hollarda koma. Oldini olish choralari: birinchi navbatda shirin suyuqlik ichish so'ng ovqat iste'mol qilish, agar ovqat iste'mol qilinmasa 10, 15 daqiqadan so'ng qaytalangan paytda avvalgisidan ham kuchliroq ta'sir boshlanishi mumkin. Bolalarda diabetni davolash uchun insulin terapiyasi buyuriladi. Shifokor kun davomida glyukoza darajasining o'zgarishi xususiyatlarini, kichik bemorning jismoniy faolligi va ovqatlanish xususiyatlarini baholagandan so'ng, dori vositalarining kombinatsiyasini, ularning har birining dozasini va qabul qilish chastotasini tanlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Yusupova Sh.Q .Bolalar endokrinologiyasi.2019
2. Детская эндокринология: атлас/ под. ред. И. И. Дедова, В. А. Петерковой. - М.: Гэотар-Медиа, 2016. - 240 с.
3. Pediatric Endocrinology A Clinical Handbook, 2023 Детская эндокринология Клинический справочник, 2023 на англ яз
4. Справочник педиатра по детской эндокринологии: Методическое пособие / Петеркова В. А., Витебская А. В., Геппе Н. А. и др. – М.: Верди, 2016. – 140 с.

5. Болалар эндокринологияси бўйича таъхислаш ва даволаш стандартлари.-Т.-2017й

6. Rajabboyeva Dilduzaxon Abdumalik qizi, & Umarova Musharraf Yunusaliyevna. (2024). AYOLLAR GINEKOLOGIYASI, HAYZ SIKLI UNDAGI KASALLIKLARNI DAVOLASH USULLARI VA ULARNI DAVOLASHDAGI HOZIRGI ZAMON INNOVATSIYALARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 44(7), 142–147.

7. Умарова, М. (2023). ГАВҲАРШОДБЕГИМ ТУҒИЛГАН ОИЛА ВА УНИНГ АМИР ТЕМУР ДАВРИДАГИ ҲАЁТИ. *Interpretation and Researches*

8. Усмонов, Б. А. ., & Умарова, М. . (2022). XV АСР ЎРТАЛАРИДА ХУРОСОНДА ЮЗ БЕРГАН СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАРДА ГАВҲАРШОДБЕГИМНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(10), 110–113.

## **VIRUSLI GEPATIT E EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Chutboev B.R.**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali**

Jahonda har yili E gepatiti (EG) bilan 20 million insonlarning zararlanish holatlari kuzatiladi, jumladan 3,3 million atrofidagi holatda kasallik yaqqol klinik alomatlar bilan namoyon bo‘ladi.

JSST ma’lumotlariga ko‘ra, 2015 yil 44000 nafar odam E gepatitidan vafot etgan (bu virusli gepatitlardan umumiy o‘limning 3,3% ini tashkil qiladi). Jahonda EG ning tarqalganlik darajasi A gepatitiga nisbatan ustun bo‘lib, butun aholining 20% dan yuqoriroq qismi Ye gepatiti virusi bilan zararlanib o‘tganlikni dalillovchi anamnestik markerlarga ega.

Birgina Xindistonda virusli gepatitlar etiologik tarkibida EG ning hissasi 40% ni tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlarda, hozirgi paytda, EG deyarli faqat ekzotik kasallanish ko‘rinishida qayd etiladi.

E gepatiti jahonning turli mintaqalarida notekis taqsimlangan. Kasallik Afrika, Osiyo, Markaziy va Janubiy Amerikaning ko‘pgina mamlakatlari, ayniqsa, suv taqchil va suv ta’minoti, kanalizatsiyasi, turmush tarzi, umumiy sanitariya holati me’yoriy bo‘lmagan, hamda aholi turmush darajasi past mintaqalar uchun endemik hisoblanadi. Bu mintaqalarda deyarli muntazam ravishda kasallik epidemiyalari, epidemik chaqnashlari qayd etilib, epidemiyalararo davrda esa sporadik kasallanish davom etib turadi.

**Tadqiqotning maqsadi:** Virusli gepatit E epidemiologik xususiyatlarini adabiyot ma'lumotlari asosida tahlil qilish.

**Olingan natijalar:** Ushbu kasallik XX asrning 70 – yillarigacha unchalik dolzarb muammo emas edi, o'sha davrda O'rta Osiyoning Amudaryo va Sirdaryo o'zanida joylashgan, Turkmaniston, O'zbekiston va Qozog'iston aholisi orasida juda katta epidemik avj olishlar bo'lgan, shu davrda o'n minglab aholi kasallangan.

Kasallik klinik belgilari jihatdan virusli gepatit A kasalligiga o'xshagan, ammo kasallanganlar, asosan, katta yoshdagi kishilar bo'lib, o'sha davrda kasallik yengil shakllarda kechgan, homilador ayollarda kasallik og'ir shakllarda uchrab, ko'proq o'lim hollari kuzatilgan. Kasallanish yozgi – kuzgi mavsumda ko'proq uchragan.

Dastlab bunday epidemiyalarni, virusli gepatit A kasalligi deb qarashgan, ammo ommaviy profilaktika va davolash maqsadida ko'llanilgan gepatit A virusining antitelolarini o'zida saqlaydigan gamma – globulin hech qanday samara bermasligi ushbu kasallikning gepatit A emasligini isbotladi. Yuqorida qayd qilingan epidemik avj olishlar boshqa jamoalarda, boshqa mamlakatlarda ham ro'yxatga olina boshladi.

Shunday qilib, shifokorlarda va tabobat olimlarida virusli gepatitning fekal – oral mexanizmi bilan yuqadigan, epidemik avj olishlar bilan kechadigan yangi turi paydo bo'lganligi haqida tasavvur paydo bo'la boshladi.

Hozirgi davrga kelib kasallikning chaqiruvchisi Hepeviridae oilasiga, Hepevirus turiga mansub bo'lgan, RNK saqlovchi virus ekanligi isbotlangan.

Gepatit E virusiga aholining moyilligi gepatit A virusiga nisbatan kamroq.

Epidemik jarayonning rivojlanish mexanizmi. Kasallik qo'zg'atuvchisining manbai: Gepatit E virusining asosiy manbai bu bemor odamlardir. Ammo keyingi yillarda virusli gepatit E kasalligi hayvonlardan ham yuqishi mumkinligi haqida anchagina ma'lumotlar to'plangan. Masalan, chorva mollari, cho'chqalar bilan doimiy muloqotda bo'ladigan veterinariya xodimlari, cho'ponlar qonida gepatit E virusiga qarshi antitelolar ancha ko'proq va yuqori titrlarda aniqlanadi. Bundan keyingi o'tkaziladigan zamonaviy epidemiologik va immunologik tadqiqotlar gepatit E virusining zoonoz yoki antropoz ekanligini aniqlasa kerak, degan umidlar bor. Asosiy yuqish yo'li suv orqali amalga oshadi.

Virusli gepatit E kasalligining virusi Janubiy – Sharqiy Osiyo mamlakatlari (Hindiston) va O'rta Osiyo mamlakatlari, shu jumladan, Afg'oniston uchun endemik virus hisoblanib, ushbu mamlakatlardan suv o'zani bo'ylab boshqa joylarga tarqaladi va epidemiyalarga sabab bo'ladi. Bizning O'zbekistonda ham ushbu kasallik tez-tez uchrab turadi, Respublikada qayd qilinayotgan fekal – oral mexanizmi bilan

tarqalayotgan virusli gepatit A kasalligining ichida virusli gepatit E kasalligining ma'lum darajadagi ulushi bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Lekin o'ta sezgir virusologik va immunologik tekshiruvlar natijalarisiz ushbu farazni isbotlash ancha mushkul.

**Xulosa:** Epidemiologik xususiyatlari: kasallanish barcha hududlarda bir tekis tarqalmaydi; kasallikning tarqalish darajasi markazlashgan suv va kanalizatsiya bilan bog'liq; epidemik avj olishlar ko'pincha epidemik chaqnash ko'rinishda namoyon bo'ladi; asosan xomilador ayollarda kasallik og'ir formada o'tadi (20-29 yoshlilarda); o'lim darajasi xomiladorlikning 2-chi yarmida bo'lgan ayollarda yuqori; davriylik 8-10 yilda kuzatiladi; mavsumiylik yozgi-kuzgi; epidemik o'choqlilik suv ta'minoti bilan bog'liq bo'lib, oilaviy o'choqlilik yo'q.

## **VIRUSLI GEPATITLAR BILAN KASALLANISHLARNING EPIDEMIOLOGIK TAXLILI**

**Chutboyev B.R., Umirov S.E., Rasulov Sh.M., Soatova N.A.  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali**

Hozirgi kunda dunyo buyicha yuqumli kasalliklarning turi ko'p, biroq ular orasida virusli gepatitlar eng xavfli xastaliklardan biri hisoblanadi. Sog'liqni saqlash sohasini global muammolaridan biri virusli gepatitlar bo'lib, jigarning turli hil patologik o'zgarishlarga sababchi bo'ladi.

Virusli gepatitning asosan 7 ta - A, B, C, D, E, G, TTV kabi turlari mavjud. Ular klinik kechishi va oqibatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Yurtimizda esa asosan kasallikning A, B, C turlari ko'p tarqalgan bo'lib, D va E turlari kamroq uchraydi.

Respublikamizda virusli A gepatit – eng ko'p tarqalgan bo'lib, boshqa turlarga nisbatan xavfsizroq xastalik xisoblanadi, asosan bemorlarda o'tkir kechadi. Ammo surunkali tus olmaydi hamda o'lim va boshqa jiddiy oqibatlarga olib kelmasligi bilan farqlanadi. Bu xastalikning yana bir nomi “iflos qo'llar kasalligi” deb ham ataladi. Virusni asosan qo'zg'atuvchi bilan zararlangan suv, taom, yaxshi yuvilmagan idish hamda bemor bilan muloqotda bo'lish orqali yuqtirish mumkin.

### **Tadqiqotning maqsadi:**

O'zbekiston Respublikasida virusli gepatitlar bilan kasallanishlar-ning epidemiologik taxlili 2017 – 2022 yillar.

**Tadqiqot materiali va uslublari.** Surhondaryo Viloyati Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatlik xizmatining virusli gepatitlar bilan kasallanishlar bo'yicha 2017-2022 yillardagi hisobotlari. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda epidemiologik va statistik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalari va muhokamasi.** 2017 - 2022 yillarda O'zbekiston Respublikasida virusli gepatitlar kasallanishlarni taxlil qilganimizda, kasallanishning intensiv ko'rsatkichlarda kamayish tomon o'zgarishini kuzatishimiz mumkin. Tadqiqotimizning boshlang'ich davrida ya'ni 2017-yilda virusli gepatitlar bilan kasallanish intensiv ko'rsatkichi 100 ming aholiga nisbatan 98,3 ni tashkil qilgan. 2022-yilga kelib virusli gepatitlar bilan kasallanish intensiv ko'rsatkichi 100 ming aholiga nisbatan 83,5 ni qayd qildi. Kasallanishning intensiv ko'rsatkichini yillar o'tgan sayin tushib borgani, aholi sonining yillar davomida ko'tarilishi va virusli gepatit B qarshi vaksinaning emlash kalendariga kiritilishi va virusli gepatit A ga qarshi emlash tadbirlarni ham olib borilishi, kasallanishlarning mutloq ko'rsatkichlarda ham kam aniqlanishi hisobiga hosil bo'lganligini anglashimiz mumkin. Virusli gepatit kasalliklari hali hanuzgacha yurtimizda uchrashi, kasalliklarni to'liq bartaraf etilmaganligi, kasallanishning og'ir asoratlarga olib kelishi bilan o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

2017-2022 yillarda virusli gepatitlar bilan kasallanganlarning virus turiga qarab farqlanishini tahlil qilganimizda. Asosan virusli gepatit A bilan kasallanishlar yuzaga kelganligi aniqlandi.

Tahlilimizda 12 ta viloyat, Samarqand viloyati va Qashqadaryo viloyatida uchragan kasallanishlar o'rganildi, kasallanganlarning asosiy qismi Qashqadaryo viloyatida aniqlanganini kuzatishimiz mumkin. Bunda 2017-2022 yillarda o'tkir virusli gepatitlar bilan kasallanishning o'rtacha intensiv ko'rsatkichi Samarqand viloyatida 110,45 ni tashkil qilgan. Keyingi o'rinlarda Qashqadaryo viloyati, Surhondaryo viloyati va Namangan viloyatida (intensiv ko'rsatkichlari mos ravishda 103,40. 92,53. 80,88 ni) egallagan. Diagrammamizda qolgan viloyatlarda ham o'rtacha intensiv ko'rsatkichlari yuqoriligini ko'rishimiz mumkin, so'ngi o'rinda bo'lsa ham Xorazm viloyatida (intensiv ko'rsatkich 25,73 bo'lib) qolgan hududlarga qaraganda kasallanishning nisbatan kamroq uchrashi bilan qayd qilinmoqda.

Virusli gepatitlar bilan kasallanishni yana bir taxlilda kasallanganlarning shahar va qishloq sharoitlarida yashashi bo'yicha misollar tariqasida keltirib o'tamiz. Taxlilimizni 2017-yilida kasallanganlarning 32,25% shahar sharoitida yashaydi, 67,75% qishloq sharoitida yashashi aniqlandi. 2022 yilga kelib esa virusli gepatitlar bilan kasallanganlarning 17 % shahar sharoitida yashaydigan odamlarga, qolgan 83% esa qishloq sharoitida yashaydigan odamlarga to'g'ri kelgan.

O'rganilayotgan yillarimizda (2017-2022 yillarda) barcha kasallanganlarning 31% shahar sharoitida yashaydigan odamlarga, 69% esa qishloq sharoitida yashaydigan odamlarga to'g'ri kelishi aniqlandi. Bundan ko'rinib turibdiki virusli gepatit B bilan shahar va qishloq sharoitida kasallanishi 7 yillik taxlilimizda umumiy kasallanishda oz

bo'lsada farqlanmoqda, lekin so'ngi yillarga kelib kasallanganlarning asosiy qismi qishloq sharoitida yashaydigan odamlarda uchrashi bilan farqlanib bormoqda.

Taxlilimizdan olingan ma'lumotlarni virusli gepatitlar bilan kasallanishda axolining yashash tarzi yoki kasallik haqida bilim ko'nikmalarining kasallanishning tarqalishi yoki kelib chiqishida o'z o'rniga ega ekanligi o'z ifodasini topmoqda.

Kasallanishni jins bo'yicha tafovutini taxlil qilganimizda, virusli gepatitlar bilan so'ngi 7 yil ichida erkaklar ayollarga qaraganda oz bo'lsada farqlanib ko'proq kasallanganligi ma'lum bo'ldi.

2015-2021 yillar oralig'ida barcha kasallanganlarning 47% ni ayollar, qolgan 53% ni erkaklar tashkil qilgani taxlilimizda aniqlandi.

Kasallanganlar orasida erkak jins vakillarning ustun kelishi, ayollar soniga nisbatan erkaklarning 6% ko'proq kasallanganliklari aniqlangan.

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar o'tkir virusli gepatitlar kasalliklarining 7 yillik taxlilimizda, ohirgi yillarga kelib intensiv ko'rsatkichda pasayib borayotganligini kuzatdik, ma'muriy hududlar bo'yicha ohirgi 7 yilda o'tkir virusli gepatitlar asosan Namangan, Sirdaryo, Samarqand viloyatlari va Toshkent shaxrida ko'proq aniqlanganligi kuzatildi. 7 yillik taxlilimizda Barcha gepatitlarning 98,9% ni virusli gepatit A tashkil qildi, 0,79% virusli gepatit B va 0,25% virusli gepatit C aniqlandi. Kasallik bilan murojatlardagi aholining yashash sharoitiga qarab taxlil qilganimizda so'ngi 7 yilda qishloq aholisi 69% ni, shaxar aholisi esa 31% ni tashkil qilganligi aniqlandi. Kasallanganlarning jinsiy tafovutlar ham o'rganilganda, uncha katta o'zgarishlar farqlanmagan holda erkaklar 53%, ayollar esa 47% ni tashkil qildi. Bu bilan kasallanishda jinsiy tafovutlar uchramasligini hulosa qilsak bo'ladi. Virusli gepatitlar bilan kasallanishlar yillar o'tib kamayganiga qaramay, bu kasallik hali hanuz o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

**ROTAVIRUS INFEKSIYASINI MANBALARI, KASALLIKNI  
YUQISH YO'LLARI VA PROFILAKTIKASI  
Djuraeva M.E., Safarov Sh.B.  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali**

Jahon Cog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha har yili 275 million yosh bolalar va katta yoshdagi kishilar diareya kasalligiga chalinadi va ularning taxminan yarmi rotavirus xastaliklari hisoblanadi. Gastroenteritlarning 26%i rotavirus infeksiyasi ekanligi tasdiqlandi. Qozog'istonda ushbu raqam 30%ni, Qirg'izistonda 24%ni tashkil etdi. Rotavirus infeksiyasining 86%i 2 yoshgacha bolalar orasida ro'yxatga olinayapti. O'rta Osiyo xududida, jumladan

O'zbekistonda xalqaro tashkilotlar bilan 5 yil davomida rotavirus infeksiyasi bo'yicha epidemiologik nazorati olib borildi. 2ta mamuriy hududda Buxoro shaxar yuqumli kasalliklar shifoxonasida va Toshkent shaxar yuqumli kasalliklar shifoxonasida tekshiruvlar o'tkazildi. Shifoxonaga murojaat qilayotgan 5 yoshgacha bo'lgan 10000 nafar bolalarni rotavirus infeksiyasiga tekshirildi.

Rotavirus infeksiyasi odam va jonivorlarda uchraydigan o'tkir yuqumli kasallik bo'lib, uni viruslar qo'zg'atadi va oshqozon-ichak yo'lga zarar yetkazadi, oqibatda oshqozon faoliyati keskin buziladi. Masalan, AQShda har yili kamida 3.5 mln. kasallanish xolatlari qayd etiladi va buning oqibatida 5 yoshgacha bo'lgan bolalarning 120 dan ortig'i nobud bo'ladi. O'zbekistonda, xususan Toshkent shahrida vaqti-vaqti bilan rotavirus infeksiyasiga chalinish holatlari kuzatiladi. Ushbu infeksiyaga ayniqsa 1-6 yoshdagi bolalar ko'proq chalinadi. Bir yoshgacha ko'krak suti bilan oziqlanadigan chaqaloqlarda mavjud bo'ladigan ona himoya kuchlari virusni bola organizmiga kirib borishiga to'sqinlik qiladi yoki kasallik jarayonini yengil kechishiga yordam beradi. Ko'krak suti bilan boqilgan bolaga nisbatan qo'shimcha ovqatlar bilan oziqlantirilgan bolalar rotavirus infeksiyasini yuqtirish xavfi bir muncha yuqori bo'ladi.

Bu kasallik "iflos qo'llar" kasalligi hisblanib, bir odamdan boshqa odamga maishiy jihozlar, uy-ro'zg'or buyumlari, tayyorlangan ovqatlar orqali o'tadi. Infeksiya daryo, quduq va vodoprovod suvaridan ham yuqishi mumkin. Ushbu virus sovuqqa chidamli bo'ladi, havo harorati nol darajaga teng bo'lganda ham tirikligicha qoladi va suvda uzoq muddat saqlanib, so'ng organizmga tushishi mumkin.

Kasallikning oldini olish choralarini ko'rishda eng muhim virus yuqori haroratga chidamsiz ekanligini hisobga olish, shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish va uyda tozalikni saqlash lozim. Rotavirus ta'sir natijasida 1-3 daqiqa davomida nobud bo'ladi. Barcha oila a'zolari ayniqsa, yosh bolalar uchun mo'ljallangan suv bilan xom sutni albatta qaynatish talab etiladi. Bolalarga yangi sog'ilgan sutni qaynatmasdan berish mumkin emas.

## **O‘ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRANTLARI ORASIDA OIV – INFEKSIYASI TARQALISHINING EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Rasulov Sh.M., Almardanova Z.J.  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali**

Butun dunyo bo‘yicha tarqalishi davom etayotgan OIV/OITS infeksiyasi hozirgi kunda zamonamizning eng jiddiy, dolzarb muammosiga aylandi. OIV – infeksiyasining pandemiyasi insoniyat tarixida XX asr oxiridagi insoniyatning eng yirik fojeasidir.

Respublikamizda xalqaro rasmiy va norasmiy migratsiya jarayonlari tafovut qilinadi. Halqaro rasmiy migratsiya asosan Janubiy Koreya, AQSh, Germaniya, Isroil davlatlariga kichik va o‘rta biznes, qishloq xo‘jaligi eksporti, qurilish va diplomatik aloqalarni mustahkamlash maqsadida ko‘proq tashkil etilgan.

Norasmiy tashqi migratsiya ko‘proq Rossiya Federatsiyasiga (70%) Qozog‘iston Respublikasiga (13%) va ichki migratsiya Toshkent shahrida umumiy ovqatlanish, savdo-sotiq, qurilish, qishloq xo‘jaligi sohalarida xizmat ko‘rsatishdan iborat.

Chet davlatlarda uzoq vaqt bo‘lib (3 oydan ortiq), O‘zbekistonga qaytgan respublika fuqarolarini OIV-infeksiyasiga tekshirish, ularda klinik va epidemiologik ko‘rsatmalar bo‘lgan holatlarda yashash joyidagi tibbiyot muassasasining yo‘llanmasi asosida bepul ravishda tekshirish amalga oshiriladi, qolgan holatlarda OIV-infeksiyasiga tekshirish bilan bog‘liq xarajatlar tekshiriluvchi hisobidan qoplanadi.

**Tadqiqotning maqsadi** mehnat migrantlari orasida OIV-infeksiyasi tarqalishining epidemiologik xususiyatlarini o‘rganish

**Tadqiqot materiallari va uslublari** O‘zbekiston Respublikasi OITS infeksiyasiga qarshi kurash markazining 2007-2014 yillardagi rasmiy ma‘lumotlari epidemiologik tahlil qilindi. Ushbu tadqiqotni bajarishda epidemiologik va statistik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.** Keyingi yillarda Respublikamizda OIV/OITS infeksiyasi muammosi hamon o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Dastlabki yillarda (1987-1999 y.y.) OIV-infeksiyasining aniqlanishi, asosan giyohvand moddalarni tomir orqali qabul qiluvchi shaxslar, ya‘ni xavfli ijtimoiy guruhlar orasida kuzatilgan va ortib borgan (80%) bo‘lsa, oxirgi yillarda, mehnat migrantlari salmog‘ining ko‘payishi bilan bog‘liq bo‘lib qoldi. Respublika bo‘yicha mehnat migrantlarini OIV-infeksiyasiga tekshiruv o‘tkazish va zararlanganlarni aniqlanish holatlarining tahlillari natijalariga asosan 2007 yil 17839 nafar kishi OIV-infeksiyasiga tekshirilganligi va ular o‘rtasida kasallanish 0,5% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2008 yilda 19833 nafar shaxs tekshiruvga qamrab olingan va ularda kasallanish holatlari 0,7% tashkil

etgan. 2009 yil OIV-infeksiyasiga 60278 nafar kishi tekshirilgan, kasallanish 0,2% kishilarda kuzatilgan, 2010 yilda 99528 nafar kishi tekshirilgan, ulardan 0,2% kasallik aniqlangan, 2011 yilda tekshirilgan 137630 nafar kishidan kasallik 0,1 % holatda qayd etilgan, 2012 yilda tekshirishga jalb etilgan 190562 nafar kishidan 0,1% kasallik holatlari kuzatilgan, 2013 yili 369993 nafar tekshiruvga olingan kishilardan 0,1% va 2014 yilda 606051 nafar tekshiriluvchidan 0,1% holatida OIV-infeksiyasi aniqlangan.

2018 yilda mehnat migrantlari orasida aniqlangan kasalliklarning jinslar bo'yicha solishtirma tahlili natijalari 75% holatlarda erkaklar va 25% ayollar tashkil etganligi aniqlandi.

Yuqish yo'llari bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra 89% jinsiy yo'l orqali, 8% parenteral yo'l bilan va 3% kasallikning yuqish yo'li noaniq, ya'ni yuqish yo'li aniqlanmagan holatlari kuzatildi.

OIV-infeksiyali mehnat migrantlarining yoshlari bo'yicha taqsimlanishini tahlil qilganimizda 25-29 yoshdagilar 17,8%, 30-39 yoshdagilar 45%, 40-49 yoshdagilar 23,8% va 50-59 yoshdagi kishilar esa 5,7% tashkil etganligi aniqlandi.

OIV-infeksiyali mehnat migrantlarining migratsiya paytidagi ish faoliyati bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijalari 25,3% yollanma ishchilar (mardikorlar), 23,2% quruvchilar, 20,7 % ishchilar, 6% sotuvchilar tashkil etganligini ko'rsatdi.

Mehnat migrantlari orasida OIV-infeksiyasi tarqalishining oldini olish maqsadida, OIV tarqalishiga qarshi kurashish chora-tadbirlarini muvofiqlashtiruvchi Respublika hay'atining 2013 yil 1-iyundagi "Chet elda uzoq vaqt bo'lgan Respublika fuqarolari orasida OIV-infeksiyasini aniqlash va oldini olish chora-tadbirlarini takomillashtirish to'g'risida"gi bayonnomasi asosida Sog'liqni saqlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi (IIV), Bojxona qo'mitasi, xotin-qizlar qo'mitasi, "Mahalla fondi" va boshqa vazirliklar bilan birgalikda "O'zbekiston Respublikasiga kirib keluvchi va chiqib ketuvchi O'zbekiston fuqarolarida OIV-infeksiyasini aniqlash va oldini olish tartibi" ishlab chiqilgan.

Oxirgi yillarda mehnat migrantlari orasida OIV-infeksiyasi tarqalishining oldini olish uchun davolash-profilaktika va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni samarali amalga oshirishda sanitariya-targ'ibot ishlarini ularning ko'proq to'planadigan joylarida (vokzallar, aeroportlar, avtobus shohbekatlari), turar joylarida, oila a'zolari o'rtasida va ishlash joylarida kuchaytirish o'ta muxim va dolzarb tadbir hisoblanadi.

Shunday qilib, hozirgi kunda XX-XI asr muammosiga aylangan OIV/OITS infeksiyasi epidemiologiyasi, profilaktikasi va epidemiologik nazorati xususiyatlarini chuqurroq va muntazam ravishda o'rganishni davom ettirish zamonamizning eng muhim vazifasi hisoblanadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar qilindi:

1. OIV-infeksiyasi tarqalishida aholining migratsiyasi muhim omillardan biri ekanligi aniqlandi.
2. Mehnat migrantlarining 45% 30-39 yoshdagilar tashkil etadi.
3. OIV-infeksiyasi 89% jinsiy yo‘l va 8% parenteral yo‘llar bilan tarqalganligi kuzatildi.
4. Mehnat migrantlari orasida aniqlangan OIV-infeksiyasining 75% holati erkaklarda, 25% ayollarda aniqlandi.
5. Mehnat migrantlari asosan mardikorlik (25,3%) va quruvchilik (23,2%) ishlari bilan shug‘ullanganligi aniqlandi.

## **NOINFEKSION KASALLIKLAR EPIDEMIOLOGIYASI. YURAK –QON TOMIR KASALLIKLARINING RIVOJLANISHIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR.**

**Saitmurodov M.A., Rasulov Sh.M.  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali**

Yurak qon tomir kasalliklariga bir kancha kasalliklar (yurak revmatik kasalliklari, yurak yetishmovchiligi, perikardit, endokardit, miokardit va boshqalar) kiradi. Ularning orasida ishemik va xafaqon kasalliklari 30-35 % ni tashkil etib, bu stenokardiya va o‘tkir infarkt miokardi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Hozirgi vaqtda yurak ishemik kasalligi (YuIK) butun dunyo mamlakatlarida mustaqil kasallik deb baholangan bulib, ateroskleroz tufayli yurak toj tomirlarining trombozi va torayishi sababli miokardning qon bilan ta’minlanishining buzulishi natijasida yuzaga keladi.

*Tadqiqotning maqsadi:* Noinfeksion kasalliklarni keltirib chiqaruvchi va rivojlanish mexanizmiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganishdan iborat.

*Materiallar va tadqiqot usullari:* Noinfeksion kasalliklarning paydo bo‘lish sabablari, tarqalish qonunyalari haqida ma’lumot yig‘ish, ularni baholash, taqqoslash va tahlil qilish shuningdek, professional fikrlash asosida kasallinish va o‘lim profilaktikasini ishlab chiqishda ratsional yondoshuvdan iboratdir.

O‘tgan asrning 60-yillarida JSST boshchiligida dunyoning turli mamlakatlarida yurak qon – tomir kasalliklarini rivojlantiruvchi xavfli omillarni aniqlash bo‘yicha bir qancha epidemiologik tadqiqotlar olib borilgan. Yurak ishemik kasalliklarini paydo qiluvchi xavfli omillar ikkiga bo‘linadi:

- Ijtimoiy omillar: Chekish, noto'g'ri ovqatlanish, gipodinamiya, psixoemotsional stress, depressiya, atrof muhit ifloslanishi.

- "Ichki" omillar: Ateroskleroz, arterial gipertoniya. Nasliy omillar.

Hozirgi zamonda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotiga qaraganda, yurak va o'pka kasalliklari, insult, saraton va diabet kabi noinfeksion dardlar har yili 16 million kishining bevaqt o'limiga sabab bo'lmoqda. U har bir mamlakat bunday xastaliklarga qarshi kurash uchun o'z oldiga aniq maqsadlar qo'yishi kerak degan fikrda. JSST mutaxassislarining ta'kidlashicha, chekish, nosog'lom ovqatlanish, kamharakatlilik va ichkilikbozlik kabi omillarni bartaraf etish yo'li bilan bevaqt o'limlarning oldini olish mumkin.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra, dunyoda har yili 6 millionga yaqin kishi chekish oqibatida kelib chiqadigan kasalliklardan vafot etmoqda. So'nggi vaqtda olib borilayotgan sa'y-harakatlar natijasida chekuvchilar sonini kamaytirishga erishilmoqda. 2000-2010 yillarda dunyoning 125 davlatida erkak chekuvchilar, 156 mamlakatida esa ayol chekuvchilar soni kamaygan. Ayni paytda dunyo bo'yicha katta yoshdagi aholining 78 foizi chekmaydi. 2025 yilga borib ularning soni 5 milliardga yetishi kutilmoqda. Bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 30 foizi yoki 2,1 milliarddan ortig'i ortiqcha vaznga ega yoxud semizlikka chalingan. Bu esa to'yib ovqat yemaydiganlar sonidan deyarli 2,5 baravar ko'proqdir. Endilikda semizlik o'lim holatlarining 5 foiziga sabab bo'lmoqda. Agar hozirgi vaziyat saqlanib qolsa, dunyoda katta yoshdagi aholining yarmi ortiqcha vaznli yoki semizlikka chalingan bo'ladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bosh direktori Margaret Chenning aytishicha, shu paytgacha birorta ham mamlakat semizlar sonini ortga qaytarishga muvaffaq bo'lmadi. Global epidemiya faqatgina rivojlangan mamlakatlarga xos emas. Iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlar qashshoqlikdan qutulishi bilan fuqarolari semira boshlamoqda. Hozir semiz kishilarning 60 foizdan ortig'i rivojlanayotgan mamlakatlarda yashamoqda: sanoatlashish va shaharlashuvning jadal tus olishi daromadlarning oshishiga, bu esa o'z navbatida iste'molning ortishiga olib kelmoqda. Masalan, Hindiston va Xitoy shaharlarida semizlik qishloqdagidan 3-4 baravar ko'proq uchraydi. Olimlar ortiqcha vazn bevaqt o'lim sabablaridan biri ekanini ta'kidlashmoqda. AQShdagi Vashington universiteti tomonidan besh yil davomida o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, zamonamizda odamlar ochlikdan emas, semizlikdan ko'proq o'layapti.

Oxirgi 20 yil mobaynidagi o‘lim statistikasini o‘rgangan olimlar o‘limga olib keluvchi sabablar orasida semizlik birinchi o‘ringa chiqqanini aniqlashdi. Oziq-ovqat mahsulotlari turining ko‘payishi odamlarning ko‘proq taom iste‘mol qilib, kamroq harakatlanishiga olib keldi. Oqibatda semizlik va gipertoniya chalingan bemorlar soni ortmoqda. Har yili dunyo bo‘yicha semizlik tufayli kelib chiqadigan xastaliklardan 3 millionga yaqin odam vafot etmoqda.

**Xulosa:** Hozirgi kunda profilaktik chora-tadbirlarning asosiysi bu medikamentlarsiz (dorilarsiz) profilaktikadir. Birinchi o‘rinda sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish, yurak qon tomir kasalliklari profilaktikasida katta ahamiyatga ega, ya’ni chekishdan, ortiqcha vazndan voz kechish, ratsional ovqatlanish, fizik faollikni oshirish, psixorelaksatsiya kabi tadbirlar asosiy o‘rinni egallashi kerak.

## **YUQUMLI KASALLIKLAR EPIDEMIYASIGA QARSHI CHORA – TADBIRLAR SXEMASI**

**Toshpo‘latov A.Y.**

### **Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali.**

Jahonda tibbiyotning turli yo‘nalishlari rivojlanishiga qaramasdan yuqumli kasalliklarning oldini olish, ularga qarshi kurashish va tugatishga asoslangan chora – tadbirlarning samarasi sezilarli darajada oqsayotganligi tibbiyot sohasidagilar uchun sir emas albatta.

Ushbu fikrimizning isboti o‘laroq butun dunyo tibbiyoti uchun og‘ir zarba bo‘lgan, 2019 – yilda boshlangan COVID – 19 pandemiyasini misol qilishimiz mumkin. Bundan tashqari aksariyat yuqumli kasalliklarning manbai, yuqish yo‘llari, moyil organizmlar aniq bo‘lishiga qaramay aholi orasida kasallanishlar dinamikasining yuqori ko‘rsatgichlari hamda epidemik avj olishlar uchrab turibdi.

**Tadqiqotning maqsadi:** Epidemik jarayon to‘g‘risidagi bilim va ko‘nikmalar mohiyatini nafaqat tibbiyot sohasidagilar, balki aholining barcha qatlamiga yetkazish.

**Kutilayotgan natijalar:** Ushbu tadqiqot natijasida davolash – profilaktika muassasalari, oliy o‘quv yurtlari va o‘rta ta’lim maktablari orasida integratsiyasi ta’minlanadi, natijada yuqumli kasalliklar bilan kasallanish soni kamaytiriladi.

Epidemik jarayon rivojlanishi uchun uchta shart bajarilishi kerak, bular: kasallik manbai, yuqish mexanizmi va moyil organizmlarning bo‘lishi.

Kasallik manbaiga ko‘ra yuqumli kasalliklar o‘z navbatida uch guruhga bo‘linadi: antropanozlar – kasallik manbai odam; zoonozlar –

kasallik manbai hayvonlar; sapronozlar – kasallik manbai tashqi muhit hamda oziq – ovqat mahsulotlari hisoblanadi.

Yuqish mexanizmlari – aerozol mexanizm: asosan nafas yo‘li infeksiyalariga taaluqli bo‘lib, qo‘zg‘atuvchining asosiy lokalizatsiyasi nafas olish organlari hisoblanadi; fekal – oral mexanizm: aksariyat ichak infeksiyalariga xos bo‘lib, qo‘zg‘atuvchi asosan alimentar yo‘l orqali organizmga tushadi; maishiy – muloqot mexanizm: qon orqali, jinsiy yo‘l bilan yuquvchi kasalliklar, yuqumli teri kasalliklari, kontakt guruhga kiruvchi kasalliklar va boshqalar kirib, qo‘zg‘atuvchilarning asosiy lokalizatsiyasi teri va shilliq qavatlar hisoblanadi; transmissiv mexanizm; qo‘zg‘atuvchilarning organizmga tushishida bo‘g‘imoyoqli hasharotlar bevosita ishtirok etadi, qo‘zg‘atuvchining lokalizatsiyasi qon hisoblanadi; vertikal mexanizm: kasallikning onadan homilaga yuqishi.

Moyil organizm: aholining barcha qatlami umumiy yuqumli kasalliklar uchun moyil hisoblanadi, ayrim yuqumli kasalliklar uchun esa xavf guruhlari sifatida – yosh bolalar, qariyalar, nogironlar, irsiy moyilligi bo‘lgan shaxslar, surunkali kasalligi bor kishilar hisoblanadi.

Epidemiyaga qarshi chora – tadbirlar epidemik jarayonni shu uch zvenosiga qaratilgan holatda, tizimli ravishda olib boriladi. Bular: kasallik manbaiga nisbatan – jamoadan alohidalash (gumon qilingan yuqumli kasallikning yashirin davrini hisobga olgan holda), aniq va ishonchli diagnostika qilish hamda asoratlarsiz davolash; yuqish mexanizmiga nisbatan – dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya hamda sterilizatsiya ishlarini samarali olib borish; moyil organizmga nisbatan – maxsus va nomaxsus (maxsus – immunoprofilaktika, nomaxsus – umumiy profilaktik va shaxsiy gigiyena) chora – tadbirlar kiradi.

**Xulosa:** Epidemik jarayonning zvenolari hamda epidemiyaga qarshi chora – tadbirlari to‘g‘risidagi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish nafaqat profilaktik balki davolash muassasalari tarkibidagi barcha tibbiyot xodimlarining kasbiy burchi hisoblanadi.

## **EXINOKOKKOZ VA UNING OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI**

**Toshpo‘latov A.Y., Rasulov Sh.M.**  
**Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali.**

Exinokokkoz dunyo bo‘yicha keng tarqalgan kasallikdir. Statistik ma‘lumotlar bo‘yicha eng ko‘p zararlanadigan aholi va hayvonlar janubiy mamlakatlar: Janubiy Amerika, Avstraliya va Yangi Zelandiya, Shimoliy Afrika, Janubiy Yevropa keyingilari AQShning janubiy qismi, Yaponiya, Xindiston va Rossiyadir. Ayniqsa chorvachilik rivojlangan barcha hududlarda – Shimoliy Kavkaz, Kazkazorti, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Moldovada kasallanish 100 ming aholiga 1,37 – 5,85ni tashkil etadi. O‘zbekistonda exinokokkoz bo‘yicha yiliga 1,5 mingdan ortiq jarrohlik amaliyotlari o‘tkaziladi. Eng ko‘p uchraydigan va diagnostika uchun qiyin bo‘ladigan parazitar kassaliklar ichida exinokokkozga o‘xshashi yo‘q.

**Tadqiqot maqsadi:** Exinokokkoz kasalligining tarqalganligini aniqlash va oldini olish chora-tadbirlarini takomillashtirish.

**Tadqiqot materiali va usuli:** Respublika DSENM parazitologiya bo‘limining rasmiy ma‘lumotlari va hisobotlari. Tadqiqot ishida epidemiologik va statistik usullardan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalari:** Respublikamiz bo‘yicha 1991 yili 455 nafar aniqlangan bo‘lib, 100000 aholiga nisbatan (1,8) ni tashkil qilgan, 1996 yili 370 (1,6), 2001 yili 1252 (5,0), 2006 yili 1518 (5,73), 2011 yili 1540 (5,7), 2016 yili 782 (2,5) ro‘yxatga olingan. Jami shu yillarda ro‘yxatga olingan kasallanganlarning eng ko‘pi Buxoro, Qashqadaryo, Farg‘ona, Surxondaryo viloyatlariga to‘g‘ri keldi, Namangan, Samarqand, viloyatlarida o‘rtacha, Sirdaryo, Navoiy, Andijon viloyatlarida esa eng kam kasallanish ko‘rsatkichlari qayd etilgan.

Exinokokkozning tarqalishida muhim epidemiologik omil aholining zichligi va uy hayvonlarining ko‘pligidir. Aholi zich joylashgan hududlarda zararlanish ko‘rsatkichi 30-150 va undan ko‘proqqa yetadi. Exinokokkozning uy bekalari orasida tarqalishi ko‘paymoqda. Chunki ayollar uy hayvonlarini parvarish qilishda va ovqat tayyorlash vaqtida shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilmasligi natijasida kasallikni yuqtirib oladi.

Exinokokkoz bilan kasallanishning oldini olishda quydagi tadbirlarni amalga oshirish kerak:

1. Xizmatchi va xonaki itlarni exinokokkozga tekshirish. Exinokokkoz aniqlangan hayvonlarni davolash, daydi itlarni esa yo‘qotish;

2. Mollar so'yilishi ustidan veterinariya - sanitariya nazoratini kuchaytirish, exinokokk pufakchalari topilgan hayvonlar ichki organlarini yo'qotish;

3. Itlarni exinokokk pufakchalari bo'lgan jigar, o'pka kabi go'sht mahsulotlari bilan ovqatlantirmaslik. Itlar bilan bo'lgan muloqotdan so'ng qo'llarni yaxshilab sovunlab yuvish kerak;

4. Odamlarda aniqlangan exinokokkoz holatlarini epidemiologik tekshiruvdan o'tkazish va kasallik manbalarini aniqlash.

**Xulosa:** Aholini hayot va mehnat sharoitlarini to'g'ri tashkil qilish.

Sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash, sanitariya-oqartiruv ishlarini o'tkazish bu ko'rsatkichlarni pasayishiga yordam beradi.

O'zbekistonda exinokokkoz bo'yicha epidemiologik holat yetarli darajada o'rganilmaganligicha qolmoqda. Exinokokkozning zamonaviy epidemiologik xususiyatlarini o'rganish respublikada keyingi ilmiy izlanishlarni talab qiladi. Yuqorida qayd qilingan ma'lumotlar exinokokkozning epidemiologik xususiyatlarini o'rganishni taqozo qiladi.

**AHOLINING TO'G'RI OVQATLANISHIDA SABZAVOT VA  
POLIZ MAHSULOTLARINING TUTGAN O'RNI**  
**Turabayeva Z.K., Rasulov Sh.M., Djuraeva M.E.**  
**Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali.**

Mavzuning dolzarbligi. Sabzavot va poliz mahsulotlari – o'ziga xos o'simlik mahsulotlarining eng shirali, ozuqali va ta'm beruvchi mahsulot turiga taalluqlidir. O'zbekiston qishloq xo'jaligi rivojlangan davlat hisoblanib, aholining asosiy qismi qishloq joylarda yashashini hisobga olgan holda qishloq xo'jaligida mehnat sharoitini yaxshilash maqsadida, davlat tomonidan mustaqillik yillarida shoshilinch tadbirlar ko'rika boshlangan.

O'zbekistonda iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishi, ichki yalpi mahsulotlarning o'sish suratlari 1998-2003y o'rtacha 4%dan 2004y 7,7%ga oshganligiga qaramasdan, Yevropa va Markaziy Osiyoda reproduktiv yoshdagi ayollar (60% va undan ortiq) va 5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida (61%) kamqonlikning tarqalishi bo'yicha, ayniqsa qishloq aholisi orasida yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. 5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida vitamin A tanqisligi 53,1%ni tashkil etadi. Bolalar orasida mikroelement yetishmovchiligi 12 va 23 oylik davrida o'z cho'qqisiga yetadi. Shulardan 70% bolalar temir tanqisligi kamqonlik holatiga duchor, vitamin A tanqisligiga esa shu guruh yoshlarda o'z cho'qqisiga yetadi va tarqalishi 60% dan yuqorini tashkil etadi. O'zbekistonda ortiqcha vazn va semirish tobora keng tarqalmoqda, bu industrializatsiya o'sishi va

urbanizatsiya natijasida ovqatlanish tartibi va turmush tarzining o'zgarishi bilan bog'liqdir. Ovqatlanish strukturasi o'zgarib, yog', ayniqsa hayvon yog'i va oson o'zlashtiriladigan uglevodlar ko'p bo'lgan mahsulotlarni iste'mol qilish oshdi. Ortiqcha vazn va semirish turli surunkali kasalliklarni, xususan qon bosimining oshishi, yurak ishemiya kasalligi, qon aylanishining buzulishi va saraton kasalliklarining kelib chiqishidagi yetakchi xavfli omil bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarning (2005 y.) ko'rsatishicha, O'zbekiston Respublikasi aholisi orasida surunkali noinfeksion kasalliklarning asosiy omili bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- o'simlik yog'larini me'yorida ortiq iste'mol qilish;
- sabzavot va poliz mahsulotlarini, meva va ko'katlarni kam iste'mol qilishi;

2000 va 2007 yillarda JSST tomonidan ovqatlanish va ovqat mahsulotlarini xavfsizligini Yevropa regionini uchun amalga oshirish siyosatini tadbiq etish bo'yicha birinchi va ikkinchi rejalari rezolyusiyasi qabul qilingan bo'lib, ular bizning mamlakatimizda xam qo'llash uchun qabul qilingan. U yerda olam axli ovqatlanishi bilan bog'liq kasalliklarni kamaytirish va sog'lom ovqatlanish bo'yicha milliy rejalarni qabul qilishni o'ziga maqsad qilib belgilaganligi aloxida ta'kidlanadi.

Xulosa:

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, o'rta yer dengizi mahsulotlari parhezini 65 yoshdan oshgan odamlarda erta o'lim xavfini kamaytiradi. Bunday xulosaga Ispaniyaning Barselona universiteti olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlari natijasi asos bo'ldi. Olimlar 20 yil davomida 65 yoshdan oshgan 642 nafar ko'ngillining hayot tarzini kuzatib borishdi. Ishtirokchilarning ovqatlanishini baholash uchun tadqiqotchilar peshob va qondagi polifenollar, selen, B12 vitamini, yog' kislotalari va boshqa moddalar miqdorini o'lchab borishdi. Tadqiqot davomida 425 ishtirokchi vafot etdi. Ulardan 139 nafari yurak-qon tomir, 89 nafari saraton kasalligidan hayotdan ko'z yumdi. Bundan tashqari, O'rta yer dengizi parheziga qat'iy rioya qilgan ishtirokchilarda, barcha sabablarga ko'ra o'lim xavfi past bo'lgan. Olimlar avvalroq O'rta yer dengizi parhezining uzoq umr ko'rish va umumiy salomatlik uchun foydasi haqida ma'lumot berishgan edi. Biroq, o'shanda bu fikrlar asosan hisobotlarga asoslangan edi. Bu safar esa uning foydasi obyektiv baholandi. Bundan tashqari sog'ligimiz to'g'ridan to'g'ri qanday ovqatlanishimizga bog'liqligi hech kim uchun sir emas. Oziq-ovqat mahsulotlaridan qaysinisi foydaliroq ekanligini bilasizmi? Uzoq yillar sog'lom va tetik bo'lib qolish uchun muntazam ravishda nimalarni iste'mol qilish kerak? Dunyodagi tetiklik, uzoq umr ko'rish va sog'lom bo'lish garovi bo'lgan o'nta eng foydali mahsulotlarga quyidagilar kiradi: olma, loviya, losos, brokkoli, anor suvi, yogurt, sarimsoq, tuxum, rezavorlar va yong'oqlar. Har bir insonga salomatlikdan ko'ra muhim, sog'liqdan ko'ra ko'proq e'tibor beriladigan narsaning o'zi yo'q. Shuning uchun kishilar xastaliklardan saqlanish, salomatliklarini asrash va mustahkamlash uchun kuch-g'ayrat, mablag' va vaqtni ayashmaydi. Bunda turli muolaja usullari, sport va badantarbiya mashqlaridan ham, Alloh yaratib qo'ygan turli shifobaxsh ne'matlarni iste'mol qilishdan ham, tez-tez shifokor va tabiblar qabulida bo'lib, ulardan maslahat va tavsiya olib turishdan ham erinishmaydi. Insonlarning sog'lom, tana a'zolari butun yaratilgani ham Parvardigorning ularga ato etgan ne'matlaridandir. Insonlar barcha narsada bo'lgani kabi kasallikdan tezroq tuzalishda, dardlariga shifo izlashda hamisha Alloh taolaga muhtojdirlar. Alloh taolo bunday marhamat etadi: "Ey insonlar! Sizlar Allohga muhtojdirlar. Alloh esa, albatta, G'aniy (behojat) va Hamid (hamdga loyiq Zot)dir". Bular bejizga emas. Hayot shirin, salomat umrguzaronlik qilish undan ham shirin. Baxtli-saodatli turmush kechirish uchun esa insonga avvalo sog'lik kerak. Rivoyat qilinishicha, Payg'ambarimizning amakilari Abbos (roziyallohu anhu) Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam)dan duo o'rgatishni so'raganlarida, Payg'ambarimiz: "Allohdan afv va ofiyat tilagin. Zero, U hech kimga qat'iy imon-ishonchdan keyin ofiyatdan ko'ra afzalroq ne'mat ato etmagan", degan ekanlar. Ofiyat bu – tanimiz sog'ligi, rizqimiz mo'lligi va turli xavf-xatarlardan omonlikdir. Lekin salomatlik, boyluk va

ofiyatning qadri ko‘pincha ular o‘rtadan ko‘tarilgandan so‘ng bilinadi. O‘z vaqtida sihat-salomatligimizning qadriga yetib xayrli amallar qila olmaymiz, ibodatlarimizni mukammal qila olmaymiz. Boylik kelgan vaqtda uning shukrini ado qilish o‘rniga, kibr va manmanlik otiga minamiz. Nabiy (alayhissalom) aytganlaridek: “Ikki buyuk ne‘mat borki, ko‘p odamlar ular borasida aldanib, chuv tushib qoladilar. Ular: sihat-salomatlik va bo‘sh vaqtdir”. Shuningdek, ko‘plab hadislarda har bir inson o‘z tana a‘zolari salomatligi yo‘lida qayg‘urishi lozimligi alohida ta’kidlangan. Bundan ko‘rinib turibdiki, kasalliklarning kelib chiqish sababi ko‘p bo‘lsa-da, uning asli faqat bir mohiyatga borib taqaladi. Alloh taolo bandalarini vaqti-vaqti bilan, ba‘zilarni esa bir umrga turli xastaliklar, a‘zolarining mayib-majruhligi yoki yetishmovchiligi bilan imtihon qilib turadi. Ayniqsa O‘zi suygan bandalariga dard va xastalikni, og‘riq va bemorlikni ko‘proq beradi. Rasululloh (alayhissalom) marhamat qilib aytadilar: “Alloh kimgaki yaxshilikni istasa, unga musibat beradi”. Yana bir rivoyatda: “Mo‘minga nimaiki kasallik, mashaqqat, tashvish, qayg‘u va ozor yetsa, hatto unga tikan kirsam ham, albatta, Alloh shu sababli uning gunohlarini o‘chiradi (Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyati). Ushbu rivoyatlardan bizlarga yetadigan kasalliklar mutlaq zarar emas, balki foydamizga bo‘lishi ochiq-oydindir. Chunki kasallik tufayli musulmon kishi o‘zining ojizu notavon bir banda ekanligi, har lahzada Allohning inoyatiga muhtoj ekani yodiga tushadi. Allohga iltijo qilib, shifo va yengillik so‘raydi. Sabr qiladi. Natijada ko‘p yaxshiliklarga erishadi. Shunday ekan biror kasallikka chalingan kishilar ranjimasdan, jazavaga tushmasdan buni Allohning sinovi va ne‘mati deb bilishlari maqsadga muvofiqdir. Gigiyena qoidalariga rioya qilish orqali oilangizni ko‘pgina kasalliklardan himoya qilishingiz hamda kasalliklarni oldini olishingiz mumkin. Gigiyena qoidalariga rioya qilish oilangizni diareya (ichketar) yoki oshqozon-ichak kasalliklaridan, har xil iflos va yomon mikroblarning organizmga tushishning oldini olish orqali himoya qiladi. Gigiyena, kasalliklarni keltirib chiqaruvchi mikroblarni bartaraf etish orqali, gripp, gepatit va boshqa har xil yuqumli kasalliklarning bir odamdan boshqasiga o‘tishining oldini oladi. Toza qo‘llar salomatlik uchun muhimdir. Qo‘llaringizni tez-tez yuvib tursangiz, qo‘llaringizdan og‘zingizga tushgan mikroblarni yutib yuborib, kasal bo‘lishdan saqlanishingiz mumkin.

**Natijalar:** O‘zingiz va bolalaringiz qo‘llari kir bo‘lganida ularni yuvishingiz muhim ahamiyatga egadir, ayniqsa quyidagi hollarda:

- Ovqat tayyorlashdan oldin.
- Ovqat yeyish yoki bolani ovqatlantirishdan oldin.
- Xojatdan so‘ng.

• Ahlat qilib qo‘ygan bolani tozalash yoki yuvintirishdan so‘ng. Toza ichimlik suvi salomatlik uchun muhimdir siz, toza, qaynatilgan suvni ichishingiz lozim Hech qachon vodoprovod, ariq yoki daryodan tug‘ridan-tug‘ri suv ichmang, bunday suvda sizni kasal qilishi mumkin bo‘lgan mikroblar juda ko‘p bo‘ladi. Suvni ichishdan oldin, har doim undagi mikroblarni o‘ldirish uchun, suvni 15-20 daqiqa davomida qaynating. Qaynatilgan suvni ichish sog‘liq uchun havflidir. Toza va yangi oziq-ovqat salomatlik uchun muhimdir Oziq-ovqatni muzlatgich kabi muzdek joyda saqlash maqsadga muvofiqdir. Salqin joyda saqlangan oziq-ovqatlar uzoqroq vaqt davomida buzilmasdan turadi. Shuningdek oziq-ovqat ustini yopish va pashshalardan himoya qilish

lozimdir. Siz, toza, qaynatilgan suvni ichishingiz lozim Pashshalar bir joydan boshqa joyga uchib, har xil iflos narsalarni tashish orqali juda ko‘p havfli kasalliklarni tarqatadilar. Ular axlat yoki iflos narsalarga qo‘nganlarida, bu narsalarni oyoqlariga yopishtirib oladilar, keyinchalik ovqatimizga qo‘nganlarida esa, axlat va iflosni u yerda qoldiradilar. Pashshalar ovqatga qo‘nib, uni ifloslaydilar, bu esa diareya (ichketar) kabi kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Barcha meva va sabzavotlarni iste‘mol qilishdan oldin, ularni toza, qaynatilgan suvda yuving, hatto ularni pishirmoqchi bo‘lsangiz ham. Hamma narsani, hatto daraxtdan uzilgan mevalarni ham iste‘mol qilishdan oldin yuvish lozim. Go‘shetni yaxshilab pishiring. Yaxshi pishirilmagan go‘sh, baliq yoki parranda go‘shini yeyish sog‘liq uchun zararlidir, bu sizni qattiq kasal qilishi mumkin. Go‘shda chala pishgan yoki qonli joylari bo‘lmasligi lozim. Oziq-ovqatlarni it va mushuk kabi uy hayvonlaridan saqlang. Hayvonlar ifloslagan ovqatlarni yeyish sog‘liq uchun zararlidir. Uyni toza tutish salomatlik uchun muhimdir Bolalaringizni xojatxona yoki bolalar gorshogidan (tuvagidan) foydalanishga o‘rgating hamda tuvakni har doim xojatxonaga bo‘shating. Hovlida axlat va iflos narsalar bo‘lmasa, u yerda zararkunanda xasharot va kemiruvchilar kamroq bo‘ladi va bolalaringiz ular bilan aloqada bo‘lishi ehtimoli kamroq bo‘ladi uyingizni toza tuting Uyingizda pashsha, suvarak, sichqon, kalamush kabi zararkunandalar kasallik tarqatadilar. Pashsha va suvuraklar iflos narsalarni oyoqlarida tashiydilar. Sichqon va kalamushlar esa, tanalarida odamlarga yuqishi mumkin bo‘lgan kasalliklarni tashiydilar. Oziq-ovqatlaringiz ustini yaxshilab yopib qo‘ysangiz. Ularni bunday zararkunandalardan himoya qilgan bo‘lasiz. Yodingizda tuting, tozalik oilangizni kasalliklardan himoya qilishi mumkin: • Qo‘llaringizni tez-tez, sovunlab yuvib turing. • Suvni ichishdan oldin 15-20 daqiqa davomida qaynating. • Meva va sabzavotlarni iste‘mol qilishdan oldin yuving. • Qolgan ovqatlarni salqin joylarda usti yopiq holda saqlang

**Xulosa.**

Xulosa qilib aytganda, uzoq umr ko‘rish uchun alloxdan uzoq umr so‘rang va sog‘lom turmush tarziga amal qiling

## **GIPERTONIYA KASALLIGINING PROFILAKTIKASI.**

**Tillaxadjayeva G. B.**

**Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti.**

**Anotatsiya:** Tezida gipertaniya kasalligi ( birlamchi (essensial) arterial gipertoniya, idiopatik arterial gipertoniya — odamlarda ko‘p uchraydigan (75% gacha) arterial qon bosimining oshishi kasalligidir. Sabablari: turli o‘tkir yoki surunkali ruhiy (emotsional) iztiroblar, irsiy yoki kasbiy omillar, ovqatlanish tartibiga rioya qilmaslik va boshqalar) nima ekanligi kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish chora tadbirlari. Birlamchi va ikkilamchi profilaktik tibbiyot hamda gipertoniya girudoterapiyaning gipertoniya qo‘llanishi va uning foydalari xaqida ma‘lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Gipertoniya, birlamchi profilaktika, ikkilamchi profilaktika, girudoterapiya, arteriyal gipertoniya, idiopatik arterial gipertoniya.

**Kirish.** Gipertoniya kasalligi, birlamchi (essensial) arterial gipertoniya, idiopatik arterial gipertoniya — odamlarda ko‘p uchraydigan (75% gacha) arterial qon bosimining oshishi kasalligidir. Sabablari: turli o‘tkir yoki surunkali ruhiy (emotsional) iztiroblar, irsiy yoki kasbiy omillar, ovqatlanish tartibiga rioya qilmaslik va boshqalar.

Gipertoniya kasalligi, klinik kechishiga qarab ikki xil bo‘ladi: 1) sokin, uzoq muddat davom etadigan va 2) shiddatli, tez rivojlanadigan va qisqa vaqt ichida bosh miya, buyrak yetishmovchiligi hamda ko‘rishning keskin pasayishiga olib keladigan shakl.

Kasallikning rivojlanish sababi uzoq vaqt davomida stress va tushkunlik holatida yurish, tez-tez psixologik zo‘riqshlardir. Ko‘pincha bularni doimiy emotsional taranglikni talab etadigan ish faoliyati keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, miya chayqalishiga uchragan bemorlarda ham kasallik rivojlanishi xavfi yuqori bo‘ladi. Irsiy moyillik ham sabablar qatorida: agar kishining avlodida bu kasallik uchragan bo‘lsa, unda ham ushbu kasallik rivojlanishi xavfi bir necha barobarga ortadi.

Kasallik rivojlanishiga ta‘sir o‘tkazuvchi omillardan asosiysi — bu kamharakat turmush tarzidir. Yosh o‘tib borgani sari insonlarda ateroskleroz rivojlanishi mumkin, bu o‘zgarish fonida qon bosimining oshishi esa vaziyatni yanada jiddiylashtirib yuboradi. Bu hayot uchun o‘ta xavfli hisoblanadi, chunki toraygan qon tomirlar orqali miya, yurak, buyraklarning bir qismiga qonning bormay qolishi yoki yetarli bormasligi kuzatiladi. Agar qon tomir devorlarida tromb va xolesterin to‘planmalari

bo'lsa, ular kuchli bosim vaqtida ajralib, kapillyar qon tomirlarda tiqilib, qon o'tishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Bu holda miokard infarkti yoki insult yuzaga keladi. Ayollarda qon bosimi oshishiga sabab menopauza davridagi gormonal o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Tuz, yoki aniqrog'i, unda mavjud natriy, shuningdek chekish, alkogolli ichimliklarni suiste'mol qilish, semizlik ham yurak-tomir tizimiga bosim o'tkazadi.

**Tadqiqot maqsadi:** Farg'ona viloyatida gipertoniya bilan kasallangan bemorlarda girudoterapiyadan foydalanib shoshilinch davolashni amalga oshirish, gipertoniya kasalligini birlamchi va ikkilamchi profilaktika aspektlarini o'rganish.

**Taxlillar va natijalar:** Gipertoniya rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat: Ortiqcha vazn, metabolik kasalliklar, endokrin kasalliklar, kamharakat turmush tarzi; Muntazam emotsional stresslar, ruhiy tushkunlik, fojeali voqealarni boshdan o'tkazish, yaqin insonlarni yo'qotish; Biznesdagi, ishdagi muammolar tufayli kuchli asabiy taranglik;

Bosh miya jarohatlari (avtohalokat, yiqilish, gipotermiya); Yurak-tomir tizimiga salbiy ta'siri bor surunkali kasalliklari (qandli diabet, podagra, revmatoid artrit); Irsiy moyillik; Virusli va yuqumli kasalliklar (meningit, sinusit, gaymorit); Qon tomirlarida yosh bilan bog'liq o'zgarishlar;

Qonda xolesterin miqdorining yuqori bo'lishi, natijada qon tomir devorlarida to'planmalar hosil bo'ladi; Menopauza davrida bo'lgan, 40 yoshdan o'tgan ayollar (organizmning muhim gormonal o'zgarishlari paytida ko'pincha yashirin kasalliklar rivojlana boshlaydi va ular gipertoniya rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin); Zararli odatlar (chekish, alkogolli ichimliklar ichish, me'yordan ortiq qahva iste'mol qilish); Kun davomida ko'p miqdorda tuz iste'mol qilish; Qonda adrenalinning oshirish; Kompyuter qarshisida uzoq vaqt o'tirish;

Ochiq havoda kam yurish va hokazo.

Zamonaviy tibbiyot arterial gipertoniyaning 3 bosqichini farqlanadi:

1 bosqich — Qon bosimi 140-159 / 90-99 mm sim.ust oralig'ida bo'ladi. Qon bosimi vaqti-vaqti bilan me'yorga kelishi va yana ko'tarilishi mumkin;

2-bosqich— Qon bosimi 160-179 / 100-109 mm sim.ust oralig'ida. Arterial qon bosimi tez-tez ko'tarilib turadi va kam hollarda me'yorga tushadi.

3 bosqich— bosim 180/110 mm sim.ust. dan yuqori ko'tariladi. Bosim doimiy ravishda yuqori bo'ladi va uning pasayishi yurak kasalliklari tufayli yuzaga keladi.

Gipertoniya kasalligini oldini olishda birlamchi va ikkilanchi profilaktikadan foydalaniladi.

Gipertoniyaning birlamchi profilaktikasi:

Normal tana vaznini saqlab turish

Tuzni cheklash

Chekish va alkogolni istisno qilish

Jismoniy va asabiy zo'riqishlardan qochish

Gipodinamiyaning oldini olishh

Surunkali kasalliklarni davolash

Gipertoniyaning ikkilamchi profilaktikasi:

Antigipertenziv preparatlarni tanlash

Qo'llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar kompleksi

Girudoterapiya

Girudoterapiya (lotincha hirudo — zuluk, therapeia — davolash, davolash) — zuluk yordamida odamni davolash usulidir. Tibbiyotda ming yillardan beri ma'lum. Bu tibbiyotning eng qadimiy usullaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda zuluklar bilan davolash zamonaviy tibbiyotda keng ommalashmoqda. Zuluklar maxsus biologik fermentlar ishlab chiqaradi. Bu zuluklar steril hisoblanadi. U bemorning tanasiga turli xil infeksiyalarni yuqtira olmaydi. Har bir zuluk faqat bir marta ishlatiladi. Bundan tashqari, zuluk kasallikni his qilish hususiyatlariga qodir.

U faqat haqiqatan ham kasallangan a'zo yoki kasallangan hudud bilan ishlaydi. Zuluklarning terapevtik ta'siri inson tanasiga kirgan so'lak bezlarining sekretsiyasi xususiyatlari bilan belgilanadi. Zuluk terini tishlaydi va tanasi qon bilan to'lgunga qadar qon surishda davom etadi. Zuluk so'lagi tarkibida quydagi moddalar mavjud: gialuronidaza, hirudin, bdellinlar, aeglinlar, destabilaza kompleksi (tabiiy liposoma) va boshqalar. Bundan tashqari, zuluk so'laklari antibakterial ta'sirga ham ega. Zuluklar yordamida yurak-qon tomir tizimining turli kasalliklarini, turli teri kasalliklar, urologik kasalliklar va ginekologik kalasalliklarni oldini olishga erishishimiz mumkin.

Bugungi kunda butun dunyoda zuluklar bilan davolashga qiziqishning ortishi kuzatilmoqda. Zuluklardan foydalanish bo'yicha birinchi batafsil tavsiyalar Abu Ali Ibn Sino (Avitsenna) tomonidan berilgan.[1] 19-asr oxirida J. Haykraft (1884) zulukning qon ivishining oldini oluvchi faol

ekstrakt hirudinni zuluk so'lagi tarkibidan aniqladi. [2]. Hozirgi vaqtda hirudoterapiya qo'shimcha tibbiyot usuli sifatida foydalaniladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.**

1. Абу Али Ибн Сино. Канон врачебной науки: в 10 т.Т. 1. Т.: Издательство мед. лит. им. Абу Али Ибн Сино, 1996. 539 с. [Abu Ali Ibn Sino. Canon of medical science: in 10 tons.T. 1. T.: Publishing house med. lit. them. Abu Ali Ibn Sino, 1996. 539 p. In Russian]
2. Haycraft JH. On the action of secretion obtained from the medicinal leech on the coagulation of the blood. Proc Res Soc. London. 1884;36:478–487.
3. Использование метода гирудотерапии в практическом здравоохранении: методические рекомендации.М.: Министерство здравоохранения Российской Федерации, 2002. 78 с. [Leech therapy in practical medicine: guidelines.M.: Ministry of Healthcare, 2002. 78 p. In Russian].
4. Чирин А.С. Артериальная гипертензия как социально-значимая проблема современной России ГБОУ ВПО Саратовский ГМУ им. В.И. Разумовского Минздрава России
5. Алипова, О. Є., Дмитриєва, С. М., Кузнецова, Л. П., Васильченко О. Ю., Проценко, Н. М., Пузик, С. Г., & Гришина, Н. І. (2019). Геронтологические аспекты лечения и реабилитatsii больных гипертонической болезнью в практике первичной медико-санитарной помощи. *Семейная медицина,*
6. Pokroviskiyning "kichik tibbiy ensklopediya"  
- 1991. - Т. 1. - В. 358-359.

## **ПРОФИЛАКТИКА ХРОНИЧЕСКИХ ГИНЕКОЛОГИЧЕСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ У ЖЕНЩИН: ПСИХОФИЗИЧЕСКИЕ И КОРРЕЛЯЦИОННЫЕ АСПЕКТЫ**

**Абдуллаева Г.А., Тоиржонова С.С., Рузибаева Ё. Р**  
**Ферганский медицинский институт общественного здоровья**

**Актуальность.** Хронические воспалительные заболевания внутренних половых органов на современном этапе занимают ведущее место в структуре гинекологической патологии и оказывают выраженное неблагоприятное воздействие как на репродуктивную функцию женщин, так и на другие стороны психофизического здоровья [1, 2]. Отмечаемый в последнее время во многих странах мира рост числа и «омоложение» воспалительных заболеваний половых органов, переходящие в 20-25% случаев в хронический патологический процесс, являются причиной не только бесплодия, не вынашивания беременности, но и снижения качества жизни пациенток из-за возникающего физического и психологического дискомфорта вследствие формирования хронического болевого синдрома (синдром тазовых болей), нарушения функций кишечника (запоры, геморроидальные узлы), снижения иммунорезистентности и физической активности [1,3]. Гинекологические патологии отличаются многообразием этиологических факторов и сложностью патогенеза, в следствие чего, существенно осложняется процесс их лечения и восстановления: эффективность лечебно-профилактических мероприятий составляет не более 50% [4]. В практике современного акушерства и гинекологии женщин с хроническими воспалительными заболеваниями органов малого таза относят к группе высокого риска не только по развитию экстрагенитальных (заболевания желудочно-кишечного тракта, мочевыделительной системы и опорно-двигательного аппарата) и гинекологических (доброкачественные опухоли яичников, гиперпластические процессы эндометрия и др.) заболеваний, но и по развитию психоэмоциональных расстройств, социальной дезадаптированности и отягощению семейного анамнеза. Отдельные исследования указывают на то, что в целом психофизический статус женщин с хроническими воспалительными гинекологическими заболеваниями характеризуется депрессиями, раздражительностью, гневливостью и склонностью к скандалам, нарушением сна и сниженным вниманием, дискомфортом в урогенетальной зоне, общей слабостью и вегето-сосудистой дистонией [3, 4]

**Цель.** Эффективное решение проблемы гинекологической заболеваемости является одним из неперенных условий

воспроизводства здоровых поколений, а также сохранения здоровья семьи в целом. На пути решения проблемы восстановления репродуктивного здоровья своевременность и эффективность оказания лечебной и коррекционной помощи выступает на первое место. К сожалению, в клинической практике доминирующими выступают биомедицинские аспекты гинекологических патологий. Несколько в меньшей степени реализуются возможности коррекционных методов и, особенно, в области психофизической реабилитации на стационарном этапе лечения. Актуальность последнего тем более высока, что в условиях длительного противовоспалительного, гормонального и физиотерапевтического лечения у пациенток формируется эмоциональная резистентность к дальнейшим лечебным мероприятиям, повышается фон нервно-психической нагрузки, возрастает риск развития сексуальной дисфункции и внутрисемейной напряженности [8, 9]. Создаётся порочный круг, усугубляющий ситуацию и снижающий процесс излечения. Кроме того, требуют более пристального внимания и вопросы мониторинга уровня психофизического здоровья данной категории женщин, оценки адаптационных возможностей организма, активного содействия медперсонала и пациенток к привлечению использования немедикаментозных восстановительных средств и физической культуры, в частности.

**Материалы и методы.** Установлено, что наличие депрессии и тревоги снижают качество жизни, в этой связи решение проблемы преодоления психодезадаптационных синдромов представляется перспективным подходом для достижения высокого качества жизни. Психология здоровья на современном этапе эффективно дополняет классическую медицину в плане формирования более ответственного отношения людей к своему здоровью.

Введение в алгоритм лечебно-профилактических мероприятий на стационарном этапе лечения женщин с гинекологическими заболеваниями коррекционного комплекса лечебной гимнастики способствовало росту общего уровня качества жизни женщин. При этом существенно возросли показатели физического функционирования (на 26%), эмоционального и психологического здоровья (на 22% и 29% соответственно) по сравнению с до лечебным периодом. В группе, в которой использовался цикл физических упражнений с элементами вербальной релаксации, было отмечено более устойчивое повышение психоэмоционального фона, что выразилось в росте эмоционального функционирования и психологического здоровья (на 33% и 50% соответственно). Качество жизни женщин, проходивших курс только медикаментозной терапии,

практически соответствовало уровню, отмеченному до начала лечения.

В до лечебный период регулярно посещали различные спортивные и физкультурные занятия только 20% опрошенных женщин, 80% – занимались физической культурой время от времени или совсем не занимались. При беседе было отмечено, что преимущественно все женщины (90%) осознают необходимость формирования и поддержания на должном уровне своей физической активности, поддержание и ведение здорового образа жизни, и лишь 7% – прислушиваются к мнению врача и задумываются об изменении стиля жизни только в период обострения заболевания, 3% – не видят смысла на данном этапе своей жизни в поддержании здоровья и хорошей физической форме.

Превалирование парасимпатикотонических влияний, в целом, характеризуется комплексом трофотропных изменений: понижение общего уровня основного обмена, объема циркулирующей крови и кровоснабжения, снижение мышечной деятельности и активности органов чувств и мышления, повышение порога раздражимости и интровертированности. Данные процессы существенно изменяют энергопотенциал организма и, как следствие, снижают его адаптационные возможности и стрессоустойчивость [12]. Нервная, иммунная и эндокринная системы являются составными частями общей системы адаптации. В результате стресс-индуцированных перестроек данных систем возникает генерализованное влияние психопатологических проявлений на физиологический гомеостаз всего организма женщины и особенно ее репродуктивной системы [13]. Психическая адаптация является результатом целостной самоуправляемой системы, ее изменение свидетельствует об изменениях функционирования всего организма.

Активизация внутренних механизмов саморегуляции, самосохранения и внутренней самососредоточенности через систему упражнений йоги, дыхательных и релаксационных способствовала более выраженной динамике эффективных изменений в состоянии психофизического здоровья. Перестройка на адренергический характер регуляции, осуществляемая в период выполнения данной психофизической деятельности, индуцирует последующий более полновесный этап анаболического покоя и соответствующий ему уровень холинергического гомеостаза. Последнее, в свою очередь, способствует росту энергопотенциала организма и улучшению психоэмоциональной составляющей здоровья [12]. В частности, прирост адаптационного потенциала у женщин комплексной группы по окончании коррекционной программы в среднем составил 28% по сравнению с 18% в группе получавшей только медикаментозное

лечение. Мотивационная сфера и самочувствие также существенно улучшились у женщин из комплексных групп после окончания применения лечебной гимнастики: в среднем на 30% по сравнению с группами консервативного лечения.

### **Вывод.**

1. Хроническое течение воспалительных заболеваний в половых органах инициирует значительное изменение качества жизни женщин, переводя функционирование организма на дезадаптивный уровень. Качественной стороной последнего выступает выраженное проявление вегетативного дисбаланса в ведущих системах организма с эмоциональными изменениями в виде гипотомических и тревожно-депрессивных реакций. Данные диссоциативные проявления в большинстве своём не носят пролонгированного характера, но вместе с тем выступают фактором риска стойких психофизических расстройств.

2. Использование комплекса физических упражнений в лечебно-восстановительном алгоритме пациенток с хроническими гинекологическими заболеваниями уже на стационарном этапе изменяет качество жизни женщин в позитивную сторону и снижает уровень психогенной тревожности, благоприятно влияет на нормализацию физиологических механизмов функциональной соматической регуляции, что ускоряет восстановительные процессы и выздоровление в целом.

3. Вовлечение в среду физической жизни способствует формированию у женщин с гинекологическими патологиями элементарных навыков физической активности, росту уровня их общей физической подготовленности и формированию побудительных мотивов к дальнейшему активному включению в среду физкультурных занятий и соблюдению здорового образа жизни.

### **Литература:**

1. Кулаков, В.И. Репродуктивное здоровье населения России / В.И. Кулаков // Акушерство и гинекология. – 2021. – Т 9. – С. 7–9.
2. Здоровоохранение в Республике Беларусь: офиц. стат. сб. за 2020 г. – Минск, 2020.
3. Незнанов, Н.Г. Характеристика депрессивных расстройств у пациенток с хроническими тазовыми болями / Н.Г.Незнанов, И.Ю.Щеглова // Социальная и клиническая психиатрия. – 2022. – № 2. – С. 27–31.
4. Ермошенко, Л.В. Этиологическая структура хронических сальпингоофоритов и оптимизация комплексной терапии с

иммунокоррекцией лейкинфероком / Л.В. Ермошенко. – Автореф. дисс.канд. мед. наук; М., 2022. – 25 с.

5. Богатова, И.К. Психологические особенности женщин с генитальным эндометриозом / И.К. Богатова, О.К. Семенова // Вест. Новых мед. Технол. – 2022. – № 1. – С 61–63.

6. Вейн, А.М. Вегетативные расстройства: клиника, лечение, диагностика / А.М. Вейн. – М.: Мед. Ин-форм. Аген-во, 2020. – 108 с.

7. Апанасенко, Г.Л. Эволюция биоэнергетики и здоровья человека / Г.Л. Апанасенко. – СПб.: Петрополис, 2022. – 137 с.

8. Насырова, Р.Ф. Психическое здоровье женщин с гинекологической патологией (клинико– патогенетический, социально–психологический и реабилитационный аспекты) / Р.Ф. Насырова – Автореф. дисс.докт. мед. наук; Томск, 2022. – 50 с.

9. Рузibaева, Ё.Р. Рак шейки матки. Факторы риска и профилактика. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 4(6), 695-703. <https://doi.org/10.17605/cajmns.v4i6.2092>

## **ORGANIZMNI JISMONIY SOG‘LOMLASHTIRISH USULLARI**

**Dalibekova D. M., Xomidova Y. A.**

2-Marg’ilon Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi Texnikumi talabasi

**Annotatsiya:** Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va kasalliklarning oldini olishning asosiy yo‘li to‘g‘ri tashkil etilgan jismoniy faollikdir. Harakat natijasida odamning turli a‘zo va tuzilmalarining faoliyati me‘yorlashadi, buzilgan faoliyatlari esa tiklanadi, aqliy va jismoniy mehnatga bo‘lgan faollik oshadi. Har qanday yoshdagi odam uchun harakat to‘laqonli hayot va faoliyat ko‘rsatkichidir. Harakat natijasida quvvat sarfi oshadi, to‘qimalarning qon, kislorod va oziq moddalar bilan ta‘minlanishi yaxshilanadi. Yurak muskuli tolalarining tuzilishi mustahkamlanadi, organizmni idora etuvchi gormonal va asab tizimining ishi faollashadi. Harakat va jismoniy mashqlar suyaklar tuzilmasini mustahkamlaydi, mushak kuchini oshirib, ularning bir xil shaklini saqlaydi. Go‘daklar va maktab yoshidagi bolalar uchun harakatning ahamiyati juda katta bo‘lib, u bola organizmining shakllanishiga, tayanch-harakat apparati, yurak-tomir tizimi, endokrin va organizmdagi boshqa tizimlarning rivojiga yaxshi ta‘sir qiladi. Harakat faolligi muskullar bilan skeletni rivojlantiradi, qaddiqomatni raso qiladi, almashinuv jarayonlari, qon aylanishi va nafasning idora etilishini takomillashtiradi, yurak-tomir

tizimining rivojlanishini belgilab beradi.

**Kalit so'zlar:** DJT, individual, tashxis, xastalik, funksiya, kompleks, fizioterapevtik muolaja, koordinatsiya, Ortopedik kasalliklar, peristaltika.

Davolovchi jismoniy tarbiya (DJT) — bu inson organizmiga, shuningdek turli tizim hamda a'zolar faoliyatiga jismoniy mashqlar, harakatlar yordamida ta'sir etuvchi dastur. Bu kompleks individual ravishda har bir bemorga alohida e'tibor bergan holda ularning tashxisiga, xastalik darajasiga, a'zo va tizimlarning faoliyati qanchalik buzilishiga va bemor yoshiga bog'liq holda buyuriladi.

Kundalik turmushda har kuni ertalab badantarbiya, ishlab chiqarish gimnastikasini kanda qilmaslik, sport bilan shug'ullanish, jismoniy mehnat qilish, ko'proq piyoda yurish zarur. Bunda jismoniy tarbiyaning ahamiyati juda muhim bo'lib, kishi har jihatdan intizomli bo'ladi, kuchlilik, chaqqonlik, irodalilikni o'zida shakllantiradi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari juda xilmaxil bo'lib, gimnastika, yurish, suzish, velosiped haydash, turli sport o'yinlari, aerobika, chang'i, terrenkur, trenajyorlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

**Sport o'yinlari** (badminton, basketbol, voleybol, futbol, xokkey va b.) bilan shug'ullanuvchilar organizmiga har taraflama foydali ta'sir ko'rsatadi. Harakat faoliyatining turli shakllarini (yugurish, yurish, sakrash va irg'itishlar, zarblar, turli kuch elementlari) qamrab oluvchi sport o'yinlari chamalay bilishga, aniq va chaqqon harakat qilishga o'rgatadi, organizmni baquvvat qilib, yurak-tomir, asab va nafas tizimlarining takomil lashuvini, tayanch-harakat apparatining mustahkamlanishini ta'minlaydi. Sport o'yinlari vaziyatlarning to'xtovsiz o'zgarib turishi bilan ifodalanadi va sportchilarni tezda mo'ljal qila olishga, topqirlikka va qat'iyatlikka o'rgatadi.

**Terrenkur** – (*frans.* terrain – joy va *nem.* – kur – davolash) asosan, sanatoriy-kurort sharoitlarida davolash maqsadida maxsus belgilangan yo'l (marshrut) bo'yicha ma'lum masofaga piyoda sayr qilishdir. Terrenkur davolash usuli hisoblanadi. Tekis yo'lda qiyalik joydan o'tib-yurish yurak-tomir faoliyatini mustahkamlaydi va rivojlantiradi, to'g'ri nafas olish uchun yaxshi sharoit yaratadi, asabmuskul tonusini oshiradi, shuningdek, oyoq muskullarini yurishtiradi, moddalar almashinuvini yaxshilaydi.

**Gimnastika** (yunoncha – «gymnastike» – mashq qilaman) – jismonan kamol topishga, salomatlikni mustahkamlashga har tomonlama yordam beradigan maxsus jismoniy mashqlar majmuasi. Mashqlar bilan muntazam shug‘ullanilganda, yurak-tomir va nafas tuzilmalari faoliyati yaxshilanadi, tayanch-harakat apparati mustahkamlanadi, moddalar almashinuvi kuchayadi, turli jismoniy kuchlanishlarga moslashuv ishi takomillashadi. Gimnastika jismoniy jihatdan gavnani to‘g‘ri shakllantiradi, qo‘l, yelka kamari, qorin mushaklarini mustahkamlaydi va epchil, harakatchan bo‘lishga yordam beradi.

**Velosiped haydash** mashg‘ulotlari, avvalo, umumiy jismoniy chidamlilikni oshirishga yordam beradi. Velosipedda tezlikni oshirmay tekis yo‘lda sayr qilish, barcha yoshdagi ayollar uchun ham, erkaklar uchun ham yengil va qulay mashg‘ulotdir. Velosipeddan oqilona foydalanilsa, u bolalarni jismonan tarbiyalashning yaxshi vositasiga aylanadi.

**Trenajyorlar** – harakat, kasbga oid amaliy ko‘nikmalar hamda mahoratni tarbiyalash va takomillashtirishga mo‘ljallangan texnik qurilmalar va moslamalar.

Jismoniy mashg‘ulotlar odam organizmiga ijobiy ta’sir etar ekan, ularni bajarishda zarur bo‘lgan gigiyenik talablarga to‘xta lib o‘tish ham zarur. Bu talablar mashg‘ulot o‘tkaziladigan xonaga – muhitga (qo‘yiladigan kiyimlarga va poyabzallarga) tegishli bo‘ladi. Jismoniy mashqlarni bajarish xonalari keng, yorug‘ havosi almashtiriladigan, harorati bir me’yorda saqlanadigan va jismoniy mashqlar xiliga moslashtirilgan bo‘lishi lozim. Yoz kunlarida jismoniy mashg‘ulotlarni ochiq havoda o‘tkazish mumkin.

Jismoniy mashqlarga yengil, harakatlar uchun qulay, fasllarga mos, paxtadan tayyorlangan kiyimlar tavsiya etiladi. Poyabzallar tabiiy teridan yoki matodan (faslga qarab) tayyorlangan bo‘lishi kerak. Paypoqlar yumshoq, havo o‘tkazadigan bo‘lgani ma’qul.

Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanuvchi har bir kishi quyidagi asosiy qoidalarga amal qilishi lozim:

1. Asta-sekinlik.
2. Muntazamlilik.
3. Har tomonlamalik.
4. O‘ziga xos yondashish.
5. O‘z-o‘zini nazorat qilib borish.

Mashqlarni asta-sekinlik bilan boshlab, uzluksiz shug‘ullanish, ularning turli xillaridan foydalanish, o‘zining shaxsiy qobiliyatlarini hisobga olish va mashg‘ulotlarning qanday ta’sir ko‘rsatayotganini nazorat qilish zarur. Jismoniy mashqlar nafaqat sog‘lomlashtiruvchi, balki davolovchi omil sifatida ham katta ahamiyatga ega. Uning davolovchi ta’siriga tayangan holda, hozir davolovchi jismoniy tarbiya (jismoniy tabiya) keng qo‘llaniladi.

### **Jismoniy mashqlar ta’sirida organizmda yuz beradigan o‘zgarishlar**

Jismoniy mashqlar ta’sirida bemor organizmining hayotiy funksiyalari faollashadi va bosh miya yarim sharlari po‘stlog‘ida qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlari yaxshilanadi. Bu esa barcha a‘zolar tizimlari o‘rtasida, normal munosabatlar o‘rnatiladi. Davolovchi jismoniy tarbiya odatda, bemorga kompleks davolashda boshqa qator usullar bilan birga qo‘llaniladi. (Masalan, fizioterapevtik muolaja). Davolash jarayonida organizmning turli funksiyalari koordinatsiyasi tiklanadi (ayniqsa, asab tizimi kasalliklarida). Yotib qolgan bemorlarni davolashda tananing patologik jarayondan xoli qismlarini mashq qildirish zarur. Ortopedik kasalliklar – sinish-chiqishlarda esa, aksincha, faoliyati buzilgan, holati qisman chegaralanib, qolgan qismlarni asta-sekinlik bilan ishlatib mashqlar bajariladi. Bu o‘z navbatida a‘zodagi qon aylanishining funksional faoliyatini tiklaydi.

Nafas a‘zolari kasalliklarida ham nafas tizimi silliq muskullari uchun foydali bo‘lgan mashqlar bajarilganda, silliq muskullar chiniqadi va mustahkamlanadi.

O‘pka ekskursiyasi takomillashib (to‘liq ravishda bajarilib) spazm va yallig‘lanishlarga qarshi kurashadi, nafas olish a‘zolarida qon aylanishi yaxshilanadi va gaz almashinuviga ijobiy ta’sir etadi, bu esa butun organizmning kislorod bilan ta‘minlanishini kuchaytiradi va yaxshilaydi. Jismoniy mashqlar me‘da-ichak apparati faoliyatini yaxshilaydi, peristaltika (harakatlanishi)ni kuchaytiradi. Sekretor (ferment ishlab chiqarish) funksiyalarini kuchaytiradi, qorin pressi mushaklarini kuchaytiradi. Umumiy mashqlar organizmda qon aylanishini, energiya sarflanishi va moddalar almashinuvini kuchaytiradi, teri osti yog‘lari va qand moddasining yonishi kuchayadi.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar:**

1. F.Sh. Bahadirova: Reabilitatsiya, massaj va mehnat bilan davolash:

Kasb-hunar kollejlari uchun O‘quv qo‘llanma F.Sh. Bahadirova O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, O‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi markazi. –T.: Iqtisod-Moliya», 2016. –88 b.

2. Nurillayeva N M, Rustamov M.T, Gadayev A.T, Usmonxodjayeva A.A: Reabilitologiya O‘quv uslubiy qo‘llanma. Toshkent tibbiyot akademiyasi.

3. Usmonxo‘jayeva A.A, Visogorseva O.N: Fizioterapiya O‘quv uslubiy qo‘llanma Toshkent Tibbiyot Akademiyasi.

4. Ziyayeva M: Terapiya [Ichki kasalliklar] Darslik Ilm Ziyo.

## **OIV INFEKSIYASI VAKSINASI YARATILISHIDAGI MUAMMOLAR VA ISTIQBOL**

**Yuldasheva X. A., Mamadaliyeva M. H.**

2-Marg‘ilon Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi  
**Annotatsiya:** Hozirgi vaqtda vaksinalar juda ko‘plab yuqumli kasalliklarni boshqarish uchun butun dunyoda keng ko‘lamda qo‘llanilib kelinmoqda. O‘tgan asrning eng olamshumul yangiliklaridan biri bo‘lgan vaksinalar tibbiyot sohasida tez fursatlarda rivojlandi va jahonda emlanish tufayli qizamiq, difteriya, ko‘k yo‘tal, poliomielit, epidemik parotit, “B” gipatiti, qizilcha, sil, gripp, epidemik parotit va qoqshol, chechak kabi asorati jiddiy bo‘lgan kasalliklar sonini keskin kamaytira oldi. XX asr tibbiyot tarixida nafaqat vaksina yaratildi balki, Odam immuniteti virusi (OIV) dek bedavo kasallik paydo bo‘ldi.

**Kalit so‘zlar:** viruslar, mutatsiya, DNK-genomlari, vaksina, glyukoza JSST ma‘lumotlariga ko‘ra OIV yoki OITS tufayli 2023-yilga kelib, butun dunyo bo‘ylab 40,4 milliondan ortiq bemorlar vafot etgan va taxminan 39 million inson OIV infeksiyasini yuqtirib olgan. Bu lo‘rsatgichning yillik o‘sishi 1,5 mln. kishini tashkil qilmoqda. Ulardan 29,8 million inson retrovirusga qarshi davo oladi. O‘zbekistonda OIV infeksiyasi bilan og‘rigan bemor birinchi marta 1987-yilda ro‘yxatga olingan. Shu paytdan beri 2022-yilning 1-yanvar holatigacha 71 mingga yaqin bemor kasallangiligi aniqlandi, o‘lganlar soni esa 23 mingga yaqinni tashkil etgan. 2022-yil ohiriga kelib O‘zbekistonda 45 mingga yaqin OIV

infeksiyasi bilan kasallangan insonlar borligi, ularning 55 foizi erkaklar va 45 foizi ayollarligi ma'lum qilingan edi.

Bugungi kunda vaksinalar insoniyaning g'alabasi sifatida tan olingan bir vaqtda XX asr vabosi deya nom olib ulgurgan OIV infeksiyasi-chi? Nega bu infeksiyaga hozirgacha vakcina yo'q? Bu savolga oddiy javob berish mumkin: OIV virusi tibbiyotga ma'lum viruslar ichida "xameleon" ya'ni, o'zgarib turuvchi ayyor jonzot. U hozirgi paytda ham o'zgaryapti, mutatsiyaga uchrayapti va olimlarning OIV infeksiyasiga qarshi vakcina ishlab chiqish uchun qilgan izlanishlarini barchasini yo'qqa chiqaryapti. Ho'sh, OIV virusi qanday tuzilishga ega? OIV uch o'lchamli murakkab tuzilgan qobiqqa ega. Qobiqning yarmi glyukoza bilan qoplangan. Aynan qobiqdagi shu glyukoza yaratilayotgan vaksinalar faoliyatiga to'sqinlik qiladi yoki bloklaydi. Agar OIV infeksiyasining etiologiyasi boshqa viruslarniki kabi bo'lganida, soha mutaxassislari bu masalada ancha yutuqlarga erishgan bo'lardi. Lekin inson OIV infeksiyasi o'z qobig'ini doimiuy, eng muhimi, juda tez o'zgartirib turadi. Virusga qarshi kurashish, uni yengishi uchun eng avvalo immun tizimimiz uni tanishi kerak. Lekin bu virus mutatsiyaga tez uchrashi tufayli immun tizimi uni xavfli deb hisoblamaydi. Inson immun tanqisligi virusi retroviruslar oilasiga mansub. Bu kabi viruslar o'z DNK-genomlarini inson hujayrasida saqlay olish hususiyatiga ega. Mutahassislar bir necha yillardan beri retroviruslarga qarshi kurashish uchun turli choralarni izlashyapti, har qanday ko'payishiga oid ilmiy ishlar ustizda izlanishmoqda. Natija esa, hozircha yo'q.

OIV infeksiyasiga qarshi vaksinalardan biri 2016 yil Janubiy Afrika Respublikasida ishlab chiqilishi boshlangan HVTN 7026 nomli vakcina fan oldida katta umid uyg'otgandi. Dastlabki tajribalarda 18-35 yosh orasidagi 5407 nafar OIV infeksiyasini yuqtirgan bemor ishtirok etti. Vaksinatziya jarayonida ikki vakcina bir vaqtda qilinadigan Prime Boost usulidan qo'llanilindi. Birinchi (Prime) vaksinada qatnashgan inson bir zardobni olgan bo'lsa, ikkinchisida (Boost) mutlaqo boshqasini olgan. Bundan immun tizimining imkoniyati ikki barobarga ortishi kutilgandi, lekin amalda bunday bo'lmadi. RV144 vaksinasi HVTN 7026 uchun asos bo'lin hizmat qildi. Bu kamtarona 31 foizlik natija ko'rsatgan yagona zardob bo'lib qoldi. Vakcina insonni bir necha oygina virusdan himoya qilishi mumkin edi. Natijalar ijobiy bo'lmagach, 2020 yilning fevral oyida bu loyiha to'xtatildi. OIV infeksiyasi vaksinasini yaratish uchun keying

loyiha MOSAICO loyihasi bo‘ldi. U ham ikki vaksinani bir vaqtda qo‘llash usuliga asoslangandi. MOSAICO vaksinasini avval maymunlarda sinab ko‘rishdi va natijalar ancha ijobiy bo‘ldi. Bu vakcina yordamida OIV infeksiyasi bilan kasallanish maymunlarda 90 foizga kamaydi. 2019 yilning oxirlaridan buyon AQShda MOSAICO sinovlari o‘tkazilib kelinyapti va unda 3800 kishi qatnashyapti. Uchinchi vakcina IMBOKODO deb nomlandi. 2600 afrikalik inson IMBOKODO vaksinasi sinovlarida ishtirok etib kelmoqda. Vakcina samaradorligi hozir kungacha 67 foizni tashkil etyapti. IMBOKODO sinovlari 2026 yilning fevralida nihoyasiga yetishi ko‘zda tutilgan. Olimlar bu vaktsinalar 100 foizlik natija ko‘rsata olishiga ishonishmayapti. Biroq 60-70 foizlik samaradorlik ham ijobiy hisoblash mumkin. Ungacha esa OIV infeksiyasini antiretrovirus preparatlar bilan davolash imkoni bor, xolos.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

4. “HIV and antiretroviral therapy in the brain: neuronal injury and repair” Nature Reviews. Neuroscience. 2007
5. Роксби, Филиппа. „Почему сейчас люди с ВИЧ живут столько же, сколько и здоровые“ 2019
6. AIDS.gov. “STAGES OF HIV INFECTION”. U.S. Department of Health & Human Services. 2024

## INSON HAYOTIDA PSIXOLOGIK SALOMATLIKNING ROLI

Temirova N. R., Babayev K. K.

2-Marg'ilon Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi  
texnikumi

**Annotatsiya:** Bugungi virtual zamonda insonlarning psixologik salomatligi global muammolardan biriga aylanib qolmoqda. Turli sabablar tufayli ruhiy buzulishlar soni oshib bormoqda. Zamonaviy jamiyatlarda bu masala dolzarb bo'lib, tibbiyot bu sohada yechim izlashda katta rol o'ynamoqda. Psixologik salomatlik – bu insonning ruhiy, hissiy va ijtimoiy farovonligi, uning kundalik hayotda to'g'ri qarorlar qabul qilish va stressli vaziyatlarga qarshi kurashish qobiliyatini oshirishni ta'minlaydi.

**Kalit so'zlar:** meditatsiya, stress, depressiya, anxiety, psixologik muammolar, bipolyar buzilish

Psixologik salomatlikka salbiy ta'sir qiluvchi omillar

1. Stress va bosim. Stressning odam hayotiga ta'siri juda katta. Ko'pchilik ishda, o'qishda yoki oilaviy muammolar tufayli stressga tushib, ruhiy zo'riqishni boshidan o'tkazadi. Bu uzoq davom etganida depressiya, xavotir yoki boshqa ruhiy kasalliklarga olib keladi. Stress bilan kurashish uchun meditatsiya, sport va o'zini yaxshi bilish juda muhim sanaladi.

2. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi. Insonlarning o'zini yolg'iz his qilishi, oilaviy yoki do'stona munosabatlardagi qo'llab-quvvatlovning yetishmasligi psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy aloqalarning kamligi, ayniqsa, yoshlar va qariyalar o'rtasida ruhiy kasalliklar rivojlanishiga olib keladi.

3. Ovqatlanish va uyqu. Oziq-ovqat va uyqu psixologik salomatlikda katta rol o'ynaydi. Yomon ovqatlanish yoki uyqusizlik depressiya va xavotir rivojlanishini kuchaytiradi. Tibbiy tadqiqotlar ko'rsatmoqda, yetarli darajada uxlash va sog'lom ovqatlanish psixologik muammolarni kamaytirishda katta rol o'ynaydi.

Eng keng tarqalgan ruhiy kasalliklar

1. Depressiya. Depressiya – bu uzluksiz qayg'u va umidsizlik hissi bo'lib, dunyo bo'ylab juda ko'p insonlarni qiynaydi. Bu kasallik insonning kundalik hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, ishga, o'qishga yoki ijtimoiy hayotga zarar yetkazadi. Davolanish uchun professional yordam va dorilar talab qilinadi.

2. Xavotir kasalliklari (anxiety). Doimiy tashvish, xavotir va asabiylik xavotir kasalliklarining asosiy belgilaridir. Bunday holatda inson doimiy ravishda nima bo'lishidan qo'rqib yashaydi, bu esa uning hayot sifatini

pasaytiradi. Xavotir bilan kurashish uchun psixoterapiya va maxsus davolash usullari qoʻllaniladi.

3. Bipolyar buzilish. Bu kasallik insonning kayfiyatining keskin tebranishi bilan xarakterlanadi: bir necha kun davomida inson oʻzini nihoyatda baxtli va faol his qilsa, keyingi kunlarda depressiyaga tushib qolishi mumkin. Bipolyar buzilish murakkab davolashni talab qiladi va unga maxsus dori-darmonlar bilan qarshi kurashiladi.

Psixologik salomatlikni qanday saqlash mumkin?

1. Jismoniy faoliyat. Muntazam ravishda jismoniy mashqlar qilish stressni kamaytiradi va ruhiy holatni yaxshilaydi. Sport bilan doimiy shugʻullanish – baxt gormonlarini koʻpaytiradi, bu esa psixologik salomatlikka ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

2. Ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish. Oila va doʻstlar bilan mustahkam munosabatlar insonning ruhiy salomatligini yaxshilashga yordam beradi. Doimiy muloqot va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash psixologik muammolarning oldini olishda katta rol oʻynaydi.

Xulosa

Psixologik salomatlik insonning umumiy salomatligi uchun juda muhimdir. Hozirgi kunda ruhiy kasalliklar jiddiy muammolardan biri boʻlib qolmoqda va ularni davolash va oldini olish uchun koʻproq eʼtibor talab etiladi. Psixologik muammolarni hal qilishda har bir inson oʻz hissasini qoʻshishi mumkin: oʻz sogʻligʻini nazorat qilish, sogʻlom turmush tarzini olib borish va boshqalar bilan muloqot qilish orqali. Tibbiyot sohasi vakillari bu muammoni erta aniqlash va toʻgʻri davolashda muhim rol oʻynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://mentalhealthtx.org.uz>
2. <https://www.iloencyclopaedia.org.uz>
3. <https://uz.lymphoma.org.au/limfoma/davolashning-yon-ta%27siri/ruhiy-salomatlik-va-hissiyotlar>

## **МОХОВ КАСАЛЛИГИ ТАРҚАЛИШИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР**

**Шоколонова.Н.М., Эшбоев.Э.Х.**

**Андижон давлат тиббиет институти, РИДВваКИАТМ.**

Ганзен касаллиги сифатида ҳам танилган мохов тиббиет фанидаги сезиларли ютуқларга қарамай, глобал соғлиқни сақлаш муоммоси булиб қолмоқда. Мохов касаллигининг маълум бир худуд аҳолиси орасида тарқалиши ижтимоий омилларнинг, яъни одамларнинг иқтисодий ва ижтимоий яшаш даражаси, умумий ва санитария гигиеник маданиятининг ривожланганлиги билан чамбарчас боғлиқдир.

Сир эмаски, иқтисодий ва маиший шарт-шароитларнинг танглиги бутун бир жамиятнинг, ирқнинг ёки миллатнинг барча инфекцияларга резистентлигини сусайтиради.

Касаллик бемордан у билан яқиндан маиший мулоқотда бўлганда юқади. Санитария-гигиеник шарт-шароитларнинг, хусусан ижтимоий маданиятнинг пастлиги эса юқиш жараёнини тезлаштиради ва даражасини доимий равишда ошириб боради.

Мохов касаллигининг юқиш йўллари тўғрисидаги тахмин ва назариялар жуда кўп, аммо исботи кам. Дарҳақиқат касалликнинг юқиш даражаси, бемор билан узоқ мулоқотда бўлиш кўрсаткичи билан чамбарчас боғлиқдир. Эндемик ўчоқларда узоқ йиллар давомида яшаш беморлар билан мулоқот миқдорини ошириши ўз-ўзидан маълум. Шунинг учун ҳам энг аввал беморнинг оила аъзолари, биринчидан болалари кўп мулоқотда бўлганликлари сабабли улар кўпроқ зарарланадилар. Касалликнинг диагностикаси яхши йўлга қўйилган жойларда болалар орасида касаллик эрта аниқланади ва аксарият ҳолларда эса инкубация давр узоқ давом этиши натижасида болалар улғайганда уларда касаллик қайд қилинади .

Касалликнинг оилада ёки оиладан ташқарида юқиб қолиши тўғрисида фикрлар бир-бирига унчалик мос келмайди. Албатта кўчманчи халқлар орасида “оилада” касалланиш ҳолатлари юқори бўлган. Лекин кўпгина бошқа муаллифлар касалланишни оиладан ташқарида юқиш эҳтимоли юқори деб таъкидлашади.

Марказий Осиё давлатларига мохов касаллигининг кириб келиши инқироз ва босқинчилик урушлари билан ҳам боғлиқдир. Айниқса Чингизхон истилоси туфайли аввалига Жанубий-Шарқий Осиёда,

кейинчалик Марказий Осиё давлатларида ҳам касаллик тарқалиб кетган.

Архив ҳужжатлари ва ўтказилган тадқиқот материаллари асосида 1930-2022 йиллар давомида Фарғона вилоятида 21 та , Андижон вилоятида 49 та ва Наманган вилоятида 14 та беморда мохов касаллиги аниқланганлигини архив маълумотлари асосида ретроспектив таҳлил орқали аниқладик ва қуйидаги хулосага келдик. Мохов касаллиги тарқалишига бир қанча омиллар таъсир қилган булиб, аҳолининг ижтимоий яшаш даражаси, умумий ва санитария гигиеник маданиятининг пастлиги ва ички,ташқи мигратсия бу омиллар ичида етакчилардандир.

## **ЎТКИР ИЧАК ИНФЕКЦИЯЛАРИНИНГ ЭПИДЕМИОЛОГИК ТАХЛИЛИ**

Маматқулова М.Т., Имомалиев А.А., Турғунбоева Д.Х.

Фарғона жамоат саломатлиги тиббиёт институти

### **Аннотация**

Қуйидаги мақолада ўткир юқумли ичак инфекциялари бўйича эпидемиологик вазиятга баҳо берилган. Аҳолини тиббий маданиятини ошириш орқали бу инфекцияларини олдини олишда яхши натижаларга эришишимиз мумкинлиги кўрсатилган.

Калит сўзлар:этиология, микроорганизм, механик, ротавирус,иерсиноз.

### **ABSTRACT**

In this article the epidemiological estimation on sharp intestinal infections is given. It is shown that by means of increase of medical culture of the population do win good results on preventive maintenance of these infections.

**Key words:** Aetiology, microorganism, the mechanic, virusaly, iersinoz.

**Мавзунинг долзарблиги:** Юқумли ошқозон ичак касалликлари жахоннинг жуда кўп мамлакатларида эпидемик ҳолатда тарқалган бўлиб ҳар йили ер юзи аҳолисининг 1/3 қисми ушбу касалликлар билан касалланадилар. Ичак инфекциялари асосан аҳолининг турмуш маданияти паст, санитария гигиена кўникмалари яхши шаклланмаган, тоза ичимлик суви ва канализация билан таъминланмаган ҳудудларида юқориликча қолмоқда. Ҳар қандай юқумли касалликка мавсумийлик хос. Ўткир юқумли ичак касалликларини келтириб чиқарувчи микроорганизмлар айнан иссиқ шароитда тез кўпаяди. Бу касалликларни турли микроорганизмлар келтириб чиқаради. Қўзғатувчисининг турига қараб, касалликлар ичтерлама, сальмонеллез, ичбуруғ, иерсиноз, ротовирус, энтеровирус ёз ойларида кўпроқ учрашига бир қанча омиллар сабаб бўлади. Иссиқ кунда инсоннинг қайнатилмаган сувни кўп миқдорда ичиши натижасида ошқозондаги хлорид кислотасининг концентратсияси пасайиб кетиши ва бунинг оқибатида организмнинг иммунобиологик хусусияти пасайиши натижасида юқиш тезлашади. Яхши сақланмаган овқатларни, хўл меваларни яхши ювмасдан истеъмол қилганда, ичак инфекциялари касалликлари билан оғриган бемор билан мулоқотда бўлганда, очиқ сув ҳавзаларида чўмилган пайтларида сув билан микроблар организмга тушиши натижасида ва механик равишда пашшалар орқали тарқалиши тезлашади.

**Текширувдан мақсад.** Ўткир ичак касалликларининг мавсумийлик даврида баъзи бир турларининг эпидемиологик тахлили ва эпидемияга қарши чора тадбирларни ўрганиш.

**Текширув материаллари.** Фарғона шаҳар ҳудудида ўткир ичак касалликларининг 2022-2023 йиллар учун 6 ойлик солиштирма

ахбороти. **Текширув усуллари.** Эпидемиологик ва бактериологик усул.

2022-2023 йиллар давомида ўткир ичак инфекцияларининг эпидемиологик солиштирма ахборотидан кўриниб турибдики, ўткир ичак касаликлари 2022 йилда жами абсолют кўрсаткичда 255, интенсив кўрсаткичда 79,3% шундан болалар абсолют кўрсаткичда 251, интенсив кўрсаткичда 251,0% 2023 йилда жами абсолют кўрсаткичда 345, интенсив кўрсаткичда 104,6% шундан болалар абсолют 322, интенсив 312,3%, бундан сальмонеллэзлар 2022 йилда жами абсолют кўрсаткичда 9, интенсив кўрсаткичда 2,8% шундан болалар абсолют кўрсаткичда 8, интенсив кўрсаткичда 8,8% 2023 йилда жами абсолют кўрсаткичда 2, интенсив кўрсаткичда 0,6% шундан болалар абсолют 1, интенсив 1,0%. Этиологияси аниқланган ичак инфекциялари (008) 2022 йилда жами абсолют кўрсаткичда 252, интенсив кўрсаткичда 98,8% шундан болалар абсолют кўрсаткичда 249, интенсив кўрсаткичда 99,2% , - 2023 йилда жами абсолют кўрсаткичда 332 интенсив кўрсаткичда 96,2% шундан болалар абсолют 315, интенсив 97,8%, Этиологияси аниқланмаган ичак инфекциялари (009) 2022 йилда жами абсолют кўрсаткичда 2, интенсив кўрсаткичда 1,2% шундан болалар абсолют кўрсаткичда 2 интенсив кўрсаткичда 0,8%, 2023 йилда жами абсолют кўрсаткичда 13, интенсив кўрсаткичда 3,8% шундан болалар абсолют кўрсаткичда 7 интенсив кўрсаткичда 2,2 % ташкил этган. Жами 2022-2023 йилларда жами +31,9% шундан болалар ўртасида +54,4% ўсиш кузатилган. Сальмонеллэз касаллиги жами -4,6 марта, болалар ўртасида эса -8,0 марта камайиши кузатилган.

**Хулоса:** Юқоридаги 6 ойлик солиштирма ахборотдан кўриниб турибдики жами ўткир ичак инфекцияларидан ич терлама,

паратифлар, дизентерия умуман бактериологик тасдиқланмаган, сальмонеллэзларнинг учраш фоизи 4,6%га, болалар ўртасида эса - 8,0% камайган. Ўткир ичак инфекциялари ўртасида этиологияси аниқланган инфекциялар (008) ва этиологияси аниқланмаган ўткир ичак инфекциялари камайган. Саломатликни асраш 10-15 фоиз тиббиёт ходимларининг хизматига, 60 фоиз ҳолларда эса, кундалик соғлом турмуш тарзимизга боғлиқ. Шунинг борада ўткир юқумли ичак касалликларидан сақланишда мавсумийлик ёз ойларига тўғри келганлиги учун сувларни қайнатилган ҳолда ичиш, биринчи галда тозалikka рия қилиш, айниқса болаларда қўлларни овқатдан олдин ва ҳожатдан кейин совунлаб ювиш кўникмасини шакллантириш, жамоат жойларда шахсий гигиена қоидаларига рия қилиш, хўл меваларни ювиб истеъмол қилиш, яхши сақланмаган ва узоқ вақт туриб қолган овқатларни истеъмол қилмаслик, очиқ сув ҳавзаларида чўмилганда сувларнинг тозалигига ва чўмилиш жараёнида сув ютмасликка эътибор бериш, атроф-муҳит, яшаш хоналари ва аҳоли умумий фойдаланадиган жойларнинг доимо озода бўлишини таъминлаш керак. Шунинг билан бир қаторда аҳолининг тиббий маданиятини тарғибот ишлари билан янада юқорига кўтаришимиз орқали ўткир ичак инфекцияларини олдини олишга эришишимиз мумкин.

Адабиётлар:

- 1.Zueva L.P., Yafaev R.X. Epidemiologiya. Sankt-Peterburg. Darslik. 2006g.
- 2.Usmanov M.K. Epidemiologiya. Toshkent Darslik. 1995g.
- 3.Mirtazaev O.M. Epidemiologiyadan amaliy mashg'ulotlar uchun qo'llanma T. 2003 y.

4. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar sog'ligini saqlash» to'g'risidagi Qonuni. 1996y. 29.08.
5. Amaldagi qonuniy va me'yoriy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining yuqumli va parazitlar kasalliklar epidemiologiyasi, profilaktikasi bo'yicha buyruqlar, uslubiy qullanmalar, sanitariya norma va me'yorlari.
6. Tibbiy-profilaktika fakul'teti talabalari uchun epidemiologiyadan uslubiy qullanmalar va metodik tavsiyanomalar.
7. Barker Dj. P., Rose G. Epidemiology in Medical Practice, 4<sup>nd</sup> edition. - Edinburgh: Churchill Livingstone, 1990. – 315 p.
- 8 Bonita R. et al. Basic epidemiology, 2<sup>nd</sup> edition. – WHO, Geneva: WHO Press, 2006. –

## **SOG'LOM TURMUSH TARZI-PROFILAKTIKANING ASOSI.**

**Xasanboyeva N.A., Mansurova F.S.**

### **FJSTI**

Salomatlik – inson kamolotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, shaxsning hech kim dahl qila olmaydigan huquqi, o‘z-o‘zini rivojlantirish, shaxsiy va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi garovidir. Ma’lumki, jamiyatimizda inson salomatligi, jismoniy barkamolligi, sog‘lom turmush tarzi madaniyatiga egaligi o‘ta muhim ijtimoiy qadriyat hisoblanadi. Millat salomatligini ta’minlash, xalq genofondini bekamu-ko‘st saqlash sog‘lom turmush tarzi tufayligina yetarlicha ijobiy tarzda hal etiladi. Bu esa, jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari; oila, o‘quv-tarbiya maskanlari, mahalla hamda mustaqil ta’lim oldiga jamiyatimiz fuqarolariga sog‘lom turmush tarzi mazmuni va mohiyatini anglatish, yoshlarni sergak va bilimdon, barkamol shaxs qilib tarbiyalash masalasini ko‘ndalang qilib qo‘yadi. Sog‘lom turmush tarzi bu faol mehnat, ijod og‘ushida yashash, kuchli jismoniy va ruhiy yuklamalarni, o‘ta xavfli va zararli ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni yengil ko‘tara oladigan har tomonlama taraqqiy etgan shaxsning shakllanish jarayonidir. Talabalar o‘rtasidagi o‘tkazilgan so‘rovnomada natijalaridan kelib chiqib, oliy o‘quv yurti talabalari bo‘sh vaqtini to‘g‘ri taqsimlash, kun tartibi, dam olishga va mehnat tartibiga rioya etishi sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarining shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Sog‘lom turmush tarzi - bu kasallikning oldini olish va sog‘lig‘ini mustahkamlashga qaratilgan shaxsning turmush tarzi. Sog‘lom turmush tarzi bizning maqsad va vazifalarimizni amalga oshirishga, rejalarimizni muvaffaqiyatli amalga oshirishga, qiyinchiliklarni engishga yordam beradi va agar kerak bo‘lsa, katta ortiqcha yuklarni engishga yordam hamda engib o‘tishda kuch beradi. Insonning o‘zi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan va mustahkamlangan yaxshi sog‘liq unga uzoq va baxtli hayot kechirishga, orzu istaklariga etishida, matonatli bo‘lishida imkon beradi.

Salomatlik har bir insonning, shuningdek, butun jamiyatning bebaho boyligidir. Bizga yaqin odamlar bilan uchrashganda va ular bilan xayrlashayotganda biz ularga doimo sog‘lik tilaymiz, chunki bu to‘liq va baxtli hayotning asosiy shartidir.

Sog‘lom turmush tarzi omillari bu –erta yoshda belgilanadi. Ular:

1. Psixoaktiv moddalar (Giyohvand moddalar).
2. Chekish.
3. Spirtli ichimliklar.
4. Stress.
5. Jismoniy harakatsizlik.
6. Sog'lom ovqatlanish.
7. Sog'lom jinsiy aloqa.
8. Uyqu.
9. Tozalik.

### **Psixoaktiv moddalar (Giyohvand moddalar).**

Psixoaktiv moddalarni (giyohvand moddalarni) iste'mol qilishga qaramlik - bu og'ir buzilishlarga, birinchi navbatda, tananing aqliy va jismoniy funktsiyalariga olib keladigan og'riqli tortishish. Dorilar zahar ekanligi hech kimga sir emas. Qabul qilingan miqdordan qat'i nazar, ular sog'lig'imizga tuzatib bo'lmaydigan zarar etkazadi.

Giyohvand moddalar uchta xususiyatga ega bo'lishi kerakligi umumiy qabul qilinadi: ular asta-sekin qaramlikka olib keladi va ular jismoniy va psixologik qaramlikdir.

### **Chekish**

Hozirgi kunda chekish ko'plab odamlarning hayotiga chuqur singib ketgan va kundalik hodisaga aylangan. Jamiyatning kurashiga qaramay, "tamakiga qarshi" qonunning yangi talablari kiritilishi bilan, aholining bir qismi hali ham faol chekuvchilar bo'lib qolmoqda, shu bilan birga hamma nikotin eng kuchli zahar ekanligini biladi.

### **Spirtli ichimliklar**

Alkogolizm muammosi jamiyatning normal faoliyatiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy patologiyalarning tarmoqlangan majmuasidir. Spirtli ichimliklarning kichik dozalarini ham qabul qilish ish faoliyatini pasaytiradi, charchoqqa, bema'nilikka olib keladi va voqealarni to'g'ri idrok etishni qiyinlashtiradi. Alkogolizm jiddiy surunkali kasallik bo'lib, uni davolash qiyin.

### **Stress**

Stress - ingliz tilidan tarjima qilingan "bosim, bosim, kuchlanish" degan ma'noni anglatadi. Har qanday inson, uning mavqei, jamiyatdagi mavqei va moddiy boyligidan qat'iy nazar, stressga duchor bo'ladi. Uzoq muddatli stress immunitet tizimiga kuchli zarba beradi. Salbiy gormonlar

darajasini oshirib, salomatlikni saqlashga yordam beradigan gormonlar chiqarilishini bostiradi. Stress bilan kurashishni o'rganib, sizni semiz, asabiy va unutuluvchan qiladigan ortiqcha gormonlar oqimini to'xtatasiz.

### **Jismoniy harakatsizlik**

Zamonaviy dunyoda ish yuritish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, avtomobilda harakatlanish va maishiy texnikaning rivojlanishi insonning harakatga bo'lgan ehtiyojini kamaytiradi.

### **Sog'lom ovqatlanish.**

Sog'lom ovqatlanish - bu juda keng tushuncha (bu haqda ko'plab ilmiy ishlar yozilgan), ammo oziq-ovqatga oqilona yondashishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Hayvonlarning yog'larini cheklash;
- Menyuda o'simlik mahsulotlarining ko'payishi;
- Kundalik ratsiondan "tez" uglevodlarni chiqarib tashlash - shirinliklar, pishirilgan mahsulotlar, soda, tez ovqatlanish, chiplar va boshqa "arzimas" ovqatlar;
- Fraksiyonal ovqatlanishga o'tish (bir vaqtning o'zida oz miqdorda oziq-ovqat);
- Vitaminlarga boy ovqatlar iste'mol qilish.

### **Sog'lom jinsiy hayot.**

Muntazam jinsiy hayot erkaklar va ayollar salomatligi uchun foydali ekanligini isbotlashgan. Axir, jinsiy a'zolar, mushaklardan tashkil topgan boshqa har qanday inson organlari kabi, harakatsizlikdan ma'lum darajada atrofiyaga uchraydi. Psixologlar esa sevgan insoningiz bilan sifatli jinsiy aloqa qilish sizning kayfiyatingizni sezilarli darajada yaxshilashini va depressiya xavfini sezilarli darajada kamaytirishini aniqlagan. Ammo shuni ham bilish kerakki, deyarli barcha mutaxassislar muntazam jinsiy hayotning ijobiy tomonlari faqat bir-birining sheriklari doimiy bo'lganda paydo bo'ladi degan fikrda bir ovozdan. Fohishalik hech qachon hech kimga yaxshilik keltirmagan.

Shuning uchun, agar biron sababga ko'ra doimiy sherigingiz bo'lmasa, sog'lig'ingizga juda ehtiyot bo'lishingiz kerak. Axir, behayolik, ehtimol, xavfli jinsiy yo'l bilan yuqadigan va otoimmün kasalliklarga olib kelishi mumkin. Va cherkov nuqtai nazaridan, jinnilik oddiygina zino deb ataladi.

### **Uyqu.**

Yaxshi uxlash sog'lom bo'lishning eng yaxshi usullaridan biridir. 7-8 soat uxlaydigan odamlar, albatta, to'g'ri ish qilishadi. Ammo 8 soatdan ortiq uxlash tavsiya etilmaydi. Yaxshi tungi uyqu immunitet tizimini mustahkamlaydi. Gap shundaki, tungi uyqu paytida melatonin darajasi oshadi, bu immunitet tizimining faoliyatini yaxshilaydi.

### **Tozalik.**

Hamisha ozoda va sarishta bo'lib yurish-fazilat, salomatlik garovidir. Toza, pokiza odamning ruhi uyg'oq, vujudi tetik, hayoti nurafshon bo'ladi. Chunki sizni bizga tozalik farishtasi shu baxt, quvonchni tortiq etadi. Alloma Gyotening ta'biri bilan aytganda, bu farishta o'zini, ya'ni tozalikni sevganni sevadi, sevmaganga shafqat qilmaydi, ya'ni ularni turli kasallikka yo'liqtiradi.

### **Xulosa.**

Sog'lik umr garovi deb bekorga aytishmagan, har bir inson hayoti sog'ligiga bog'lik ekanligini anglashi, bu takrorlanmas mujizaviy ne'mat ekanligi, shu sabab o'zini ehtiyot qilishi, o'z qadriga o'zi etishishini bilishi kerak. Sog'lom turmush tarziga amal qilgan holda yashab, o'zimizga berilgan umrdan to'g'ri manfaatdor bo'lishimiz kerak, zero sog'lik bu biz uchun Olloh tomonidan tuhfa qilingan oily mukofotdir.

### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. G.S. Avezova. Alkogolga qaramlik va uning profilaktikasiga tizimli yondoshuv. Tibbiyotda yangi kun-ilmiy referati, ma'naviy ma'rifiy jurnal 2020yil
2. B.Mamatqulov "Jamoat sog'ligi va sog'liqni saqlashni boshqarish" ilm Ziyosiyot uyi. 2013 yil.
3. B.Mamatqulov va T.Nodirov "Sog'lom turmush tarzi va oila salomatligi" o'quv qo'llanma. Qarshi 2018 yil.
4. Abu Ali Ibn Sino. Kanon vrachebnoy nauki. Kn 1. Fan 2005 yil.

## TEMIR TANQISLIGI ANEMIYASINI DAVOLASH VA PROFILAKTIKASI

**Malikova Sh.A., Qodirov D.A., Shokirova N.I.**

2-Marg'ilon Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi  
texnikumi “

**Temir tanqisligi anemiyasi** barcha kamqonlik holatlarining taxminan 90% ni tashkil etadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, ushbu shakldagi kamqonlikdan har oltita erkakdan biri va dunyodagi har uchinchi ayol aziyat chekadi. **Gemoglobin** — kislorod molekulari bilan qaytar reaksiyaga kirishadigan, temir mikroelementiga ega bo'lgan murakkab oqsilli birikma, organizmda o'pkadan to'qimalariga kislorod va aksincha, to'qimalardan o'pkaga karbonat angidrid tashuvining asosi hisoblanadi. Temir tanqisligi anemiyasi — bu gipoxrom anemiya, mikrotsitoz alomatlari bilan birga kuzatiladi, chunki eritrositga hajm va rang berib turuvchi gemoglobin normal rivojlanishi uchun kerakli temir elementi yetishmaydi. Temir ko'plab modda almashinuvi jarayonlari, oziq moddalar almashinuvi, tanadagi gaz almashinuvi bilan bog'liq muhim mikroelement hisoblanadi. Kun davomida kattalar 20-25 mg temir moddasini iste'mol qiladilar, bu elementning tanadagi jami zaxirasi taxminan 4 g.

**Tadqiqot maqsadi.** Ushbu turdagi patologiya rivojlanishining asosiy sabablari

temir iste'moli buzilishlari, beqaror ovqatlanish, temirni yetarlicha qabul qilmaslik, ochlik, parhezlar, dori-darmonlar, ochlik hissini so'ndiradigan narkotik va boshqa moddalar qabul qilish, jismoniy yoki ruhiy kasalliklar tufayli ishtahaning pasayishi. Oziq-ovqat yetishmasligining ijtimoiy-iqtisodiy sabablari. So'rilish jarayonida temirni o'zlashtirishdagi buzilishlar. Oshqozon-ichak trakti kasalliklari (gastrit, kolit, peptik yara, bu organning rezektsiyasi).

Tananing yuqori ehtiyojiga ko'ra temirni iste'mol qilish va sarflashda muvozanat yo'qligi. Xususan quydagi sababalar:

- a) Homiladorlik, emizish;
- b) Jismoniy o'sishda jinsiy balog'at yoshi;
- c) Gipoksiyaga olib keladigan surunkali kasalliklar (bronxit, obstruktiv o'pka kasalligi, yurak xastaligi, yurak-qon tomir tizimi va nafas olish tizimining boshqa kasalliklari);
- d) Nekrotik jarayonlar bilan kechadigan kasalliklar: sepsis, to'qimalarning abstsesslari, bronxoektatik kasallik va boshqalar.

Temir tanqisligi anemiyasi hastaligini taxlil qilish va profilaktik tadbirlarni amalga oshirish.

**Materiallar va usullar.** Temir tanqisligi anemiyasi tashxisi vizual tekshirish, bemorning instrumental tekshiruvlari va qonning laboratoriya tahlillari natijalarini baholash ma'lumotlariga asoslangan. Jismoniy ko'rik va bemor tarixi o'rganilishi bilan birga teri holiga, og'iz shilliq qavatiga, lablar burchaklariga e'tibor beriladi va taloq hajmi paypaslash orqali baholanadi. Temir tanqisligi anemiyasi kasalligini aholi, shu jumladan yoshlar, qariyalar va bolalarda jins kesimida statistikasi taxlili.

**Natijalar.** Maktab va undan yuqori ta'lim dargohlarida bu kasallikning salbiy oqibatlari haqida targ'ibot olib borildi. Temir tanqisligini bartaraf etish uchun tavsiya etilgan mahsulotlarga quyidagilar kiradi:

- Gemli guruh (temir miqdori kamayib borish tartibida) : mol jigari, mol tili, quyon go'shti, kurka go'shti, g'oz go'shti, mol go'shti, baliqning bir necha navlari;
- Nogem guruh: quritilgan qo'ziqorin, yangi no'xat, grechka, suli yormasi, yangi qo'ziqorin, o'rik, nok, olma, olxo'ri, gilos, lavlagi va boshqalar.

Sabzavot, meva, poliz mahsulotlari o'rganilganda ularning tarkibida yuqori temir mavjudligiga qaramay, temirning o'zlashtirilishi umumiy miqdordan jami 1-3%ni tashkil etadi, bu hayvon kelib chiqishli mahsulotlari bilan solishtirganda arziyasiz bo'ladi. Masalan mol go'shti iste'mol qilinganda inson organizmi zarur temir elementini umumiy miqdordan 12% igacha o'zlashtirishi mumkin.

Temir tanqisligi anemiyasini parhez bilan tuzatishda temir o'zlashtirishiga ta'siri tufayli vitamin C va oqsilga boy (go'sht) ovqat oziq-ovqatlarni ko'proq iste'mol qilib, tuxum, osh tuzi, kofeinli ichimliklar va kaltsiyga boy oziq-ovqatlarni kamaytirish lozim bo'ladi.

**XULOSA.** Temir tanqisligi anemiyasini oldini olish omillaridan biri – to'g'ri ovqatlanish hisoblanadi. O'z vaqtida temir tanqisligi anemiyasini aniqlash organizmda ko'plab kasalliklarni oldini oladi. Bemorlarni sog'ligini kuzatib borish sanator- kurort sharoitida davolash ham oldini olish chora-tadbirlarining eng samarali usullari hisoblanadi. Bunda kurort joylarning geografik iqlim sharoiti, qulay harorat, o'rtacha namlik, quyosh nurlari juda ham yuqori qizdirmaydigan sharoitlari yetakchi o'rin tutadi.

## QANDSIZ DIABET — SABABLARI, TASHXISLASH, DAVOLASH VA PARHEZ

To'xtasinova S. I., Asqarova T. M., Ulug'bekova F.R.

2-Marg'ilon Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi  
texnikumi "Ichki kasalliklar kafedrası" Marg'ilon shaxar,  
O'zbekiston Respublikasi

Qandsiz diabet yoki qandsiz siydik tanqisligi — vazopressin (antidiuretik gormon) yetishmovchiligi tufayli kuchli chanqoqlik va buyraklarni ko'p miqdorda past konsentratsiyali siydik ajratishi bilan tavsiflanadigan kasallikdir. Bu noyob kasallik ayollar, erkaklar va bolalar orasida teng ravishda kuzatiladi. Biroq 18 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan yoshlar ko'proq kasallanishga moyildir. Vazopressin — gipotalamusda sintez qilinadigan (ishlab chiqariladigan) gormon bo'lib, keyin u gipofizga tushadi va u yerdan qonga o'tadi.

Vazopressinning sintezi asosan natriy bilan nazorat qilinadi: qonda natriy konsentratsiyasining ortishi bilan gormon ishlab chiqarilishi oshadi, kamayganda esa kamayadi. Bundan tashqari, stressli vaziyatlarda, organizmda suyuqlikning kamayishida va nikotin kirishida gormonning sintezi kuchayadi.

Shuningdek, vazopressin ishlab chiqarilishi arterial bosimning ortishida, renin-angiotenzin tizimining zaiflashuvida, tana haroratining pasayishida, spirtli ichimliklar va ba'zi dorilar (masalan, klopelin, galoperidol, glyukokortikoidlar) qabul qilishda kamayadi.

**Tadqiqot maqsadi.** Qandsiz diabetning odatiy holatlardagi belgilaridir. Biroq, kasallikning namoyon bo'lishi erkaklar va ayollar, shuningdek, bolalarda birmuncha farq qilishi mumkin.

### *Erkaklarda*

Yuqorida ko'rsatilgan belgilarga qo'shimcha ravishda libidoning (qarama-qarshi jinsga bo'lgan qiziqish) va potentsiyaning (jinsiy quvvatning) pasayishi qo'shiladi.

### *Ayollarda*

Kasallik odatiy belgilar bilan kechadi. Biroq, ba'zan ayollarda hayz sikli buziladi, bepushtlik rivojlanadi, homiladorlik esa o'z-o'zidan homila tushishi bilan yakunlanadi.

### *Bolalarda*

Uch yoshdan katta bolalar va o'smirlarda kasallik belgilari deyarli kattalarnikiga o'xshash bo'ladi.

Biroq, ba'zan kasallik belgilari yaqqol namoyon bo'lmaydi: bola yomon ovqatlanadi va vazni ortadi, ovqat qabul qilishda tez-tez qayt

qilishdan aziyat chekadi, qabziyat va kechalari siydik tuta olmasligi bo'ladi, bo'g'imlardagi og'riqdan shikoyat qiladi. Bunday holda, tashxis kech qo'yiladi, bola jismoniy va ruhiy rivojlanishda orqada qolib bo'lgan bo'ladi.

Lekin yangi tug'ilgan chaqaloqlar va biroz kattaroq go'daklarda (ayniqsa nefrogen turida) kasallikning namoyon bo'lishi kattalarnikidan farq qiladi va yorqin namoyon bo'ladi.

Bir yoshgacha bo'lgan bolalarda kasallik belgilari quyidagicha bo'ladi:

- Chaqaloq ona sutidan ko'ra suvni afzal ko'radi, lekin ba'zan chanqoqlik bo'lmaydi;
- Chaqaloq tez-tez va ko'p miqdorda siyadi;
- Tashvishlanishi mavjud bo'ladi;
- Tana vazni tezda yo'qotiladi (bola tom ma'noda «ko'z oldida» ozib ketadi);
- To'qimalarning turgori pasayadi (agar teri bir qavatga to'planib, qo'yib yuborilsa, u normal holatga asta-sekin qaytadi);
- Ko'z yosh oz bo'ladi yoki umuman bo'lmaydi;
- Tez-tez takrorlanadigan qayt qilish kuzatiladi;
- Yurak ritmi tezlashadi;
- Tana harorati tezda ko'tarilishi va pasayishi mumkin.

Bir yoshgacha bo'lgan bolalar suv ichish istagini ifoda eta olmaydi, shuning uchun ko'pincha ularning holati yomonlashadi: hushini yo'qotadi va tutqanonqlar rivojlanishi mumkin. Afsuski, hatto ba'zan o'lim ham yuz beradi.

**Materiallar va usullar.** Shifokor bir nechta narsalarga aniqlik kiritadi:

- Bemor qancha suyuqlik ichishi va qancha miqdorda siydik chiqarishi.
- Agar uning hajmi 3 litrdan ko'p bo'lsa, bu qandsiz diabet foydasiga dalil bo'ladi.
- Tunda siydikni ushlab tura olmaslik va tez-tez ko'p miqdorda siyish (nikturiya) mavjudmi, shuningdek, bemorlar kechalari suvni ichadimi. Agar shunday bo'lsa, u holda ichiladigan suyuqlik va chiqariladigan siydik miqdori aniqlanishi kerak.
- Yuqori chanqoqlik psixologik sabablar bilan bog'liq emasmi. Agar alomatlar bemor sevimli mashg'ulotlari bilan shug'ullanganida, sayr qilishida yoki mehmonda bo'lganida kuzatilmasa, ehtimol, u psixogen polidipsiyaga ega.
- Qandsiz diabet rivojlanishiga turtki beradigan kasalliklar (o'smalar, endokrin kasalliklar va boshqalar) mavjudmi.

Agar barcha alomatlar va shikoyatlar bemorda, ehtimol, qandsiz diabet mavjudligidan darak bersa, ambulatoriya sharoitida quyidagi taqiqotlar amalga oshiriladi :

- Siydikning osmolyarligi va nisbiy zichligi (buyraklarning filtrlash funksiyasini xarakterlaydi), shuningdek qon zardobining osmolyarligi aniqlanadi;
- Bosh miya kompyuterli tomografiyasi yoki magnit-yadroviy tomografiyasi;
- Turk egati va bosh suyagi rentgenogrammasi;
- Exoensefalografiya (EEG);
- Ekskretorli urografiya;
- Buyrak UT tekshiruvi;
- Qon zardobida natriy, kaltsiy, kaliy, azot, mochevina, glyukoza (qand) darajasi aniqlanadi;
- Zimnitskiy testi.

Bundan tashqari, bemorni nevropatolog, okulist va neyrojarrohlar ham tekshiradi.

Laboratoriya ma'lumotlariga asoslanib, qandsiz diabet tashxislanishi mezonlari quyidagilardan iborat:

- Qonda natriyning ko'payishi (155 mEkv / l dan ortiq)
- Qon plazmasi osmolyarligining ortishi (290 mosm/kg dan ortiq)
- Siydik osmolyarligining pasayishi (100-200 mosm / kg dan kam)
- Siydik nisbiy zichliging pastligi (1010 dan kam)

Siydik va qonning osmolyarligi me'yoriy chegaralar oralig'ida bo'lsa-da, bemorning shikoyati va alomatlari qandsiz diabet mavjudligini ko'rsatsa, suyuqlikni cheklash bilan test o'tkaziladi. Sinovning mazmuni shundaki, organizmga suyuqlikni kam miqdorda tushishi muayyan vaqtdan (odatda 6-9 soatdan) keyin vazopressin ishlab chiqarilishni rag'batlantiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu test nafaqat tashxis qo'yish, balki patologiyaning turini aniqlash imkonini ham beradi.

**Natijalar.** Kechasi uxlab uyg'ongandan so'ng, bemorning och qoringa vazni, arterial bosimi va pulsi o'lchanadi. Bundan tashqari, qonda natriyning miqdori va qon plazmasining osmolyarligi, siydikning osmolyarligi va nisbiy zichligi aniqlanadi.

Shundan so'ng bemor chiday olgunicha eng uzoq vaqt davomida suyuqliklar (suv, sharbat, choy) ichishni to'xtatadi. Keyin muntazam ravishda (har bir yoki ikki soatda), bemor og'irligi o'lchanadi va barcha laboratoriya testlari takrorlanadi.

Bemorda sinov o'tkazish to'xtatiladi, agar:

- Tana vaznini yo'qotish 3-5% dan oshib ketsa;
- Chidab bo'lmas chanqoqlik kuzatilsa;

- Umumiy holat keskin yomonlashsa (ko'ngil aynishi, qusish, bosh og'rig'i, yurak urishi tezlashishi);
- Qonning natriy va osmolyarlik darajasi me'yoriy raqamlardan oshib ketsa.

Sinov natijalari nimani anglatadi?

Qonning natriy va osmolyarlik darajasining oshishi, shuningdek, tana vaznining 3-5% ga kamayishi markaziy qandsiz diabet mavjudligini ko'rsatadi.

Ajraladigan siydik miqdori kamayishi va vazn yo'qotmaslik, shuningdek natriy ko'rsatkichlarining normal qiymatlarda bo'lishi, buyrakli qandsiz diabet mavjudligini anglatadi.

Ushbu test natijasida qandsiz diabet mavjudligi tasdiqlansa, keyingi tashxislash uchun minirinli test o'tkaziladi.

**XULOSA.** Avvalo, iloji bo'lsa, kasallikka sabab bo'lgan xastalik bartaraf qilinadi. Shundan so'ng qandsiz diabet shakliga qarab dori-darmonlar belgilanadi. Bemor siydik bilan qancha miqdorda suyuqlik yo'qotishini hisobga olgan holda olib boriladi:

- Agar siydik miqdori sutkada to'rt litrdan past bo'lsa, dori preparatlari buyurilmaydi. Faqatgina yo'qotilgan suyuqlikni o'rnini to'ldirish va parhez tutish tavsiya etiladi.
- Siydikning miqdori kuniga to'rt litrdan ko'p bo'lsa, vazopressin o'rnini bosuvchi yoki uning ishlab chiqarilishini rag'batlantiruvchi moddalar belgilanadi.
- Ushbu kasallikda ovqatlanish chanqoqlik va ko'p miqdorda siydik ajralishini kamytirish, shuningdek siydik bilan chiqib ketadigan oziq moddalar o'rnini to'ldirishga qaratiladi.
- Shuning uchun, avvalambor, tuz ishlatilishi cheklanadi (kuniga 5-6 grammdan oshmasligi kerak), ovqatga tuz solinmaydi.
- Quritilgan mevalar foydalidir, chunki ular tarkibida kaliy mavjud bo'lib, u endogen vazopressin ishlab chiqarilishini ko'paytiradi. Bundan tashqari, chanqoqni kuchaytirmaslik uchun shirinliklardan voz kechish kerak. Shuningdek, spirtli ichimliklar ichishdan saqlanish tavsiya etiladi.
- Taomnomaga yetarli darajada yangi sabzavotlar, mevalar, rezalar, sut va sut mahsulotlari kiritiladi. Bundan tashqari, sharbatlar, kompotlar, mevali ichimliklar foydalidir.

- Organizmga fosfor tushishi ham juda muhim (bu miyaning normal ishlashi uchun zarur), shuning uchun yog'siz baliq, dengiz mahsulotlari va baliq yog'ini iste'mol qilish tavsiya etiladi.
- Bundan tashqari, yog'siz go'sht va tuxum sarig'i foydali bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, qandsiz diabetda buyraklarga yuk tushirmaslik uchun oqsillarni cheklash kerak. Lekin yog'lar (masalan, saryog' va o'simlik moyi) va uglevodlar (kartoshka, makaron va boshqalar) taomnomada yetarli miqdorda bo'lishi kerak.
- Oziq-ovqat mahsulotlarini bo'laklarga bo'lib qabul qilish tavsiya etiladi: kuniga 5-6 marta.
- Bu tavsiyalarning barchasi 7 yoki 10-raqamli parhez stoliga mos keladi.

## INFEKSION MONONUKLEOZ KLINIK KECHISHI, DAVOLASHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

Qodirova G.A

Farg 'ona jamoat salomatligi instituti

Dolzarbligi:

Infektsion mononukleoz — Epshtein-Barr virus (EBV) tufayli kelib chiqadigan virusli kasallikdir. Bu virus asosan o'smirlar va yoshlar o'rtasida tarqaladi, lekin har qanday yoshdagi insonlar ham kasallanishi mumkin. Kasallik asosan og'iz orqali yuqadi, bu esa ko'pincha "yoqimli" kasallik deb ataladi. Infektsion mononukleozning belgilari ko'p hollarda yengil bo'lishi mumkin, lekin ayrim bemorlarda jiddiy asoratlar kelib chiqishi mumkin. Kasallikning dastlabki belgilari orasida charchoq, harorat ko'tarilishi, tomoq og'rig'i va limfa tugunlarining kattalashishi ko'rsatiladi. Bu kasallik ko'pincha bir necha hafta davomida davom etadi va ko'plab bemorlar to'liq tiklanishdan oldin charchoq va zaiflikni his qiladilar. Davolash va vaqtida tashxis qo'yish, shuningdek, kasallikning tarqalishini kamaytirish maqsadida aholini xabardor qilish muhimdir.

Tadqiqot usullari:

Ushbu tadqiqotda infektsion mononukleoz bilan kasallangan 100 nafar bemor tanlab olingan. Tadqiqot so'rovnomasi orqali bemorlarning kasallik haqida ma'lumot darajasi, turmush tarzi, jismoniy faoliyati va ijtimoiy-

gigienik sharoitlari o'rganildi. So'rovlar o'tkazish jarayonida bemorlarning qanday oziq-ovqat iste'mol qilishlari, qanchalik jismoniy faol ekanliklari va salomatliklari haqida ma'lumotlar to'plandi. Anketalar yordamida bemorlarning o'z-o'zini parvarishlash usullari ham ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijalari va bemorlar orasida kasallik tarqalishi bilan bog'liq omillar aniqlandi. Bu jarayonda jismoniy faoliyatning ahamiyati va kasallikning oldini olishda salomatlikni saqlash usullari muhim o'rin tutadi.

Tadqiqot natijalari:

So'rovnoma natijalariga ko'ra, bemorlarning 60% i kasallik haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasligi ma'lum bo'ldi. "Kasallikning sababi nima?" savoliga 75% bemor javob bera olmadilar. Bu aholi orasida kasallik haqida bilim yetishmasligini ko'rsatadi. Bemorlarning 40% i to'g'ri ovqatlanmaslik va jismoniy faollikning yetishmasligi tufayli salomatliklarini yomonlashtirishlarini ta'kidladilar. Shuningdek, 50% bemorlar stress va ruhiy holatning salomatlikka ta'sirini e'tirof etishdi. Ba'zi bemorlar o'zlarining ahvolini yaxshilash uchun xalq tabobati usullarini qo'llashni afzal ko'rganlar. Ushbu natijalar, kasallikning tarqalishida ijtimoiy va iqtisodiy omillarning o'rnini ko'rsatadi. Shuningdek, aholi o'rtasida kasallikni aniqlash va davolash usullarini yaxshilash zarurligi haqida gapiradi.

Kasallikning belgilari:

Infektsion mononukleozning asosiy belgilaridan biri harorat ko'tarilishidir, bemorlarda odatda 38-40 daraja Selsiygacha harorat ko'tariladi. Tomoq og'rig'i va shishishi kasallikning yana bir muhim belgisidir. Bu og'riq va qiyinchilik bemorlar uchun juda noqulaylik tug'dirishi mumkin. Limfa tugunlarining kattalashishi ko'plab bemorlarda seziladi, ayniqsa bo'yin va quloq atrofida. Charchoq va jismoniy zaiflik, bemorlarning odatdagi faoliyatini bajarishda qiyinchilik tug'diradi. Ba'zi hollarda, kasallik asoratlar keltirib chiqarishi mumkin, masalan, jigar yallig'lanishi. Ko'pgina bemorlar kasallikdan so'ng, uzoq vaqt davomida zaiflik va charchoqni his qilishadi. Kasallikni davolashda ko'pincha shifokor tavsiyalari va rejalariga amal qilish zarur. Bemorlar ko'pincha suyuqlik iste'mol qilish va dam olishni tavsiya qilinadi. Davolash usullarida ko'pincha og'riq qoldiruvchi vositalar va simptomatik davolash usullari qo'llaniladi.

Xalq tabobati usullari va ilmiy tadqiqotlar:

Infektsion mononukleozni davolashda xalq tabobati usullari ham muhim ahamiyatga ega. Ko'plab an'anaviy usullar kasallik belgilari va simptomlarini yengillashtirishda foydali bo'lishi mumkin. Misol uchun, ko'k chuchuk (chamomile), zira va kekik kabi o'tlar bemorlarning umumiy holatini yaxshilashga yordam beradi. Ushbu o'tlarning antimikrobiyal va yallig'lanishga qarshi xususiyatlari mavjud. Ilmiy tadqiqotlar esa, masalan, chamomile va zanjabilning immunitetni oshirishdagi foydali ta'sirini ko'rsatadi. Bunday tadqiqotlar xalq tabobati usullarining ilmiy asosini yaratadi va ularni an'anaviy tibbiyot bilan birlashtirish imkoniyatini ochadi. Ayrim tadqiqotlar ko'rsatmoqda, bu usullar kasallikni yengillashtirishda va bemorlarning umumiy holatini yaxshilashda yordam beradi. Xalq tabobati usullarini qo'llash, zamonaviy tibbiyot bilan birgalikda, kasallikning davolanishini samarali qiladi.

Xulosa:

Infektsion mononukleozning tarqalishi ijtimoiy-gigienik sharoitlar bilan bog'liqdir. Bemorlarning umumiy salomatlik holati, turmush tarzi va o'z-o'zini parvarishlash usullari kasallikning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun, aholini kasallik belgilari va tarqalishi haqida xabardor qilish dolzarb vazifalardan biridir. Kasallikning oldini olish uchun sog'lom turmush tarzini joriy etish va o'z-o'zini parvarish qilish muhim ahamiyatga ega. Oziqlanish, jismoniy faoliyat va stressni boshqarish orqali kasallikning oldini olish mumkin. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, kasallikni davolash va uning oldini olishda umumiy jamiyatning roli juda katta.

# **FARG‘ONA VILOYATI SHAROITIDA YETISHTIRILAYOTGAN AHOLI ISTE‘MOLIDAGI BUG‘DOY VA DON MAHSULOTLARINING AHOLI SALOMATLIKDAGI O‘RNI.**

**Mamatova M. A.**

## **O‘zRFA Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti**

Bugungi kunda jahon aholisining tez suratlarda o'sib borishi bilan bir qatorda o'lim jarayonini, ayniqsa, uning ayrim turdagi ommalashib borayotgan kasalliklarini kamaytirish zaruriyati nafaqat xalqaro miqyosda, qolaversa mintaqaviy darajada tadqiq etish lozimligidan dalolat beradi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 70sessiyasida qabul qilingan rezolyutsiyasida «Jismoniy va aqliy salomatlikni mustahkamlash, farovonlik va o'rtacha umr ko'rishni oshirish uchun aholini sifatli tibbiy xizmat bilan ta'minlash va undan foydalanish imkoniyatini kengaytirishni ta'minlashimiz, 2030 yilga qadar go'daklar, bolalar va onalar o'limi darajasini kamaytirishga erishishimiz zarur»<sup>1</sup> - ekanligi alohida ta'kidlab o'tildi. Shu sababdan, aholi o'limi ko'rsatkichlarini kamaytirish, jumladan, demografik jarayonlar bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini hududiy tashkil etishni yanada takomillashtirish, tanatogeografik va nozoekologik vaziyatni optimallashtirishni hozirgi kunning dolzarb masalalari qatoriga kiradi.

FAO ma'lumotlariga ko'ra oziq ovqat xavfsizligi yomonlashgani tufayli yani, 1970-80 yillarda barcha mamalakatlarda epidemiologik vaziyatning oziq- ovqat bo'yicha salbiy tomonga siljiganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Aynan shu davrdan boshlab aholi istemolidagi yengil xazm turidagi mahsulotarning ko'payganligi, mikroelementlarning kamayganligi, balog'at yoshidagi 13% aholi semirish kasalligiga uchraganligi, bundan tashqari jag' anamaliyalarning sezilarli o'sib brayotganini, donli ekinlarning kepaklanish jarayonidan ko'proq aholi talabiga moslab albatta un mahsulotlarining tozalanganlik ishlarining boshlanganligini statistik taxlillar asosida ko'rishimiz mumkin<sup>2</sup>.

Albatta bunday oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha qilinadigon ishlar, tadqiqotlar olib borishga undaydigon tajribalar aholi salomatligi va turli kasalliklarning oldini olishdagi muammolarning yechimidagi yaxshi ko'rsatkichlardan bo'la oladi. Tadqiqot ishimiz so'rovnomalar asosida istemoldagi don ozuqasining o'rganishlar natijasida aniqlandiki, bu

---

<sup>1</sup> Повестка дня в области устойчивого развития на период до 2030 года.  
[www.undp.org/content/uzbekistan/ru](http://www.undp.org/content/uzbekistan/ru)


<sup>2</sup> „Donchilik“ ma'lumotnoma. Ruschadan tarjima. –Toshkent: „Mehnat“, 1989 y

boshqoli o'simliklardan don va don bioaktiv mahsulotlari bo'lib, aholi istemolidagi ochlikni o'rnini bosa oladigon asosida boshqoli don mahsulotlari ekilgan xuddagi tuproqning kimyoviy va ozuqaviy tarkibini o'rganishdan boshladik. Aholi istemolidagi mahsulotlarning eng yuqori mineral moddalarga boyitilgan to'yimliyligi bo'yicha, ozuqaviyligi va ko'p istemoli bo'yicha don va don mahsulotlarining o'rni juda katta ahamiyat kasb etadi. Yetishtirish texnologiyasi bo'yicha agrotexnik talablarga bo'lgan munosabatni yaxshilanishi sifatli yuqori hosildorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Tadqiqot usullari.** Farg'ona viloyati sharoitida aholi istemolidagi don va don mahsulotlarining kimyoviy tarkibini aniqlash, biologik tarkibini mikroelementlar bilan boyitilishga qaratilgan agrotexnik talabalarni izchilligini taminlashga qaratilgan chora tadbirlarni samarasini oshirish.

Tajribamizni O'zRFA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiya insituti, "Donli ekinlar genetikasi, seleksiyasi" urug'chiligi laboratoriyasida olib borildi.

1rasm. Quva tumani klekovina miqdori



Kleykovina fraksiyasining ikkita asosiy komponenti gliadin va glyutenin tashkil etib don tarkibidagi barcha oqsillarning 80-85% tashkil etadi. Kleykovina miqdori 7dan 50% gacha o'zgarib turadi va etishtirish sharoitlariga va nav xususiyatlariga bog'liq. Past haroratlarda glyuten kamroq to'planadi. Bu ikki kompanet tuzilishi va funktsionalligi bilan bir

biridan farq qiladi. Gliadin asosan kleykovinaning yopishqoqligini, glyutenin esa elastikligini ta'minlaydi<sup>3</sup>.

**Xulosa.** Taxlillarga qaraydigan bo'lsak Kleykovina 100 g mahsulot uchun 13,8 g uglevodlarni o'z ichiga oladi, bu har bir xizmat uchun umumiy energiyaning taxminan 14% yoki 55 kkal. Kaloriya tarkibi - 370 kkal. Gluten tarkibi: Yog'lar - 1,85 g, Proteinlar - 75,16 g, Uglevodlar - 13,79 g, Suv - 8,20 g, Kul - 1,00 g. Hozirgi oziq-ovqat sanoatining globallashuv davridagi havfsiz va toyintirish xususiyati yuqori, mikroelementlar bilan boyitilgan kunlik ozuqasini to'g'ri taqsimlanishni o'rganishimiz kerak. Ayni paytda populyatsiyaning o'sish va ko'payish bo'g'inini kunlik vitaminlarga to'la bo'lishini nazorat qilib borishimiz tavsiya qilinadi. Kunlik aholi istemolidagi ratsion tarkibidagi mikroelementlar va oqsillar balansini to'g'irlash organizim funksional holatining yaxshilanishi uchun xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar

1. Повестка дня в области устойчивого развития на период до 2030 года. [www.uz.undp.org/content/uzbekistan/ru](http://www.uz.undp.org/content/uzbekistan/ru)
  2. Аманов А. и др. Перспективы нового сорта озимой пшеницы "Дустлик" в Узбекистане. // Вестник. Региональной сети по улучшению озимой пшеницы Центральной Азии и Закавказья. А.: 2001. №2. С. 40-43.
  3. Abduxalilovna, M. M. (2023). BUG'DOY O'SIMLIMLIGINING SHAKLLANISH JARAYONI VA O'STIRISH TEXNOLOGIYASI. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(1), 60-62.
1. "Donchilik" ma'lumotnoma. Ruschadan tarjima. –Toshkent: "Mehnat", 1989 y.

---

<sup>3</sup> Аманов А. и др. Перспективы нового сорта озимой пшеницы "Дустлик" в Узбекистане. // Вестник. Региональной сети по улучшению озимой пшеницы Центральной Азии и Закавказья. А.: 2001. №2. С. 40-43

# **ФАГЛАРНИ БИР-БИРИДАН ФАРҚЛАШ МЕТОДЛАРИ ВА ЗАМОНАВИЙ ТИББИЁТДА ЮҚУМЛИ КАСАЛЛИКЛАРНИ АНИҚ ТАШХИС ҚЎЙИШДА ФАГЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ.**

**Фарғона жамоат саломатлиги тиббиёт институти**

**Ахмедов А., Рохаталиева А. Х.**

## **Кириш**

Фаглар, яъни бактерияларни йўқ қиладиган вируслар, турли биологик ва генетик хусусиятларга эга. Улар тиббиёт, биотехнология ва микробиологияда катта аҳамият касб этади. Фагларнинг турли хилларини аниқ фарқлаш ва тўғри классификация қилиш уларнинг самарали қўлланилиши ва тадқиқ этилиши учун муҳимдир. Фагларни аниқ фарқлаш учун қўлланиладиган методлар турли параметрлар асосида ишлаб чиқилган.

## **Тадқиқот мақсади**

Фагларнинг турли методлар орқали аниқ фарқланишини ўрганиш ва уларнинг ҳар бирини тўғри таснифлашда самарали усулларни қўллаш. Бактериофаглар (фаглар) бактерияларни йўқ қиладиган вируслардир. Улар аниқ бир бактерияларга хужум қилади ва бошқа тўқималарга зарар етказмайди. Бактерияларга чидамликка эга бўлмаганлиги сабабли, фаглар организмга оз зарар келтиради ва антибиотикларнинг таъсирини кучайтириш ёки уларни тўлиқ алмаштириш имконини беради.

## **Замонавий тиббиётда фаглардан фойдаланиш**

**Фаготерапия:** Ривожланган технологиялар асосида индивидуал тарзда беморнинг инфекциясига қараб аниқ фаглар танлаб олинади.

**Антибиотикларга муқобил:** Фаглар антибиотикларга чидамлик бактерияларга қарши самарали таъсир кўрсатади, бу эса глобал антибиотикларга чидамлик муаммосини камайтиради.

**Хирургик инфекцияларни даволаш:** Жараёнларда бактерияларни йўқ қилиш учун фаглардан фойдаланиш инфекцияларнинг тарқалишини олдини олади.

## **Замонавий тиббиётда фаглар бўйича илмий тадқиқотлар**

**Генетик инжиниринг:** Илмий тадқиқотлар фагларнинг генларини ўзгартириб, уларни кўпроқ турдаги бактерияларга хужум қилиш қобилиятига эга қилишга қаратилган.

**Фаг ва антибиотик комбинatsiяси:** Илмий тадқиқотлар фаглар ва антибиотикларни биргаликда қўллаш бактерияларни тезроқ йўқ қилиши ва антибиотик резистентлигини камайтиришини кўрсатмоқда.

**Клиник синовлар:** Европа ва АҚШда бир неча клиник синовлар ўтказилмоқда, улар фаготерапиянинг хавфсизлиги ва самарадорлигини исботлаш мақсадида.

### **Фагларнинг афзалликлари**

**Танланган таъсир:** Фаглар фақат муайян бактерияларга хужум қилади ва тананинг бошқа микробиомасига зарар келтирмайди.

**Инфекцияларга қарши кучли восита:** Чидамли бактерияларга қарши самарали ва организмдаги фойдали бактерияларга оз таъсир кўрсатади.

**Қатъий хавфсизлик ва ишончлилик:** Фаглар одатда инсон танаси учун хавфсиз бўлиб, янги дори воситалари сифатида кўрилмақда.

### **Келажакдаги ривожланиш**

**Иновatsiя ва келажак:** Фаглар тўлиқ персоналлаштирилган тиббиётда катта рол ўйнайди. Ҳар бир беморга аниқ турдаги фаглардан фойдаланиб даво қилиш келажакда фаол қўлланилиши мумкин.

**Шифохоналарда қўлланиш:** Тиббий асбобларни стериллаш, шифохонадаги инфекцияларни олдини олиш, ва янги антисептиклар ривожлантиришда қўлланилади.

**Фагларни аниқ фарқлаш ва классификatsiя қилишдаги ахамияти қуйидаги методлардан фойдаланилади:**

#### **1. Морфологик методлар:**

Электрон микроскопия: Фагларнинг тузилиши, капсид ва дўмбининг мавжудлиги ва шакли электрон микроскоп орқали кўрилади. Бу метод фагларнинг майда, ўрта ва катта ўлчамларини фарқлашда самарали.

Капсид ва дўмбининг ўлчами: Фагларнинг капсиди ва дўмбининг ўлчамлари турли хил бўлади ва бу орқали уларни классификация қилиш мумкин.

## **2. Генетик методлар:**

Нуклеин кислоталарининг тури: Фагларнинг геноми ДНК ёки РНК бўлиши мумкин, шунингдек, улар бир ипли ёки икки ипли бўлади. Бу метод фагларнинг асосий генетик тузилишини аниқлаш учун қўлланилади.

ПЦР (Полимераз занжир реакцияси): Фагларнинг генетик материални клонировка қилиш ва анализ қилиш учун қўлланилади. ПЦР орқали фагларнинг генетик кодларини аниқлаш мумкин.

## **3. Биологик методлар:**

Ҳужайраларга сезувчанлик: Фаглар ўз қабул қилувчи бактерияларига нисбатан махсусдир. Ҳар бир фаг фақат муайян бактерия турларига хужум қилади, шунинг учун ҳужайраларга сезувчанлик асосида фагларни фарқлаш мумкин.

Лизис шакли: Суюқ ёки қаттиқ озиқ муҳитда фагларнинг бактерияларни йўқ қилиши лизис шаклига қараб фарқланади. Суюқ муҳитда муҳит тиниқлашади, қаттиқ муҳитда тиниқ доғлар ҳосил бўлади.

Лизогеник ёки литик цикл: Фаглар лизогеник ва литик турларга бўлинади. Лизогеник фаглар бактерия геномида узоқ сақланиб, бактерияни ўлдирмайди. Литик фаглар эса бактерияни тез йўқ қилади.

## **4. Имунохимиявий методлар:**

Антигенлар аниқланиши: Фагларнинг антигенлари иммунологик реакциялар орқали аниқланади ва бу уларни турларга кўра таснифлашда самарали.

## **5. Кутилган натижалар**

1. Фагларни аниқ фарқлаш методлари уларнинг ҳар бирининг махсус хусусиятларини чуқурроқ ўрганиш имконини беради.
2. Бу методлар орқали фагларнинг турларини аниқлаш, уларни тиббиётда ва биотехнологияда самарали қўллаш имконияти ошади.

## **6. Хулоса**

1. Фағларни аниқ фарқлаш усуллари турли лаборатория жараёнларида фойдаланиш учун жуда муҳимдир. Турли морфологик, генетик биологик ва имунохимиявий методлар фағларнинг турлари ва хусусиятларини чуқур ўрганиш имконини беради.
2. Шу усуллар орқали фағларни тўғри классификация қилиш ва уларни турли соҳаларда татбиқ этиш жумладан юқумли касалликларни тарқалишини олдини олишда самарали усул бўлади.

### **Список использованных источников**

1. Состояние онкологической помощи населению Республики Узбекистан в 2020 году / под редакцией М. Н. Тилляшайхова, Ш. Н. Ибрагимова, С. М. Джанклич. – Ташкент: ИПТД «Узбекистан», 2021. – 176 с.
2. Aliyevich, A. A. (2024). EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF ANTI-EPIDEMIC MEASURES IN TREATMENT AND PREVENTION INSTITUTIONS. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(02), 51-52.
3. Avazbek A. The Specificity Of Coronavirus Infection To Itself (Gender), The Incidence Of Primary Clinical Signs In Patients And The Presence Of Psychoemotional Disorders //Open Academia: Journal of Scholarly Research. – 2024. – Т. 2. – №. 6. – С. 1-6.
4. Ахмедов А. А., Мамазоитова Н. СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАКА ШЕЙКИ МАТКИ ПО ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ //Talqin va tadqiqotlar. – 2024.

# МЕТОДЫ РАННЕЙ ДИАГНОСТИКИ И ПРОГНОЗА РЕЦИДИВОВ НЕЭПИТЕЛИАЛЬНЫХ ОПУХОЛЕЙ ЯИЧНИКОВ

Ё.Р.Рузибаева , А.А.Ражаббаев

ФМИОЗ, ТТА.

**Актуальность.** Рак яичников это наиболее частая форма злокачественных новообразований женских половых органов. Скрытое течение рака яичников, отсутствие эффективных программ ранней диагностики приводят к тому, что у 75% больных в момент постановки диагноза имеется распространенный опухолевый процесс. Гранулезоклеточные опухоли — самые частые гормонопродуцирующие новообразования яичников. Рецидивы неэпителиальных опухолей, по данным литературы, могут возникать через 5—30 лет после удаления самой опухоли, таким образом, пациентки с гранулезоклеточными опухолями яичника (ГКО) нуждаются в пожизненном мониторинге [1]. Учитывая, что наиболее вероятным источником развития этих опухолей является гранулеза примордиальных фолликулов яичника, ряд авторов предложили в качестве маркера гранулезоклеточных опухолей (ГКО) использовать ингибины — гликопротеиды которые наряду со стероидными гормонами вырабатываются клетками фолликулярного эпителия ГКО, а также рецидивами и метастазами этих новообразований [2]. Результаты исследований последних лет показали, что в сыворотке крови пациенток с ГКО яичников заметно повышается уровень иммунореактивного ингибина.

**Цель.** Разработать и усовершенствовать методы ранней диагностики рецидивов у больных с ГКО яичников путем определения содержания ингибина В, оценить значимость онкомаркера как рутинного метода диагностики.

**Материалы и методы.** Основным критерием отбора больных является гистологически подтвержденный диагноз гранулезоклеточной опухоли яичников. Все препараты были пересмотрены в соответствии с принятой для данной локализации опухолей Международной гистологической классификацией. Для выявления прогностических факторов развития рецидивов гранулезоклеточной опухоли яичников проводится многофакторный анализ по следующим параметрам: стадия заболевания, степень дифференцировки клеток первичной опухоли; вариант первичного

лечения; объем оперативного вмешательства; размеры остаточной опухоли; уровень опухолево-ассоциированного маркера ингибина В до начала лечения и скорость его падения после выполнения циторедуктивной операции. Главным критерием эффективности лечения является выживаемость больных в течение длительных сроков наблюдения, поэтому оценка полученных результатов производилась по критериям длительности безрецидивного периода и выживаемости больных.

**Вывод.** Проведен анализ динамики уровня ингибина В у пациенток, находящихся в ремиссии, при рецидиве и в ходе первичного лечения. Анализ результатов сравнительного исследования ингибина В, ФСГ, СА-125, эстрадиола показал, что их содержание в сыворотке крови больных с рецидивами и метастазами ГКО также у пациенток после гемикастрации достоверно отличается от такового у здоровых кастрированных пациенток. При проведении мониторинга выделены пациентки, которым в ходе оперативного вмешательства по поводу гранулезоклеточной опухоли были удалены оба яичника. Очень важным является тот факт, что основными местами синтеза ингибина в организме женщины являются яичники и плацента, в крови здоровых менопаузальных и кастрированных женщин уровень ингибина неопределим или крайне низок. При контрольном клиническом обследовании не было выявлено признаков заболевания. Каждый конкретный случай возникновения гранулезоклеточной опухоли и ее рецидивов сопровождается повышением в сыворотке крови уровней ингибина В, эстрадиола, снижением уровня ФСГ. Ингибин В обнаруживается в крови доклинического появления признаков рецидивов, коррелирует с их возникновением, падает после операции, снижается на фоне успешного лекарственного лечения, а в организме здоровых постменопаузальных и кастрированных женщин уровни ингибина неопределимы или крайне низки.

Уровень сывороточного ингибина В у пациенток с ГКО яичников, ее рецидивами и метастазами оказывался повышенным в 75%, повышение антигена обнаруживалось до клинического проявления признаков рецидива, отмечено снижение уровня ингибина В после оперативного лечения и на фоне успешного лекарственного лечения. В организме здоровых постменопаузальных и кастрированных женщин уровни ингибина В неопределимы или крайне низки. Все это позволяет сделать вывод о том, что ингибин

В соответствии с основными требованиями, предъявляемым к онкомаркерам, что позволяет судить о наличии заболевания, предсказать его возврат, в итоге судить о прогнозе заболевания.

### **Литература:**

1. Кержковская Н. С., Любимова Н. В., Жордания К. И. Диагностика и мониторинг гранулезноклеточной опухоли яичника // Современная онкология. 2021, № 2, том 3. 64—67
2. Burger H. G. et al. Exp Gerontol. 2020, № 35 (1). P. 33—39

## **AXOLINING SOG'LOM OVQATLANISHIDA MIKROELEMENTLARNI O'RNI. FTOR, MIS, RUX.**

**Ismoilov D. T., Qambarov B. B.**  
**Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti**

### **ANNOTATSIYA**

**Tadqiqot maqsadi.** Ushbu maqola inson salomatligida ovqatlanishning muhim ekanligi va ovqat tarkibidagi mikroelementlarning organizmdagi o'rni haqida. Mikroelementlarimizdan ftor, mis va ruxning organizm uchun qanchalik foydali ekanligi, bu elementlar bo'lmasa qanday holatlar yuz berishi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Inson salomatligi uchun organizmda vitamin va mineral moddalar yetarli miqdorda bo'lishi zarur. Aks holda tanada salbiy o'zgarishlar kuzatilib, jiddiy asoratlar kelib chiqishi mumkin. Mikroelementlar organizmda juda kam miqdorda (milligramm va mikrogramm) mavjud bo'lib qator vazifalarni bajaradi. Xususan, ferment tizimlarining tarkibiy qismlari hisoblanib, metabolizmni boshqarish jarayonlarida ishtirok etadi. Qayd etilgan elementlarning oziq-ovqatlar tarkibida ko'p yoki oz bo'lishi qator omillarga bog'liq. Masalan, o'simliklarning ko'k qismida tomir qismiga nisbatan ularning miqdori ko'proq. Quritilgan dukkaklilar, sabzavotlar va mevalar tarkibida yangi uzilganiga nisbatan, shuningdek, yosh hayvonlar go'shtida qarisiga nisbatan ko'proq mineral moddalar mavjud.

**Materiallar va usullar.** Inson organizmda ftor suyak to'qimalari, tish dentini va uning emali yaratilishini ta'minlaydi. Organizmdagi ftorning deyarli barchasi (99%) qattiq to'qimalarda yig'ilgan. Uning yumshoq to'qimalarda, masalan, tomirlar devorlarida ko'payishi kasallikdan darak beradi. Oziq-ovqatlar bilan organizmga tushadigan ftorning 75% ichimlik suvi va suyuq ovqatlar orqali qabul qilinadi. Bir litr ichimlik suvdagi ftorning miqdori 0,5 mg bo'lganda insonda uning yetishmovchiligi kuzatilib, birinchi navbatda, tishlarda kariyes

kasalligi rivojlanadi. Ushbu holatlarda uning oldini olish uchun suvni mazkur elementning suvda eruvchan elementlari bilan boyitish kerak bo'ladi. Aholi ichadigan ichimliklar orasida choy ftorga ko'proq boy mahsulot hisoblanadi. 100 gramm quruq choy bargida 90 mg gacha ftor mavjud. Damlangan 100 ml suyuq choydagi uning miqdori 0,1-0,4 mg ga teng. Choydan farqli o'laroq qolgan oziq-ovqatlar tarkibida ftor miqdori juda kam. Quyida biz ayrim 100 g mahsulotlar tarkibidagi ftor miqdorini mg larda keltiramiz: konservalangan sardina baliqlari (suyakli qismi bilan) – 0,2-0,4; qizil uzum vinosi va uzum sharbatida – 0,15-0,3; krablarda 0,2; baliqda 0,01-0,7; parranda go'shtida 0,17; non va yormalarda 0,05 0,07; mevalar sharbatida, salqin ichimliklarda, ba'zi sabzavot va ko'katlarda 0,01-0,06.

Mis mikroelementi hujayralarni kislorod bilan ta'minlash jarayonlarini boshqarish, qizil qon tanachalarini yetilishi va gemoglobin hosil bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, organizmdan oqsillar, uglevodlarning chiqarilishi, insulin faolligining so'ndirilishida ham ishtirok etadi. Unga bo'lgan kunlik talab 2,0 mg ga teng bo'lib, no'xat, sabzavotlar, rezavorlar, go'sht, jigar, baliq va non mahsulotlari hisobidan qoplanadi. Bir litr suv tarkibida ham taxminan bir mg ga yaqin mis mavjud. Inson organizmiga misning uzoq vaqt yetishmasligi temir tanqisligi kamqonligi, suyaklar mo'rtligi rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Uning ortiqcha to'planishi tibbiyot tilida «Vilson Konovalov» deb ataluvchi kasallik kelib chiqishiga sabab bo'ladi

Rux(sink) – barcha fermentlar tarkibiga kiruvchi yagona metall bo'lib, uning o'rnini boshqa metall bosa olmaydi. Rux ko'plab modda almashinuvi jarayonlarida ishtirok etib, tanadagi barcha hujayralarning normal ishlashini ta'minlaydi. Ruxning organ va to'qimalardagi miqdori shu a'zolarining faoliyatida qanchalik ahamiyatga egaligini bildiradi. Ruxga boy bo'lgan a'zolar: gipofiz, ko'z to'r pardasi, prostata bezi (150 mg dan oshiq), jigar, buyrak, mushak, soch, suyak (100 mg dan oshiq). Bosh miyadagi metallar ichida rux va temir eng ko'p qismini tashkil etadi, rux-temir indeksi 1 ga teng, boshqa a'zolarida bu nisbat ancha past bo'ladi. Uglevodlar, yog'lar, oqsillar va nuklein kislotalar sintezi va parchalanishi organizmni rux bilan ta'minlanishiga bevosita bog'liq. Organizmdagi rux zahirasining 20 foizi suyak to'qimasida joylashgan bo'ladi. Ruxning suyak to'qimasiga kirish tezligi kalsiyga nisbatan yuqori bo'ladi va suyak to'qimasida mushak to'qimasiga nisbatan uzoq saqlanadi. Aniqlanishicha, rux kalsiy va fosfor so'rilishini hamda almashinuvini kuchaytiradi, shuningdek, kollagen tolalar sintezini ham kuchaytiradi. Bu esa teri elastikligini oshiradi va suyak yuzasini shakllanishini ta'minlaydi. Shuning uchun rux yetishmovchiligi osteoporoz rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Ushbu mikroelement qator muhim fermentlar tarkibida mavjud bo'lib,

oksidlanish tiklanish, to'qimalarni nafas olishini ta'minlash, organizmning o'sish hamda rivojlanish, asab tizimi va oshkozon osti bezida insulin ishlab chiqarish jarayonlarida qatnashadi. Uning tanqisligi nafaqat yuqoridagi holatlar, balki jinsiy bezlar va bosh miyadagi gipofiz faoliyatining susayishiga ham sabab bo'ladi. Mol, tovuq va g'oz go'shti, baliq va mol jigari, loviya, no'xat, makkajo'xorida yetarli darajada, shuningdek, sut, olma, nok, kora olxo'ri, olcha, karam, lavlagi, sabzi, kartoshka tarkibida ham ozroq miqdorda rux mavjud. Organizmning unga bo'lgan bir kunlik talabi 10-12 mg ni tashkil etadi. Tarkibida oltingugurtli aminokislotalar mavjudligi sababli hayvon mahsulotlaridagi rux organizmda yaxshirok o'zlashtiriladi. Aksincha, o'simlik mahsulotlarida mavjud bo'lgan fitatlar uning so'rilishini pasaytiradi. Inson uchun zarur bo'lgan ruxning 2/3 qismidan ko'prog'i hayvon mahsulotlari orqali organizmga tushadi. Bolalarda ruxning tanqisligi pakanalik, kamqonlik, aqliy rivojlanishning sekinlashishi kabi holatlarga olib keladi. Kattalarda esa teridagi o'zgarishlar, ta'm va hid bilishning buzilishi, suyaklar zichligi va mustahkamligining pasayishi, moslashuv jarayonining susayishi kabi o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Shuning uchun oziq-ovqatlar bilan organizmga zarur darajadagi rux mikroelementining tushib turishi muhim ahamiyatga ega ekanligini unutmaslik lozim. Shu o'rinda rux tanada ortiqcha yig'ilib qolmasligi va ichaklar orqali chiqib ketishini eslatib o'tmoqchimiz.

**Natijalar.** Ruxning biologik ta'sirlari: Antioksidant; Oqsil, DNK, RNK sintezida; Hujayrani bo'linishi, o'sishi va regeneratsiyasida; Teri, tirnoq va sochlarning me'yorida o'sishi; Yaralarni bitishi va epitelizatsiya jarayonini tezlatadi; Tana va skelet vaznini oshishida; O'sish gormoni, gonadotropin va kortikotropin sintezida; Kaltsiy va fosfor almashinuvi va so'rilishida; Teri elastikligini ta'minlovchi kollagen tolalar hosil bo'lishida; Bo'g'im yuzasini shakllanishida; Sariq dog' degeneratsiyasi va kataraktani oldini oladi; Immunitetni oshiradi; O'smalarga qarshi (antikansirogen) ta'siri; Insulin sintezida ishtirok etadi va yog'-uglevod almashinuvini boshqarishda; Miyaning normal faoliyati va eslab qolish qobiliyatini kuchaytirish uchun; Ishtaha va ta'm bilish sezgisini me'yorga keltiradi; Qon ishlab chiqarishda ishtirok etadi va kamqonlikni oldini oladi; Erkaklik gormoni – testosteronni ishlab chiqarishida va sperma hosil bo'lishida; Alkogolni organizmdan chiqarib tashlashda; Rux – kuchli tabiiy antioksidant.

Rux kuchli tabiiy antioksidant bo'lgan superoksidismutaza fermentini aktiv qismiga kiradi. Bu ferment organizmda doimiy paydo bo'lib turadigan, o'ta zararli bo'lgan superoksid erkin radikalini zararsizlantiradi. Askorbin kislotasi rux bilan birga ishlatilganda antioksidant ta'siri yana ham oshadi. Rux va askorbin kislotasining antioksidant xususiyati ko'zda katarakta rivojlanishi

hamda sariq dog‘ degeneratsiyasini oldini olishda ishlatiladi. Rux ko‘zning to‘r pardasida yig‘ilib, A vitaminining o‘zlashtirilishiga yordam beradi. Ko‘z to‘r pardasidagi retinol bog‘lovchi oqsil ish faoliyati ham ruxga bevosita bog‘liq.

**Xulosa.** Mikroelementlar organizm uchun muximdir chunki bu elementlar organizmimiz qurilishi rivojlanishi va to‘liq moddalar almashinuvi bo‘lishi uchun muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun ovqat tarkibida bu moddalar to‘liq bo‘lishi va ovqat ratsioni yaxshi bo‘lishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. SH.I.Karimov Sog‘lom ovqatlanish-Salomatlik mezoni
2. F.I.Salomova, L.K.Abdukadirova Mutaxassislikka kirish darsligi
3. <https://kun.uz/news/2016/11/02/inson-organizmi-ucun-ruh-kancalik-aamiatga-ega?q=%2Fuz%2Fnews%2F2016%2F11%2F02%2Finson-organizmi-ucun-ruh-kancalik-aamiatga-ega>
4. <https://uz.iaomt.org/Resurslar/florid-faktlari/ftor-ta%27sirida-inson-salomatligi-uchun-xavfli/>
5. <https://www.savol-javob.com/organizmda-mis-cu-yetishmasligi-belgilari>

## **ПАНИЧЕСКИЕ АТАКИ: ПРИЧИНЫ И ПРОФИЛАКТИКА**

Мамадалиев М. Р. , Абдуганиева А. Ё.

Ферганский медицинский институт общественного здоровья

Панические атаки — это внезапные приступы интенсивного страха или дискомфорта, которые сопровождаются разнообразными физическими и эмоциональными симптомами. Они могут возникать в разных ситуациях и зачастую мешают повседневной жизни человека. Важно понимать причины панических атак и знать методы их профилактики для улучшения психического здоровья и качества жизни.

Панические атаки имеют сложную природу, и их возникновение обусловлено взаимодействием множества факторов, среди которых можно выделить:

Исследования показывают, что склонность к тревожным расстройствам и паническим атакам может передаваться по наследству. Люди с родственниками, страдающими паническими атаками, имеют повышенный риск их возникновения.

Постоянный стресс, страх перед неизвестностью, накопленные эмоциональные переживания и психологические травмы могут способствовать развитию панических атак. Личности с низкой самооценкой или высоким уровнем тревожности также подвержены риску. Нарушения в работе центральной нервной системы и гормональный дисбаланс, особенно связанный с уровнем адреналина и кортизола, могут способствовать развитию панических атак. Это также относится к проблемам со сном и хроническому переутомлению. Стрессовые события, такие как развод, потеря близкого человека или финансовые трудности, могут вызвать панические атаки. Переутомление, изоляция, резкие изменения в жизни, такие как переезд или смена работы, также могут влиять на их появление. Так же некоторые заболевания, такие как гипертиреоз или сердечно-сосудистые патологии, могут вызывать симптомы, похожие на панические атаки. Факторы, такие как чрезмерное употребление кофеина, алкоголя или наркотических веществ, также могут способствовать их появлению. Панические атаки характеризуются разнообразными симптомами, которые могут включать:

учащенное сердцебиение и сердцебиение "в ушах";

потливость и озноб;

дрожь и ощущение онемения в конечностях;

затрудненное дыхание и чувство удушья;

головокружение и предобморочное состояние;

ощущение потери контроля над ситуацией или над своим телом.

Профилактика панических атак направлена на укрепление психического здоровья и повышение устойчивости к стрессу. Физические упражнения помогают снизить уровень стресса и тревожности, а также улучшают настроение за счет выработки эндорфинов. Рекомендуется уделять время физическим нагрузкам не менее трех раз в неделю. Кроме того практика дыхательных техник и медитации так же помогает профилактике панических атак. Глубокое дыхание и медитация способствуют снижению уровня стресса и контролю над реакцией организма на стрессовые ситуации. Такие техники, как йога, прогрессивная мышечная релаксация и медитация, помогают успокоить нервную систему. Сбалансированное питание, достаточное количество сна и отказ от вредных привычек, таких как злоупотребление кофеином и алкоголем, способствуют улучшению психического и физического состояния. В некоторых случаях дает положительный эффект психотерапия и консультация специалистов. Методы когнитивно-поведенческой терапии (КПТ) оказывают положительное влияние на людей, страдающих паническими атаками. КПТ помогает распознавать и изменять негативные мысли и поведенческие реакции, вызывающие тревожность. Тренировка стрессоустойчивости может включать планирование и управление временем, чтобы избежать перегрузок, а также обучение методам управления эмоциями и навыкам расслабления. Окружение из поддерживающих друзей и близких, а также участие в социальных группах, способствует снижению уровня тревожности. Панические атаки могут оказывать значительное влияние на качество жизни, но с пониманием их причин и с помощью эффективных профилактических мер можно научиться контролировать их

появление и снизить частоту атак. Работая над собственным психическим здоровьем, каждый человек может повысить свою стрессоустойчивость и укрепить свое состояние, значительно снижая риск появления панических атак.

## **РАСПОЗНАНИЕ ИЗМЕНЕНИЙ В БИОХИМИЧЕСКИХ ПРОЦЕССАХ И ПРОФИЛАКТИКА ЗАБОЛЕВАНИЙ.**

Абдуганиев Ё.Г.

Ферганский государственный университет

Современная медицина активно использует достижения науки и технологий для более точного понимания биохимических процессов в организме человека. Биохимические процессы — это совокупность реакций, происходящих в организме, которые поддерживают его жизнедеятельность. Они включают метаболизм (обмен веществ), гликолиз (распад глюкозы для получения энергии), липидный обмен и другие процессы. Глубокое понимание биохимических процессов важно не только для диагностики и лечения заболеваний, но и для их профилактики. Современные методы диагностики позволяют выявить нарушения на самых ранних этапах.

Анализ крови и мочи. Эти базовые исследования дают информацию о состоянии внутренних органов, уровнях глюкозы, холестерина, электролитов и многих других показателей.

Генетическое тестирование. Определенные мутации в генах могут повышать риск различных заболеваний. Генетический анализ позволяет понять, какие процессы могут быть нарушены.

В последние годы было разработано множество биомаркеров, которые могут быть использованы для раннего выявления заболеваний. Профилактика заболеваний — это один из наиболее

эффективных и экономически выгодных подходов в здравоохранении. Одним из основных направлений профилактики это рациональное питание и физическая активность. Сбалансированное питание и регулярные физические упражнения поддерживают нормальный метаболизм и снижают риск хронических заболеваний.

Биохимические процессы, такие как выделение кортизола, тесно связаны со стрессом, и их нарушение может приводить к возникновению заболеваний.

Применение нутриентов и витаминов, подобранных на основе анализа состояния организма, может способствовать укреплению здоровья и снижению риска болезней.

Раннее выявление биохимических изменений позволяет предпринять профилактические меры и избежать развития заболевания.

На сегодняшний день существует множество технологий, которые помогают отслеживать биохимические процессы и своевременно обнаруживать возможные проблемы:

Современные носимые устройства могут измерять показатели, такие как уровень сахара в крови, артериальное давление, ЧСС и другие, что позволяет постоянно проводить мониторинг состояния организма. Кроме того некоторые приложения анализируют данные с носимых устройств и дают рекомендации по изменению образа жизни.

Таким образом, распознавание биохимических процессов организма и понимание их связи с различными заболеваниями открывает новые горизонты в профилактике заболеваний. Подходы, основанные на биохимии, позволяют не только улучшить качество жизни, но и значительно увеличить ее продолжительность.

## GELMINTLARNING EPIDEMIOLOGIK MONITORINGI

**Turg'unboyev F. A., Muhidinova Sh. B.**  
**Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institute**

Bugungi kunda gelmintozlarning tarqalishida aholi qatlamlari orasida bolalar, qishloq joylarida yashovchilar, kam ta'minlangan guruhlar va qishloq xo'jaligida ishlovchilarning sezilarli darajada ta'sirlanayotganini ko'rsatmoqda. Gigiyenik sharoitlarning pastligi, sanitariya infratuzilmasining yetishmasligi va tibbiy yordamga yetarlicha e'tibor berilmasligi gelmint infeksiyalarining keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu tezisda gelmintozlarning epidemiologiyasi va uning ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liqligini tahlil qilib, sog'liqni saqlash tizimi uchun dolzarb choralarni ko'rsatadi. Biz gelmintlarning tarqalish epidemiologiyasi nazorat qilishimiz uchun albatta gelmintlarning qaysi aholi guruhlari o'rtasida keng tarqalgani, inson sog'lig'i uchun ta'siri va salbiy omillari haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishimiz zarur. Gelmint infeksiyalariga ko'proq uchraydigan asosiy xavf guruhlari quyidagilardan iborat: bolalar, qishloq aholisi, kam ta'minlangan oilalar, qishloq xo'jaligi va og'ir mehnat bilan shug'ullanadiganlar kiradi.

Gelmintlarning ko'payishini to'xtatish va epidemiologiyasini nazorat qilish uchun samarali chora-tadbirlar ishlab chiqilishi kerak. Ushbu chora-tadbirlar barcha aholi qatlamlarini qamrab olishi, turli ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga mos kelishi lozim. Quyida gelmint infeksiyalarining tarqalishini nazorat qilish uchun zamonaviy usullar va barcha qatlamlar uchun aniq choralar keltirilgan:

Gigiyenik choralarga rioya qilish: Bolalar va o'quvchilar: Maktablarda va uyda bolalarga qo'llarni sovun bilan yuvish, toza suv ichish, oziq-ovqatni iste'mol qilishdan oldin va tualetdan keyin gigiyenaga rioya qilish muhimligini o'rgatish kerak. Shu bilan birga, maktablarda toza ichimlik suvi va gigiyena sharoitlarini yaxshilash zarur. Kattalar va qishloq xo'jaligida ishlovchilar: Kattalar, ayniqsa, qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikda band bo'lganlar tuproq bilan aloqada bo'lganda qo'lqop kiyishlari, shaxsiy gigiyenaga qat'iy rioya qilishlari kerak. Yalangoyoq yurishdan saqlanish tavsiya etiladi.

Sanitariya sharoitlarini yaxshilash: Qishloq aholi: Toza ichimlik suvi manbalarini ta'minlash va chiqindi suvlarni to'g'ri tozalash tizimlarini tashkil qilish zarur. Qishloq joylarda ham sanitariya infratuzilmasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ochiq joylarda chiqindi tashlash va ifloslangan tuproq bilan aloqani kamaytirish kerak. Shahar aholisi: Shahar joylarida sanitariya xizmatlarini yaxshilash, axlat va chiqindilarni to'g'ri boshqarish tizimini rivojlantirish orqali gelmint infeksiyalarining tarqalishini kamaytirish mumkin.

Oziq-ovqat xavfsizligi: Uy bekalari va oshpazlar: Oziq-ovqatlarni tayyorlashda tozalikka alohida e'tibor qaratish, meva va sabzavotlarni iste'mol qilishdan oldin yaxshi yuvish lozim. Go'sht va baliq mahsulotlarini yetarlicha pishirish orqali gelmint tuxumlari va lichinkalarining o'limiga erishish mumkin. Fermerlar: Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ifloslanishdan himoya qilish va sifatli dezinfektsiyalash usullarini qo'llash muhimdir.

Tuproq va suv ifloslanishini oldini olish: Qishloq xo'jaligida ishlovchilar: Tuproq va suv ifloslanishining oldini olish uchun qishloq xo'jaligi yerlari va chorvachilik faoliyatlari uchun maxsus sanitariya qoidalari ishlab chiqilishi lozim. Suvni toza ushlab turish va hayvonlarning chiqindilarini to'g'ri boshqarish infeksiyalar tarqalishini kamaytiradi. Suv manbalarini himoya qilish: Toza suv manbalarini ifloslanishdan himoya qilish va suv filtratsiya tizimlarini joriy etish orqali aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishi zarur.

Ta'lim va xabardorlik dasturlari: Jamiyatni xabardor qilish: Aholi orasida gelmint infeksiyalarining xavfi, uni oldini olish va gigiyenik choralarga rioya qilishning ahamiyati haqida muntazam ravishda axborot kampaniyalari o'tkazish lozim. Televizor, radio, ijtimoiy tarmoqlar va mahalliy jamoalar orqali xabardorlikni oshirish infeksiyaga qarshi kurashda katta rol o'ynaydi. Maktab va bog'chalarda ta'lim: O'quv dasturlariga gigiyena va gelmint infeksiyalarining oldini olish bo'yicha ma'lumotlarni kiritish kerak. Bolalarga gigiyenaga rioya qilish odatlarini shakllantirish orqali infeksiyalar tarqalishini kamaytirish mumkin.

Zamonaviy texnologiyalar va monitoring: Monitoring tizimlarini joriy etish: Zamonaviy texnologiyalar orqali gelmint infeksiyalarining tarqalishini kuzatish va monitoring qilish tizimlarini ishlab chiqish. Bu mahalliy va milliy darajada infeksiyalarning nazorat qilinishiga yordam beradi. Ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt: Gelmint infeksiyalarining tarqalishini bashorat qilish va unga qarshi kurashish uchun sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tizimlaridan foydalanish.

Bu choralar gelmint infeksiyalarining tarqalishini sezilarli darajada kamaytiradi va jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olib, epidemiyani nazorat qilishga yordam beradi. Bunda ta'lim, sanitariya sharoitlarini yaxshilash va muntazam davolash muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Xulosa**

Mazkur tezisdagi ko'rsatilgan chora-tadbirlar, jumladan, gigiyenaga rioya qilish, sanitariya sharoitlarini yaxshilash, antigelmint dasturlarini keng ko'lamda amalga oshirish va aholining xabardorligini oshirish infeksiyalar tarqalishini sezilarli darajada kamaytirishga qaratilgan. Shuningdek, tuproq va suv ifloslanishini oldini olish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash ham gelmintlarning ko'payishini nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi. Epidemiyani samarali nazorat qilish uchun aholining

barcha qatlamlarini qamrab olgan integral yondashuv zarur. Shu tarzda, jamiyat sog‘lig‘ini yaxshilash, infeksiyalarning oldini olish va ularga qarshi samarali choralarni ko‘rish orqali kelajakda bu kasalliklar tarqalishini bartaraf etish mumkin.

## **FARG‘ONA VILOYATIDA OIV-INFEKSIYASINI JINSIY YO‘L BILAN TARQALISHINING EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Vaxobov G. G., Muhidinova Sh.B.**  
**Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institute**

OIV (O‘zgaruvchan Immunitet Tanqisligi Virusi) infeksiyasi hozirgi kunda global salomatlik muammolaridan biri bo‘lib, uning jinsiy yo‘l bilan tarqalishi ijtimoiy-sog‘liqni saqlash muammosining eng dolzarb sohalaridan biridir. OIV infeksiyasi jahon miqyosida 1980-yillardan boshlab tez tarqala boshladi, va bugungi kunda uning tarqalishi OIV kasalligi bilan bog‘liq asosiy xavf omillaridan biridir. O‘zbekiston, shu jumladan Farg‘ona viloyati, OIV tarqalishining kuzatilgan geografik hududlaridan biridir. Ushbu tezisda, Farg‘ona viloyatida OIV infeksiyasining jinsiy yo‘l bilan tarqalishining epidemiologik xususiyatlari, tarqalish omillari va profilaktika tadbirlari tahlil qilinadi.

OIV infeksiyali bemorlar umrining oxirigacha virusning yuqtirish xavfini saqlab qolishi, virusni genetik o‘zgaruvchanligi (mutatsiya) tufayli dunyo bo‘yicha kasallikning oldini oladigan samarali vaksinaning yo‘qligi, kasallik asosan nosog‘lom turmush tarzini olib boruvchi va pala-partish jinsiy hayot kechiruvchi shaxslar orasida tarqalishi va ular bilan samarali ishlash imkoniyatining murakkabligi, OIV infeksiyasining tarqalishini butunlay to‘xtatib qoladigan chora-tadbirlarni dunyo bo‘yicha ishlab chiqilmaganligi, kasallik virusiga samarali ta‘sir etuvchi davolash vositalarining yo‘qligi epidemiyaning keng tarqalishiga zamin yaratmoqda.

Farg‘ona viloyatida OIV infeksiyasi, 2000-yillardan boshlab, sekin-asta tarqalishni boshladi. Biroq, 2010-yildan keyin jinsiy yo‘l bilan tarqalishining sezilarli ortishi kuzatildi. Viloyatda OIV infeksiyasining tarqalishi, aholi o‘rtasida jinsiy aloqa madaniyati, xavfsiz jinsiy aloqa vositalari (masalan, prezervativlar) va sog‘liqni saqlash sohasidagi ta‘limning past darajasi kabi omillarga bog‘liq.

Viloyatning demografik o‘zgarishlari va migratsiya jarayonlari ham OIV tarqalishiga ta‘sir ko‘rsatmoqda. Aholi orasida OIV haqida etarli bilimlarning yo‘qligi, shuningdek, infeksiyani vaqtida aniqlash va davolash tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi infeksiyaning keng tarqalishiga olib kelmoqda. 2019-yilgi statistika bo‘yicha, viloyatda

OIV infeksiyasi bilan kasallangan 500 dan ortiq holat qayd etilgan bo‘lib, ularning aksariyati 25-40 yoshdagi yosh shaxslar edi. Bu yosh guruhining yuqori jinsiy faoliyat ko‘rsatishi va xavfsiz jinsiy aloqa vositalarini ishlatishning past darajasi infeksiyaning tarqalishiga turtki bo‘lgan omillardan biridir.

Viloyatda 2022 yilda jami 387 nafar shaxsda OIV infeksiyasi aniqlanib, kasallanishning har 100 ming aholiga intensiv ko‘rsatkichi 9,9 ni tashkil etdi. O‘tgan 2021 yilda 297 ta holatda OIV infeksiyasi aniqlanib, har 100 ming aholiga intensiv ko‘rsatkich 7,7 ni tashkil etgan. Kasallanish holatlari 2022 yilda 2021 yilga nisbatan 90 ta holatga, ya’ni 30,3 %ga ortgan.

Farg‘ona viloyatida OIV infeksiyasining jinsiy yo‘l bilan tarqalishining asosiy xavf omillari quyidagilar:

- **Jinsiy madaniyatning pastligi:** Aholi orasida xavfsiz jinsiy aloqa, prezervativlardan foydalanish, OIV va boshqa jinsiy yo‘l bilan tarqaladigan kasalliklar haqida bilimlarning pastligi infeksiyaning tarqalishini yengillashtiradi.

- **Yoshlar va jinsiy faol shaxslar orasida xavf ostidagi holatlar:** Farg‘ona viloyatidagi yoshlar orasida xavfsiz jinsiy aloqa vositalarini ishlatish darajasi past, bu esa jinsiy yo‘l bilan infeksiyalash xavfini oshiradi.

- **Ijtimoiy va iqtisodiy omillar:** Farg‘ona viloyatida ko‘plab yoshlar ish izlab boshqa hududlarga, xususan, chet elga migratsiya qilmoqda. Bu migratsiya jarayonlari jismoniy va jinsiy xavfsizlikni zaiflashtirib, infeksiyaning tarqalishiga yordam beradi.

- **Sog‘liqni saqlash xizmatlarining yetarli darajada rivojlanmasligi:** Farg‘ona viloyatida OIV testlarining o‘tkazilishi, kasallikni erta aniqlash va davolash bo‘yicha ishlov berish tizimining kamchiliklari infeksiyaning sekin tarqalishiga olib kelmoqda.

#### **Xulosa**

- Ommaviy axborot vositalaridan keng foydalangan holda aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida OIV infeksiyasidan saqlanish choralari to‘g‘risida targ‘ibot ishlarini kuchaytirish.

- Sog‘liqni saqlash tizimidagi birlamchi bo‘g‘in tibbiyot xodimlari tomonidan mahalla fuqarolar yig‘inlari faollari bilan birgalikda mehnat migrantlari va ularning oila azolari o‘rtasida OIV infeksiyasidan saqlanish choralari to‘g‘risida targ‘ibot ishlarini yanada takomillashtirish.

- Jinsiy hayotga oid ta’limni keng targ‘ib qilish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini takomillashtirish.

## ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ СИТУАЦИИ И ЗАБОЛЕВАЕМОСТИ НАСЕЛЕНИЯ ГЕЛЬМИНТОЗАМИ

Казимова С. Мухидинова Ш. Б.

Ферганский медицинский институт общественного  
здравоохранения

**Актуальность работы.** Эпидемиологическая ситуация по гельминтозам варьируется в зависимости от региона и уровня санитарно-гигиенических условий. Гельминтозы наиболее распространены в странах с низким уровнем жизни и недостаточным доступом к чистой воде и санитарии. В некоторых регионах они могут затрагивать до 90% населения. Наиболее распространенные виды включают аскаридоз, энтеробиоз, трихинеллез, тениоз и гименолепидоз. в Узбекистане, в связи большой плотностью и высоким процентом детского населения относится к территории с высоким уровнем заболеваемости гельминтозами.

**Цель исследования.** Изучить эпидемиологическую ситуацию и заболеваемости населения гельминтозами.

**Материал и методы исследования.** При проведении научной работы были использованы паразитологические, эпидемиологические и статистические методы исследования.

**Полученные результаты.** Изучение эпидемиологической ситуации в Сухском районе, а также реализация дифференцированных оздоровительных мероприятий, прогнозирование заболеваемости и организация эпидемиологического мониторинга представляют собой значимые научно-практические задачи. В этой связи группировка населения по уровням заболеваемости гельминтозами является ключевым элементом анализа и разработки эффективных стратегий вмешательства.

Многолетние исследования глистных инвазий в Сухском районе показали, что пораженность карликовым цепнем среди детей в детских садах составляет 19–20%, аскаридами — 6–10%, острицами — 14–20%. Среди школьников 1-4 классов заболеваемость аскаридами достигает 14–40%, острицами — 26–80%. В последние годы достигнуты значительные успехи в области изучения паразитарных заболеваний, которые в основном заключаются в установлении взаимосвязи между паразитами и такими последствиями, как нарушения пищеварения, аллергические реакции и анемия. Клинические проявления могут варьироваться от легких до тяжелых.

Разные виды гельминтов имеют свои специфические пути передачи и факторы риска. К числу факторов риска относятся

ненадлежащее обращение с пищей, низкий уровень гигиены, контакты с зараженными животными и неудовлетворительные санитарные условия, способствующие распространению этих заболеваний.

***На основании проведенных исследований можно сделать следующие выводы:*** Многолетний анализ продемонстрировал, что профилактические мероприятия, включая улучшение санитарных условий, повышение осведомленности населения о личной гигиене, регулярные профилактические обследования и дегельминтизацию животных, имеют критическое значение. Эти аспекты требуют комплексного подхода для эффективного контроля и профилактики гельминтозов на уровне здравоохранения.

**ПРОСТЕЙШИЕ И ДЕТСКАЯ ПОПУЛЯЦИЯ**  
**Акбаралиева Г. А., Мухидинова Ш. Б.**  
**Ферганский медицинский институт общественного**  
**здравоохранения**

**Актуальность работы:** Простейшие организмы встречаются повсеместно, особенно в субтропических и тропических регионах, где уровень пораженности населения может достигать 100%. Каждый год фиксируется более 2 миллионов случаев заболеваний, вызванных простейшими, при этом дети являются наиболее подверженной группой. Узбекистан, с учетом высокой плотности населения и значительной доли детского населения, относится к территориям с высоким уровнем заболеваемости простейшими.

**Цель исследования:** Изучить распространенности простейших у детей.

**Материал и методы исследования.** При проведении научной работы были использованы паразитологические, эпидемиологические и статистические методы исследования.

Полученные результаты: Многолетние исследования по заболеваемости детей города Ферганы простейшими, проведенные на базе паразитологической лаборатории СЭБ и СОЗ, выявили уровень пораженности лямблиозом в диапазоне от 0,5% до 8%. В рамках нашего исследования, направленного на изучение причин заболеваемости среди населения, была проанализирована группа детей в возрасте до 7 лет, среди которых было зарегистрировано 63 случая лямблиоза, что составляет 4,8%. Результаты данного исследования свидетельствуют о значительном уровне пораженности лямблиозом. Лямблиоз является одной из причин задержки психического и физического развития у детей, что негативно сказывается на успеваемости школьников и снижает их иммунную защиту против инфекционных заболеваний.

На основе проведенных исследований можно сделать следующие заключение:

- Проведение семинаров и лекций для родителей и воспитателей о профилактике лямблиоза.
- Обеспечение чистой водой, качественным питанием, особенно качественными санитарными условиями в школьных столовых, школах.
- Проведение регулярных профилактических обследований детей на наличие простейших.

- Своевременное лечение выявленных случаев лямблиоза.
- Регулярный мониторинг заболеваемости среди детей для выявления вспышек и принятия своевременных мер.

## PARAZITOLOGIYA FANINI O‘QITISH VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

**Do‘smatova D.A., Muxidinova Sh. B.**  
**Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti**

**Dolzarbli:** Bugungi kunga qadar parazitlar infektsiyalarni laboratoriya diagnostikasi samaradorligi pastligicha qolmoqda. Buning sababi shundaki, mutaxassislar tayyorlashda parazitlarning morfologiyasi va biologiyasini o'rganish uchun etarli vaqt ajratilmaydi. Natijada, ko'plab klinik laboratoriya xodimlari ish boshlaganlarida, protozoalarni boshqa ob'ektlardan ajrata olmaydilar, hatto ular o'rganilayotgan namunalarda mavjud bo'lsa ham. (bu ayniqsa lyambliozga tegishli). Bu esa noto'g'ri “ijobiy” va noto'g'ri “salbiy” tekshiruv natijalariga olib keladi.

Tibbiy parazitologiyani o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari o‘quv va muzey makro- va mikroskopik preparatlarni uyg‘unlashtirish, shuningdek, an’anaviy usullarni yangilari bilan birlashtirish imkonini beruvchi zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishni o‘z ichiga olishi kerak. Bunday yondashuv o'quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi va uning samaradorligini oshiradi. Aksariyat ta’lim muassasalarida parazitologiya bo‘yicha mikropreparatlar mavjud emas. 19-asrning o'rtalarida ishlab chiqilgan eskirgan materiallardan foydalanish endi samarali emas va yangi dori-darmonlarni har doim ham sotib olish imkoniyati mavjud emas. Biroq, qimmatli o'quv materiallarini raqamli formatga o'tkazish asl chizmalarni uzoq vaqt saqlab qolish va ishlatish imkonini beradi. Auditoriyalarda multimedia uskunalari mavjud bo'lsa, Internet resurslaridan yuqori sifatli materiallarni namoyish qilish mumkin.

Odamlardan parazitologik material olishdagi qiyinchiliklar laboratoriyaga kiradigan namunalarni konservatsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, zoonoz infektsiyalar bilan shug'ullanadigan veterinariya shifokorlari bilan hamkorlik qilish muhim, chunki hayvonlar va odamlar parazitlarining morfologik o'xshashligi ularni o'quv jarayonida qo'llash imkonini beradi.

**Xulosa:** Virtual laboratoriyalar va multimedia taqdimotlari kabi raqamli texnologiyalarni joriy etish Parazitologiya fanini chuqurroq o‘rganishga yordam beradi va zamonaviy tadqiqot ma’lumotlaridan foydalanish

imkonini beradi. Bundan tashqari, mikroslydlarni saqlash va taqdim etish uchun raqamli resurslardan foydalanish qimmatli namunalarni saqlab qolishga yordam beradi va talabalar uchun ulardan foydalanishni osonlashtiradi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar uchun yangi ufqlarni ochadi.

Parazitologiya fanini o'qitishda Raqamli texnologiyalardan foydalanish nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki yuqori malaka va moslashuvchanlikni talab qiladigan sharoitlarda samarali ishlay oladigan mutaxassislarni tayyorlanadi

### **Adabiyotlar**

1. Кулиева, Э. М., & Абдуганиева, А. Е. РОЛЬ ТЕОРИЙ И КОНЦЕПЦИЙ ЭПИДЕМИОЛОГИИ В ПРОФИЛАКТИКЕ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ. *СБОРНИК*, 97.

## **BUYRAK- TOSH KASALLIGI** **Bobosoliyev A. A., Muhidinova Sh. B.**

### **Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti**

Buyrak - tosh kasalligi (Urolitiasis) O'zbekistonda keng tarqalgan kasalliklardan biri bo'lib moddalar almashinuvi buzilishi oqibatida buyrak kanalcha va jomida kristal toshlar paydo bo'ladigan surinkali kasallik. O'zbekistonning ba'zi geografik hududlarida, jumladan Farg'ona viloyati axolisining aksariyat qismi ichimlik suvi sifatida yer osti suvidan foydalanishi sabab ushbu kasallik keng tarqalgan. Bizga ma'lumki yer osti suvi tarkibida turli mineral moddalar, tuzlar ko'p miqdorda uchraydi.

Kasallikning klinik belgilari: Belda og'rik, siydik ajralish vaqtida achishshish ba'zan siydikni qon aralash kelishi, siydik rangi va xajmining o'zgarishi, ba'zan siydik yo'lini batamom berkiladi. Ushbu kasallikni davolashda zamonaviy tabobat bilan bir qatorda halq tabobatidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Farg'ona viloyati bo'yicha siydik tosh kasalligi bilan og'rigan bemorlar soni 3147 ta bo'lib bulardan 48.1% (1514ta) ayol, 51.9% (1633ta) erkak, 14-yoshgacha bolalar 138 nafar bo'lib, 40.6% (56ta) ayol, 59.4% (83ta) erkak, 15-17 yoshgacha 66 ta bulib 62.1% (41ta) ayol, 37.9% (25ta) erkak 18 yosh va undan yuqori bulganlar 2943ta bulardan 48.1% (1417ta) ayol, 51.9% (1526 ta) erkaklarni tashkil etadi.

**Xulosa:** Ichimlik suvi tarkibidagi mineral tuzlar miqdorini nazorat qilish ushbu kasallikning profilaktika chorasidir.

## **SOG‘LOM TURMUSH TARZINI TASHKIL ETISH VA KASALLIKLAR PROFILAKTIKASI**

Z.SH. Qoryog‘diyev., J.X. Yo‘ldashev

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

**Dolzarbligi:** Qaror yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, aholining sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va jismoniy faolligini oshirishni tashkil qilish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida qabul qilinmoqda.

**Tadqiqotning maqsadi:** Prezident qaroriga muvofiq 2019–2022 yillarda yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faolligi darajasini oshirish Kontseptsiyasi hamda 2019–2022 yillarda yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari Dasturi tasdiqlanmoqda.

**Natijalar.**Sog‘lom turmush tarzini tashkil etish jismoniy, ruhiy va hissiy farovonlikni qo‘llab-quvvatlaydigan asosiy jihatlarni muvozanatlashni o‘z ichiga oladi. Bunda quyidagi asosiy elementlarga e‘tibor berish lozim:Ovqatlanishning muvozanatli ratsioni: Ko‘proq sabzavot, meva, to‘liq don mahsulotlari, oqsillar va foydali yog‘lar iste‘mol qilish. Doimiy ovqatlanish vaqtlari: energiya darajasini barqaror ushlab turish uchun vaqtida ovqatlanish, kun davomida yetarli miqdorda suv ichish tanadagi suvning meyoriy holatini ta‘minlashga yordam beradi ayniqsa yozning issiq kunlarida. Jismoniy faoliyatda yugurish yoki velosipedda yurish kabi aerobik mashqlar va kuch mashqlarini o‘z ichiga oladi. Natijada barqarorlik inson kamida haftasiga 150 daqiqa o‘rtacha jismoniy faoliyat bajarishga harakat qilib borilsa, organizmda ortiqcha yog‘larning to‘planishini oldi olinadi. Yoga kabi cho‘zilish mashqlari moslashuvchanlikni saqlash va jarohatlar xavfini ham kamaytirishga yordam

beradi. Insonning ruhiy salomatligi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, ish jarayonida yoki o‘qish jarayonida ruhiy tushkunlik ish unumdorligiga va o‘qishning paslab ketishiga sababchi bo‘ladi. Stressni boshqara olish, yoki chuqur nafas olish kabi usullarni qo‘llash, ijtimoiy aloqalar, do‘stlar va oila bilan muloqot qilish ruhiy mustahkamlikni oshirishga yordam beradi. Har bir shahs u talaba yoki ishchi hatoki uyda o‘tiradigan insonlar ham dam olishi, quvonch va ijod olib keladigan mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishi kerak. Bularning ichida yani bir muhim jihatlisi bu uyqu: Har kuni 7-9 soat uxlash uchun doimiy uyqu rejimini o‘rnatilishi krek. Tinch, qorong‘i va qulay uyqu muhiti yaratish bilan birgalikda zararli kofein va ekran qarshisidagi vaqtni kamaytirish kerak bo‘ladi.

**Xulosa.** Profilaktik ko‘riklar kasalliklarning oldini olish va skrining tekshiruvlari uchun muntazam shifokor qabuliga borish jiddiy kasalliklarni oldini olishga yordam beradi. Kasalliklar profilaktikasida ekologik va ijtimoiy omillarni inobatga olish nafaqat atrof-muhit va sog‘liqni saqlash, balki odamlarning farovonligini oshirishga ham xizmat qiladi. Bu yondashuv sog‘liqni saqlash tizimini kengaytirish va jamiyatning barcha qatlamlari uchun adolatli resurslar va xizmatlarga kirishni ta‘minlaydi. Natijada, biz ozod, salomatligi yaxshi va farovon jamiyatni yaratishga qadam tashlaymiz.

## **MAYMUN CHECHAGI EPIDEMIOLOGIYASI VA PROFILAKTIKASI**

Boltaboev U.A., Qulmamatov M.

Farg‘ona jamaot salomatligi tibbiyot instituti

Maymun chechagi (lotincha: Monkeypox virus) — bu virusli infeksiya bo‘lib, odatda maymunlar va kemiruvchilarda uchraydi, lekin odamga ham yuqishi mumkin. Bu kasallik birinchi marta 1958-yilda laboratoriya maymunlarida aniqlangan. 1970-yilda esa Afrikaning bir nechta davlatlarida odamlarda ham qayd etilgan. Maymun chechagining dastlabki belgilariga isitma, bosh og‘rig‘i va mushak og‘rig‘i, shishgan limfa tugunlari, titroq va ozg‘inlik kiradi. Kasal bo‘lganlarda ko‘pincha yuzda boshlanib, keyin tananing boshqa qismlariga, jumladan qo‘llar, oyoqlar va jinsiy a‘zolariga tarqaladigan toshma paydo bo‘lishi mumkin. Maymun chechagi hasharotlarning chaqishi, ifloslangan buyumlar yoki kasal odam bilan yaqin aloqa qilish orqali yuqishi mumkin.

Infeksiyalangan odamlarning aksariyati bir necha hafta ichida tuzalib ketadi. Biroq, birinchi marta 1970 yilda kashf etilgan maymun chechagining eng halokatli shtammlari bemorlarning 10 foizini o‘ldirishi mumkin. Maymun chechagi virusi 2024-yilning aprel va may oylarida G‘arbiy Yevropaning bir qancha mamlakatlarida, shuningdek, boshqa qit‘alarda tarqaldi. Sentyabr oylariga kelib kasallik Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Portugaliya, Fransiya, Shveysariya va Shvesiyada, shuningdek, AQSh, Kanada va Avstraliya, BAA da ham aniqlangan. Dunyo hamjamiyatida chinchechakka qarshi vaksina mavjud, ammo maymun chechagiga qarshi vaksina mavjud emas. Chinchechak virusi dunyoning faqat ikkita davlatida — AQSh va Rossiya maxsus laboratoriyalarida saqlanyapti. Bu laboratoriyalarda ularni saqlashdan maqsad qachonki, chinchechakka o‘xshash kasalliklar paydo bo‘lsa, uni solishtirish, ya’ni qo‘zg‘atuvchilarni bir-biri bilan qiyoslash orqali aniq tashxis qo‘yish maqsad qilib olingan. Lekin

shu bilan birgalikda, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ta’kidlashicha, hozir chinchechakka qarshi 200 mlndan ko‘proq doza vaksina zaxirasi mavjud. Agar bu vaksinalarni ishlatishga ehtiyoj bo‘ladigan bo‘lsa, albatta, JSST tavsiyasiga asosan, olib boriladi. Kasallikka laboratoriya tashxisini qo‘yish uchun “polemera za zanjirli reaksiya usuli”dan foydalaniladi. Shu nuqtai nazardan, hozir bu test sistemalarini O‘zbekiston hududiga olib kelish choralari amalga oshirilmoqda. Bunday paytlarda tibbiyotda yana bir usul bor. Masalan, aynan viruslar chaqiradigan ko‘pgina yuqumli kasalliklarning klinik belgilarida bir vaqtning o‘zida tana haroratining ko‘tarilishi, terlash, og‘riq va tanada toshmalar paydo bo‘lishi kuzatiladi. Qachonki, bu kabi holatlar kuzatiladigan bo‘lsa, “tibbiyotni inkor qilish usuli”dan foydalaniladi. Inkor qilish usuli degani, agar shifokor beshta kasallikka gumon qilayotgan bo‘lsa, qizamiq, qizilcha yoki boshqa bir kasallik tasdiqlansa, demak chinchechak yo‘q. Bu usul bilan boshqa 4 yoki 5 ta shubha qilingan kasalliklar mabodo aniqlanib qoladigan bo‘lsa, biz chinchechak emas, qizamiq yoki qizilcha, degan tashxisni qo‘yish usulidan foydalanamiz”. Shu bilan birga, tashxis qo‘yish uchun kasallikka chalingan odam virus o‘chog‘ida bo‘lgan, kasallik manbai bilan muloqot qilgan bo‘lishi kerak. Epidemiologik analiz yig‘ilgan paytda xavf osti guruhiga mansub bo‘lishi kerak. Demak, mana shu holatlar yo‘q bo‘lsa, maymun chechagiga gumon qilishga hech qanday asos yo‘q. Ba’zan internet tarmoqlarida ba’zi bir toshmalarni rasmga olib, joylashtirishyapti va chinchechak bo‘lsa kerak, degan fikrlar olg‘a surilyapti. Aslini olganda, chinchechak kasalligiga katta yoshdagi odamlar chalinmaydi. Negaki, ularning aksariyatida chinchechakka qarshi immunitet bor. Yosh bolalarda kasallikka chalinish ehtimoli mavjud. Kasallikka chalingan taqdirda ham ular havo tomchi, yaqin muloqot yo‘li bilan hamda teri va shilliq qavatning jarohatlanishi bilan kechadigan jismoniy muloqotlar orqali ham yuqish ehtimoli bor. Qolaversa, ular kiygan kiyim, ular ishlatgan choyshablar orqali

kasallik yuqish ehtimoli ham bor. Shunday ekan, kasallikning manbai bilan ro‘baro‘ kelmagan odamda kasallikka shubha qilish uchun asos mavjud emas.

## ACUTE RESPIRATORY DISTRESS SYNDROME

**Ibragimova Z., Mahammadova O.**

**Abstract:** Acute respiratory distress syndrome (ARDS) occurs when lung swelling causes fluid to build up in the tiny elastic air sacs in the lungs. These air sacs, called alveoli, have a protective membrane, but lung swelling damages that membrane. The fluid leaking into the air sacs keeps the lungs from filling with enough air. This means less oxygen reaches the bloodstream, so the body's organs don't get the oxygen they need to work properly.

**Keywords:** acute respiratory distress syndrome (ARDS), increase in hydrostatic pressure in the alveolar capillaries, cardiogenic, permeability, acute exudative process, chronic fibrosis.

The significance of the cell components of the alveolus becomes clear when we analyze the relevant aspects of the acute respiratory distress syndrome (ARDS).

ARDS results from a disruption of the normal barrier that prevents leakage of fluid of the alveolar capillaries into the interstitium and alveolar spaces.

Two mechanisms can alter the alveolar barrier:

1. An increase in hydrostatic pressure in the alveolar capillaries, caused, for example, by failure of the left ventricle or stenosis of the mitral valve, This determines increased fluid and proteins in the alveolar spaces. The resulting edema is called cardiogenic or hydrostatic pulmonary edema.

2. The hydrostatic pressure is normal, but the endothelial lining of the alveolar capillaries or the epithelial lining of the alveoli is damaged. Inhalation of agents such as smoke, water (near drowning), or bacterial endotoxins (resulting from sepsis), or trauma can cause a defect in permeability. A cardiac component may or may not be involved. Although the resulting edema is called noncardiogenic, it can coexist with a cardiogenic condition.

A common pathologic pattern of diffuse alveolar damage can be observed in cardiogenic and noncardiogenic ARDS. The first phase of ARDS is an acute exudative process defined by interstitial and alveolar edema, neutrophil infiltration, hemorrhage, and deposits of fibrin. Cellular debris, resulting from dead type I alveolar cells, and fibrin deposit in the alveolar space and form hyaline membranes.

Neonatal respiratory distress syndrome (RDS) in premature infants is characterized by a protein-rich, fibrin-rich exudation into the alveolar space, forming a hyaline membrane that leads to CO<sub>2</sub> retention. In the newborn, surfactant deficiency causes the lungs to collapse (atelectatic lung) with each successive breath.

The second phase is a proliferative process in which alveolar cells proliferate and differentiate to restore the epithelial alveolar lining, returning gas exchange to normal in most cases. In other cases, the interstitium displays inflammatory cells and fibroblasts. Fibroblasts proliferate and invade the alveolar spaces through gaps of the basal lamina. Hyaline membranes are either removed by phagocytosis by macrophages or invaded by fibroblasts. The third phase is chronic fibrosis and occlusion of blood vessels. Because ARDS is part of a systemic inflammatory response, the outcome of the lung process depends on improvement of the systemic condition. The prognosis for return to normal lung

function is good. The diagnosis of ARDS is based on clinical (dyspnea, cyanosis, and tachypnea) and radiologic examination.

#### **List of literature used:**

